

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 371.035+297

QILICHEVA NURIYA NISHON QIZI

5A110901 - Pedagogika nazariyasi va tarixi
mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik darajasini olish uchun

**“AZIZIDDIN NASAFIYNING KOMIL INSON HAQIDAGI TA‘LIMOTI
VA UNING ILMIY AMALIY AHAMIYATI”**

mavzusida yozilgan

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: prof. A. Choriyev

QARSHI – 2019

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. Qadimgi Nasafda madaniyatning rivojlanishi. Nasafiylarning ma'rifatparvarlik qarashlari	7
1.1 XII-XIV asrlarda Nasafda madaniyatning rivojlanishi.....	7
1.2 Nasafiylar merosining o'rganilishi	20
II BOB. Aziziddin Nasafiyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari	32
2.1 Aziziddin Nasafiy shaxs shakllanishida irsiyatning o'rni haqida.....	32
2.2 Aziziddin Nasafiy shaxs shakllanishida mikromuhitning(olami sug'ro) tutgan o'rni haqida.	37
2.3 Aziziddin Nasafiy makromuhitning(olami kubro) tutgan o'rni haqida.....	57
III BOB. Aziziddin Nasafiyning komil inson haqidagi ta'limotining ilmiy-amaliy ahamiyati	85
3.1 Aziziddin Nasafiy komil inson ta'limotining tasavvufda tutgan o'rni.....	85
3.2 Aziziddin Nasafiyning komil inson ta'limotining ta'lim-tarbiya nazariyasida tutgan o'rni.....	90
3.3 Aziziddin Nasafiy komil inson ta'limotining pedagogik ta'limda qo'llanilishi.....	95
Umumiy xulosalar va tavsiyalar	103
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	106
Ilovalar	108

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Har qanday davr va har qanday jamiyatda ham olim-u ulamolar, mutafakkiru donishmandlarning o'rni beqiyos bo'lgan. El-u yurt o'zining shunday aziz va buyuk farzandlari bilan haqli ravishda faxrlangan. Ko'ngli tog'day ko'tarilib g'urur-u iftixorga to'lgan. Bu hayotiy haqiqatdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, Allohning nazari tushgan yurtimiz – O'zbekiston zaminidan azal-azaldan o'zlarining ilmiy-ma'naviy, ma'rifiy, falsafiy meroslari bilan jumlai jahonga tanilgan ko'plab buyuk allomalar va mutafakkirlar yetishib chiqib samarali faoliyat ko'rsatganlar. Ular aql-zakovati, tafakkur dunyosi va yuksak ilmiy salohiyatining mahsuli bo'lgan bebaho asarlariga buyuk kashfiyotlari ming yillar osha nafaqat bizning diyorimiz, balki jahon ahlining qudrati ma'naviy mulki sifatida ham ardoqlanadi. Bu umumbashariy meros dunyo tamadduni rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'lganligi hozirgi vaqtda ilm ahillariga ham keng jamoatchilikka ham yaxshi ma'lum. Taassuflar bo'lsinki, sobiq tuzum davridagi buyuk allomalarimizga nisbatan bo'lgan adolatsizliklar va nohaqliklar tufayli ular o'z maqomiga yarasha qadr-qimmat ko'rmay asarlari ham munosib bahosini topmagan edi. Binobarin, xalqimiz, keng jamoatchilik u zotlarning olamshumul ahamiyatga molik boy va qimmatli merosidan bebahra bo'lib keldilar.[5]

Ta'lim-tarbiya kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq rivojlangan bilim. Insoniyat tomonidan yaratilgan tajribalarni yosh avlodga o'rgatish, ularni hayotga, mehnatga, kasb-hunarga tayyorlash, ma'naviy- axloqiy fazilatlarni shakllantirish, tarixiylik, milliylik, umuminsoniylik qonuniyat sifatida qaror topdi. Ma'lumki, qonuniyat barqaror takrorlanadigan voqea va hodisalarning ichki bog'liqligi, asrlar bo'yicha tajribada sinalgan ilmiy kategoriya. Ta'lim-tarbiya jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishining muhim omili bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

Mustaqillikdan keyin tasavvufning insoniylik g'oyalarining tarbiyaviy ahamiyati borasidagi pedagogik tadqiqotlar, Abu Nasr Farobiyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiya haqidagi

merosidan foydalanish, Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya haqidagi, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Berdaq, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya haqida ta'limotlari bo'yicha pedagogik tadqiqotlarda ilmiy-amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan, uzluksiz ta'lim dasturlari, darsliklarga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi „Qadimgi yozma manbalarni saqlash tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qaror ijrosini ta'minlash bugungi kunda o'tmish ajdodlarimizning merosini qaytadan o'rganishga yanada keng yo'l ochib berdi. [1]

Yaratib berilayotgan bunday imkoniyatlardan foydalanib hamda ta'lim – tarbiyaning tarixiylik qonuniyatidan kelib chiqqan holda biz ham Aziziddin Nasafiyning komil inson haqidagi ta'limoti va uning ilmiy amaliy ahamiyatini o'rganish joiz deb bildik. Bu mavzuning dolzarbigi shundaki, shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi globallashuv davrida komil inson qiyofasini yaratish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Allomaning „Insoni komil“ asarini o'rganish ham pedagogika sohasida ulkan yangilik bo'lib xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Tadqiqotning maqsadi: Qadimgi Nasafda madaniyat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya ilmining taraqqiyotida Nasafiylar, Aziziddin Nasafiyning komil inson ta'limotining rivojlantirilishi va undan pedagogik ta'limda foydalanish imkoniyatlari.

Tadqiqotning vazifalari:

- Qadimgi Nasafda madaniyatning rivojlanishi o'rganib chiqish;
- Nasafiylar merosining o'rganilishini yoritib berish;
- Aziziddin Nasafiyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarini o'rganish;
- Aziziddin Nasafiyning komil inson ta'limotining ta'lim-tarbiya nazariyasida qo'llanilishini asoslab berish;
- Aziziddin Nasafiyning komil inson ta'limotining pedagogik ta'limda qo'llanilishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obeykti. Nasafiylarning, Aziziddin Nasafiyning ilmiy merosini o'rganish va pedagogik tahlil etish va amaliyotga tadbiiq etish jarayoni

Tadqiqotning predmeti. Aziziddin Nasafiy asarlarida barkamol shaxs ta'lim-tarbiyasining mazmuni, metodlari, vositalari, qonuniyatlari va uning hayotda qo'llanishi prinsiplari.

Ilmiy tadqiqotning farazi. Agar qadimgi Nasafda ilm-fanning rivojlanishi o'rganilsa:

- Qadimgi Nasafning buyuk mutafakkiri A.Nasafiyning komil inson ta'limoti tahlil etilsa;
- A.Nasafiyning ta'lim-tarbiya metodlari va vositalari haqidagi qarashlari aniqlansa;
- A.Nasafiyning ilmiy merosidan pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish samarali yo'llari ishlab chiqilsa bo'lajak pedagoglarni xalqimiz tarixini o'rganish yo'l xaritasi yaratish imkoniyati oshadi va o'quvchilarni tarix bilan tarbiyalash va tayyorlash imkoniyati, mahorati shakllanadi.

Ilmiy tadqiqotning yangiligi:

- Qadimgi Sharq madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri 3 ming yilga yaqin tarixga ega bo'lgan Nasafda ta'lim-tarbiya ilmining rivojlanishi ma'lum bir bosqichining yoritilganligi;
- Qadimgi Nasafda madaniyatning rivojlanishi, Nasafiylarning ma'rifatparvarlik qarashlari asoslanganligida;
- Buyuk tasavvuf allomasi Aziziddin Nasafiyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari pedagogik tahlil etilganligida;
- A.Nasafiyning komil inson haqidagi ta'limotining ilmiy asoslanganligida.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: O'zbekistonda nasafiyshunoslik marhum ustozimiz Najmiddin Komilov Tafakkur karvonlari asarida – allomalar amalga oshirgan ishlari va tasavvuf ahlining komil inson haqidagi qarashlari yoritilgan. Iste'dodli olim Poyon Ravshanovning sa'y-harakatlari tufayli keyingi yillarda bu yo'nalishda anchagina ishlar qilindi. Qarshi tarixi asarida qadimgi davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan davrdagi madaniyatini yoritib bergan.

Qashqadaryo vohasi madaniy hayotida iz qoldirgan talaygina olim va shoirlar haqida ma'lumotlar to'plandi. Nasafiylar merosini o'rganishda Ubaydulla Uvatovning O'zbekiston buyuk allomalar haqidagi ilmiy tadqiqotlari va izlanishlarini alohida ta'kidlash zarur. Madrasalarda ta'lim tizimi bo'yicha M. Tursunova ilmiy izlanishlarida yetarlicha yoritilgan.

Bundan tashqari Nosir Muhammadning Nasaf va Kesh allomalari haqidagi ilmiy izlanishlari, D.Maqsudov , D.Rahimjonov, A.O'rinboyev kabi yosh olimlar o'zlarining ilmiy izlanishlari davomida Nasafiylar merosini tarixiy jihatdan o'rganib tahlil qilishgan. Lekin Nasafiylar merosi pedagogik jihatdan tahlil qilinmagan va ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilishi o'rganilmagan. Qadimgi Nasafda komil inson masalasining bugungi kundagi uning ilmiy-amaliy ahamiyati o'rganilmagan.

Ilmiy tadqiqot metodlari: Ilmiy-tarixiy manbalarni o'rganish, tarixiy manbalarni pedagogik tahlil qilish, anketa so'rov metodi, tajriba sinov metodi, adabiyotlar va arxiv materiallarini o'rganish, eksperiment metodi.

Tadqiqotning tuzilishi: Mazkur magistrlik dissertatsiyasi 3 bob, 8 paragraf, xulosa va tavsiyalar, ilova, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. Qadimgi Nasafda madaniyatning rivojlanishi. Nasafiylarning ma'rifatparvarlik qarashlari.

1.1 XII-XIV asrlarda Nasafda madaniyatning rivojlanishi.

Naxshab (Nasaf) Qashqadaryoning quyi oqimidagi eng yirik viloyat va uning markaziy shahri edi. Nasaf Buxoroning Balxga o'tadigan karvon yo'lida Qashqadaryoning yoqasida qulay yerda joylashgan bo'lib, o'z davrining eng yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan hisoblangan. Arab muarrixlari Ibn Xavqal (X asr) Nasaf atrofida ko'plab qishloqlar mavjud ekanligini qayd etgan.

Nasafda arablarga qadar qanday imoratlar bo'lgan, ularning qaysilari saqlanganu, qaysilari vayron etilgan, bu haqida ma'lumot yo'q. Qadimshunoslar IX asrga taalluqli Nasaf quduqlari haqida ma'lumot beradilar. Nasaf qudug'i ichi pishiq g'ishtdan ishlab chiqilgan, mustahkam bo'lgan. Quduqdan paxta chanog'i, chigit, qovun, tarvuz, qovoq va boshqa poliz ekinlari urug'larining topilishi Nasaf va uning atrofida dehqonchilik yo'lga qo'yilganini, shaharning markazida hunarmandchilik korxonalari bo'lganligini dalolat etadi. Arablar Nasafni vayron qilishdan ko'ra, uni rivojlantirishga ahamiyat berganlar, chog'i. Chunki, Nasaf arablarning asosiy qatnov yo'li, Balxga olib boradigan katta karvon yo'li bo'yida joylashgan edi. Bundan tashqari, Nasaf Movarounnahrni butunlay qaram etishda tayanch vazifasini o'tashi ham ko'zda tutilgan edi. Arablar Nasafda o'rnashib, islom ilm-fanini, diniy rasm-rusumlarni tarqatish bilan shug'ullanganlar. [15]

Sharq mutaffakkirlari insonni ilohiy va dunyoviy ilmlardan xabardor etishda, uning aql-u zehni oshirishda tinimsiz izlanganlar va samarali ijod qilganlar. [2]

Ular yaratgan bebaho asarlardan olam va odam, borliq, hayotning mazmun-mohiyati singari falsafiy, tasavvufiy mavzular yuzasidan bilim berish uchun madasalarning asosiy o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilgan. Shu bois yuksak salohiyat sohiblari asrlar osha avlodlar ardog'ida yashab kelgan,

insoniyatni hayajonga solib kelgan muammolarning nazariy va amaliy jihatlarini hal etishga yordam bergan.[3]

Bu muammolarning jamini esa turli ilmlar tashkil etgan bo'lib, bular bir necha turlarga bo'linadi. Professor N. Komilov asosiy ilm turlarini quydagicha tasnif etadi: "Shariat ahli nazarida ilm faqat islomiy bilimlar, chunonchi, Qur'on tafsiri, kalom, hadisshunoslik, fiqhdan iborat. Faylasuflar (hakimlar) nazarida ilm borliq, inson va jamiyat haqidagi bilimlar majmuasi bo'lsa, so'fiylar nazarida ilm vajdiy(intuitiv) yo'l bilan qabul qilingan kashfiyot, karomat, tawhid sari elituvchi riyoziyot qoidalaridir. Bundan tashqari, riyoziyot (hisob, al-jabr, handasa kabi), tabobat ilmlari ham tasnifga kiritilgan."¹

Nasaf madrasalarda o'qitiladigan fanlar asosan ikki yo'nalishga bo'lingan: 1) ulumi naqliya – naql qilinadigan ilmlar (bunga qiroat, tafsir, hadis, tarix, lug'at, navh va sarv, ilmi maoniy, fiqh va h.k kiritilgan); 2) ulumi aqliya – aql bilan idrok qilinadigan ilmlar (falsafa riyoziyot, tibbiyot, handasa, al-jabr, ilmi nujum kabi fanlar).²

Qadim zamonlardan adabiyot ilmini o'rgani masalasida hamisha bir muammo ko'ndalang bo'lib turgan. Ya'ni nimani o'qitish, o'rgatish lozim, qanday yo'l, usulni qo'llash kerak? Bu muammoga javob topish esa talabalarni adabiyotga oid ma'lumotlardan xabardor qiluvchi mudarris murakkab matndagi manbalarni o'rgatish usullariga murojaat qilgan va ularni amalda qo'llagan. Murakkab matnlardan biri VII asrning birinchi yarmida nozil bo'lgan Qur'oni karimdir. Bu asar musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, u o'z tarixiy, madaniy, ma'naviy-axloqiy ahamiyati bilan butun sharq xalqlarining ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotiga kata ta'sir kursatgan. Shuningdek, axloqiy poklanishda najot omilidir.

Qur'on o'sha davr klassik arab tiliga xos murakkab uslub va tilda, nasriy saj shaklida yozilganligi, mazmun ifodasining chuqur va keng qamrovligi bilan alohida ajralib turadi. Hattoki, arab tilini mukammal bilgan kishi ham buni to'liq

¹ N.Komilov. Irfon Abulmaoniy // Bedil va o'zbek ma'naviyati. To'plam. – Tehron-Toshkent, 2005, 6-7-betlar.

² M. Tursunova. "Madrasalarda ta'lim tizimi"- T.-; Movaraunnahr. 2016-yil 45-bet

tushinishga qiynalgan. Shu sababli arab tili fonetikasi va grammatikasi (sarf va nahv)ni o'rgatishga alohida vaqt ajratilgan. Bu tilni o'rgatish, ayniqsa, uning grammatikasini o'zlashtirish ancha mashaqqatli ish bo'lib, mudarris va tolibi ilmlar nihoyatda qiynalganlar. Shu sababli talabalar orasida yengilroq yo'l bilan o'zlashtirish taklifini bildirganlar ham bo'lgan. Samarqanddagi Qutbiddin Sadr madrasasida ta'lim olgan buyuk alloma Xoja Ahror Vali: "...Yoshlar tehsil bilan shug'ullanganda, ularning vaqti nahvu sarf (morfologiya va sintaksis) qoidalarini o'rganishga sarf bo'ladi. Qanday tadbir ko'rmoq lozimki, ularning zehni o'zgarmay, g'alizlik pardasiga o'ralmay qolsa? Buning o'rniga tassavuf ahlining ibratli so'z va shavqli hikoyalaridan so'zlasa. Shunday qilganda, yoshlarning zehni koyimaydi va o'tkirligi saqlanadi"³, - degan fikrni bildiradi. Shu bois Qur'oni chuqur o'zlashtirish uchun nafaqat arab tili grammatikasi o'rganilgan, balki unga tafsirlar, sharhlar yozilgan, musulmon mamalakatlari adabiyoti badiiy – poetik sirlarini o'rgatishga bag'ishlangan ilmi balog'atga oid risolalar yaratilgan. Qur'onni tafsir va sharhlar bilan o'qish ham o'ta murakkab bo'lib, mudarrisdan ham, talabadan ham juda kata mas'uliyat talab qilingan. Eng muhimi, Qur'on, uning tafsiri va sharhi boshang'ich maktabdan to madrasagacha alohida fan sifatida o'quv dasturiga kiritilgan. Mudarrislarining oldiga qo'yilgan talablar juda yuqori bo'lgan. Shu sababli, ularning mehnati darajalangan va mehnat haqi ham shu darajalarga ko'ra to'langan.

Najmiddin Abu Xafs Umar bin Muhammad bin Ahmad an-Nasafiy (XI-XII) "Matla' an-nujum va majma' al-ulum" asarida keltirilgan ma'lumotlar XV-XIX asrlarda Markaziy Osiyo madrasalarining ta'lim tizimida muntazam o'qitilgan asarlar majmuidan o'rin olgan bo'lib, o'rta asrlar madrasalar ta'lim tizimini o'rganishda nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Abu Xafs an-Nasafiyning o'zi ham Samarqanddagi Ibrohim Tavg'achxon madrasasida faoliyat olib borganda ham ushbu asaridan darslik sifatida foydalangan. [21]

An-Nasafiy yaratgan asarning eng qimmatli tomoni shundaki, u o'z davrida qo'llangan o'qitish usullari (metodikasi) ancha keng ma'lumot beradi,

³ Valixo'jayev B. Xoja Ahror tarixi. Tarixiy – ommabop badehalar. – T.: Yozuvchi, 1994, 65-bet

ularni o'zining mudarrislik faoliyati davomida takomillashtiriladi va amaliy faoliyatida qo'llaydi. An-Nasafiy asarida keltirilgan usullar quydagilardan iborat: usuli imlo, usuli samo, ilmi munozara, ilmi muzokara yoki majlis at-takriz, tadrish, ilmi sharh. Mudarris ayrim mashg'ulotlarni o'tkazishda imlo, ya'ni matnni yozdirish usulidan foydalanadi. Mazkur usulni qo'llashda asosan hadis ilmi, adabiyot bilan bog'liq matnlarga keng murojaat qiladi. Ilmi sharh usulini esa, asosan, Qur'ondagi mavhum iboralarni sharhlash, ya'ni tafsir qilishda qo'llaydi. An-Nasafiy shahar guzarlaridagi masjidlarda ma'ruza va muzokara usuli bilan majlislar ham olib borilgan. [17]

Nasafiy faoliyat olib borgan madrasa, tarixiy manbalarda qayd etilgan O'rta Osiyodagi ilk madrasalardan biri bo'lgan. XX asrning 60-yillarida Shohi Zinda majmuasida olib borilgan arxeologik qazilmalar paytida topilgan bo'lib, u ushbu majmuaning Qusom ibn Abbos majmuasi tarkibiga kirgan. Uning qurilgan sanasi ham aniq. U Qoraxoniylar sulolasining birinchi yirik vakili, Samarqandni o'z davlatining poytaxti qilgan Ibrohim Tavg'ach Bug'raxon tomonidan 1066-yili qurilgan. Bu ma'lumotni Misrdagi Iskandariya shahridan topilgan 1066-yilga oid vaqf ham tasdiqlaydi. Madrasaga tegishli vaqfnomada ko'rsatilishicha, mablag' xodimlarning vazifasiga ko'ra quydagicha taqsimlangan: bosh mudarrisga – 2 ming dirham, fiqhdan dars beruvchi mudarrisga – 3 ming 600 dirham, ilmi adab (adabiyotdan) dars beradigan mudarrisga – 1 ming 200 dirham, Qur'ondan dars beruvchi mudarrisga – 1 ming 500 dirham, kutubxonachiga – 1 ming 200 dirham to'langan. Hujjatning muhim jihati shundaki, o'sha aytda Samarqandda muomalada bo'lgan dirhamning qiymati vaqf imzolangan kun bilan belgilangan, ya'ni 47 dirham bir misqol toza oltin qiymatinga teng bo'lgan (bir misqol oltin 4,5 g ga tengdir). Shu o'rinda biz o'sha vaqtda madrasa kutubxonachisi olgan pulni bugungi kunda hisoblasak taxminiy 15 mln so'mga to'g'ri kelmoqda. Eng muhimi, mudarrislarga to'lanadigan mehnat haqqi o'sha davr miqyosida juda katta mablag' hisoblanib, ulardan ham shu darajada mehnat sifati talab qilingan. Vaqfda ko'rsatilgan umumiy pul miqdoridan 1,5 ming dirham talabalarga stipendiya sifatida

ajratilgan. Bu mablag' talabalarining bilim darajasiga qarab belgilangan. Ammo, har qanday holatda ham, stipendiya miqdori 30 dirhamdan oshmagan. [23]

Yuqoridagi hujjatlardan ko'rinadiki, mudarris xodimlarga yillik maosh miqdori vaqfdan keladigan daromadga asosalanib belgilangan. Keyinchalik, XV asr madrasalarining vaqfnomalarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra mudarris xodimlarga va hatto tolibi ilmlarga beriladigan maosh aqchadan iborat bo'lib qolmay, unga yemak uchun zarur bo'lgan oshliq – bug'doy, arpa ham kiritilgan. Bu davrda madrasa ahli va talabalariga to'lanadigan maosh va moddiy yordam mablag'lari naqadar aniq va maqbul taqsimlanganining na'munasini biz Alisher Navoiyning "Vaqfnoma"sida keltirilgan ma'lumotlardan bilishimiz mumkin.

Alisher Navoiy o'zi barpo qilgan "Ixlosiya" madrasasi xodimlari va tolibi ilmlariga yillik vaqf maoshini asosan Hirot madrasalari vaqfnomalariga tayangan xolda belgilaydi u o'zining vaqf mulklaridan kelgan mablag'laridan madrasaga ikkita mudarris (Navoiy tabri bilan aytganda "ikki olimi muttaqiy mudarris") tayinlagan va "har birining yillik vazifasi ming ikki yuz oltun naqtda, yigirma to'rt yuk oshlig'im, sulsiy(uchdan biri) arpa va sulsoni (uchdan ikki qismi) bug'doy bo'lg'ay ", - deb belgilab quygan. Madrasada yigirma ikki nafar tolibi ilm tahsil olgan, ularni o'n bir nafardan ikki guruhga bo'lgan. Bunda a'lo o'qigan olti nafar talabaga "har biriga oylik naqda yigirma to'rt oltun, yilda bug'doy besh yuk", o'rta o'qigan sakkiz nafar talabaga "oylik har biriga o'n olti oltun, bug'doy yillik to'rt yuk", past o'qigan sakkiz nafar talabaga "oylik har biriga naqda o'n ikki oltun, bug'doy uch yuk" tayinlangan. [14]

Alisher Navoiy o'zi barpo qilgan "ixlosiya" madrasasidan tashqari, temuriy malika Gavharshodbegim madrasasi haqida ham "Majolis un-nafois" tazkirasida ma'lumot berar ekan, iste'dodli yosh shoirlardan ayrimlari ushbu madrasa taalabalari ekanligini ham aytib o'tadi. Demak, Alisher Navoiy Hirotidagi madrasalarni kuzatib yurgan va ularga baho bergan. Madrasa bilan bog'liq hujjatlarni, vaqfnomlarni rasmiylashtirishda buyuk shoir o'z davrida amal qilgan madrasalardan andoza olgani ehtimoldan uzoq emas.

Yana shu hujjatning o'zida "Ixlosiya" madrasasida o'rnatilgan tartib-qoidalar haqida va ularni buzuvchilarga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlar haqida ham gap boradi. Muhim qoidalardan biri – mudarrislar va talabalar madrasaning o'zida uy-joy qilib yashashlari kerak. Ular boshqa yerda yashagan chog'larida ham, agar dars chog'i hozir bo'lmasalar tayinlangan mablag' va oshliqlarning yarmini oladilar. Agar madrasa mudarrisleri va talabalar hamda madrasa mutavallisi, shayxi, hofizlari va boshqa xizmatchilar tomonidan nomaqbul ish yuz bersa ikki martagacha sodir qilingan ishning og'ir-yengiligiga qarab shariat yuzasidan ta'zir va jazo oladilar. Bunday ish uchinchi marotaba sodir qilinsa, bunday kishi "ixroj" qilinadi (ishdan yoki o'qishdan chetlashtiriladi) va o'rniga boshqa kishi olinadi.

Shoir ushbu vaqfiyani mutavalli har o'ttiz yilda yangidan qayta yozib chiqishini va asli bilan solishtirib chiqqach, qozi muhri bilan tasdiqlashini tayinlaydi. Bu ma'lumotdan o'sha davrdagi rasmiy hujjatlarning saqlanish tartibi haqida ham muayyan tasavvurga ega bo'lish mumkin.

XV asr oxiri – XVI asr boshlarida yashab ijod etgan yetuk adib va shoir, Benazir so'z ustasi Zayniddin ibn Abdujalil Vosifiy o'zining "Badoe' ul-vaqoe'" ("Nodir voqealar") asarida Shayboniyxon sulolasi vakillaridan Kuchkunjonning Samarqanddagi hukmronligi davrida vayronaga aylangan shahar me'moriy binolari, jumladan, madrasalar, xonaqohlar, ibodatxona-yu masjidlar ta'mir qilinganligi, shaharda obodonchilik ishari amalga oshirilganligi haqida so'z yuritadi.

Zayniddin Vosifiy madrasaning ko'rinishi, uning o'z davrida tutgan o'rnini haqida ham ma'lumot berar ekan, u yerda faoliyat olib brogan mudarrislar haqida ham to'xtalib o'tadi: "shu mudarrislardan biri Mavloni Amiri Kalon ediki ... inoyati ixtiyorining jilovi sarfini talabalar tarbiyatiga yo'naltirmoqni lozim topib, diniy jaholat qoldiqlarini yo'qotmoq va aniq ilmlar bayroqlarini o'rnatishga jiddi jahd ko'rsatdiki, zalolat binosining sinmog'i uning zaminida ilova edi. Bunday qat'iy ahd unga vakolat qilingan edi.. fazilat tarqatuvchi

fozillar tarbiyasi bilan band edi. U bilish sharti muqarrar qilingan sufada olimlarning olimi – mudarris bo'lib dars berar edi”⁴

Muarrix madrasalar haqidagi ma'lumotlarni davom ettirar ekan, Muhammad Shayboniyxonning Samarqanddagi madrasasi haqida ham to'xtalib o'tadi, unga tayinlangan to'rtta mudarris faoliyati xususida ham so'z yuritadi. Shunday mudarrislardan biri Xojagiy bo'lib, u Mirzo Ulug'bekning madrasai oliyasining mudarrislaridan biri Muhammad Havofiy avlodlaridan bo'lgan.

Zayniddin Vosifiy xalq orasida tarqalgan Muhammad Havofiy haqidagi quydagi ma'lumotni keltiradi: aytishlaricha, Ulug'bek madrasasi qurilayotganda, mavlono Xavofiy uning tezkor qurib bitkazilishiga ko'maklashgan. Chunonchi, u har kuni kelib, usta qo'liga g'isht uzatib turgan. Bir kuni mavlono Xavofiy po'stinini teskari kiyib olib g'isht tudalari orasida o'tirgandi. Bir kishi Mirzo Ulug'bekdan so'radi: - Shohim, bu ulkan ajoyib madrasa tugay deb qoldi. Unga kimni mudarris tayinlamoqchisiz?

Mirzo javob berdi: - bu madrasa mudarrisi jami ilmlarga mohir va barcha fanlardan bahramand va komil kishi bo'lishi kerak.

Mavlono Xavofiy joyidan turib, shunday dedi: “anna mutaynun be haza ul-mansabi” (“bu mansabga men tayin etilurman.”).

Mirzo uning kimligi, qayerlik ekanligi va ismini so'radi. U kishiga shunday javob berishdi: “uni mavlono Muhammad deyishadi. Xavof viloyatdan. Ancha muddatdan beri bu shaharga kelib, jiddu jahd bilan tahsil ko'rdi”.

Hikoya qilishlaricha, mirzo uni yoniga chaqirib har ilmdan ba'zi narsalarni so'ragan. Nimani so'ramasin maqul va maqbul javob olgan. Keyin uni hammomga olib borib yuvintirishni buyurib o'zi xos jomalar kiydirdi va aziz tutdi; uni Qozizoda Rumiylar huzuriga boshlab borib, ko'p ta'rif-tavsif qildi va o'ziga ham saboq qildi.

Aytishlaricha, madrasa ochilganda yig'ilishib munozara o'tkazishgan kun mavlono Xavofiy majastiy haqida dars o'qigan. O'sha yig'ilishda to'qson

⁴ Zayniddin Vosifiy. Badoe' ul-vaqoe' (Nodir voqealar). Forsiydan N.Norqulov tarjimasi, - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979, yil, 18-bet.

donishmand hozir ekan. Uning so'zlarini Mirzo va Qozizoda Rumiyan bo'lak hech kim tushunmagan. "mirzo debdilarki, mavlono Xavofiy jami ilmlar va fanlar sohasida shunday miqyosda ekanki, agar barcha kitob va risolalarni daryoga tashlasalar va biror ilmdan olamda asar qolmasa, u barcha ilmlarni hayotga qaytara olishga qodirdir. Biror ilmdan va fandan nuqta yoki daqiqa nobud bo'lmagay."⁵

Madrasalarda o'z davrining yetuk shoirlari adabiyotshunos olimlari, tazkiranavislar ham mudarrislik faoliyati shug'ullanganlarki, ular nafaqat adabiyot, adabiyot nazariyasining rivojlanishiga, balki shu fanlarning madrasalarda o'qitilishiga doir metodik uslublarning yaratilishi va takomillashuviga ham katta hissa qo'shganlar. Shunday allomalardan biri XV asr ikkinchi yarmi – XVI asr boshlarida Hirot madrasalaridan birida mudarrislik qilgan taniqli adabiyotshunos olim Atoulloh Husayniydir. Uning "Badoi'u-s-soniy" ("Aruz vazni va badiiy vositalar haqida") asarning yaratilishi madrasalarda shu fanlarning keng o'rganilganligi bilan ham izohlanadi. Bu asar madrasa talabalari uchun muhim darslik vazifasini o'tagani ehtimoldan holi emas. [19]

Mana shu o'rinda Samarqandda faoliyat olib borgan alloma Xoja Ahror Valining ilm-ma'rifatga qo'shgan hissasini e'tirof etish lozim, deb o'ylaymiz. Xoja Ahror Vali XV asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy – ma'rifiy hayotda katta mavqega ega bo'lgan tarixiy siymolardan biridir. U ilm-ma'rifatli kishilarni hurmat qilgan va o'z majlislarida ularning hurmatlarini joyiga qo'ygan. Samarqandda ilm –ma'rifatli ko'pligini inobatga olib, bir oliy madrasa qurdirgan. Bu madrasa hozirgacha bus-butun saqlangan. Xalq orasida "Madrasa-i Safed Xoja Ahror Vali" deb ataladi. Madrasa yonida Xoja Kafshiy mahalla mozori bo'lib, alloma shu yerda dafn etilgan.

Nasaf madrasalarida o'qitilgan adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid (filologik) fanlar "ilmi adab" deb yuritilgan o'n ikkita sohani o'zida jamlangan,

⁵ Zayniddin Vosifiy Zayniddin Vosifiy. Badoe' ul-vaqoe' (Nodir voqealar). Forsiydan N.Norqulov tarjimasi, - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979, yil, 19-bet

bular: lugʻat, sarf, ishtiyoq, nahv, bayon, maʼoniy, aruz, qofiya, ilmi badeʼ, nasr, insho, tavorix kabi qismlardan iborat boʻlgan.

Aslida filologik ilmlar doirasi keng boʻlib, yuqorida nomlari zikr etilgan ilmlar qatoriga yana ilmi axloq (etika), ilmi kalom, ilmi muammo (lugʻz, chiston), ilmi tafsir, ilmi qiyofa kabi sohalarga doir fanlarni ham qoʻshish mumkin. Yuqorida tilga olingan ilmlarning biri ikkinchisi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, inson ruhiyatini oʻrganishda muhim vosita hisoblangan. Ayniqsa, bu oʻrinda ilmi nafs (psixologiya), ilmi qiyofa (kishining shaklu shamoiliga qarab, uning qanday odam ekanligini aniqlash) fanlari madrasalar dasturida yetakchi oʻrin egallagan. Bu ilm ham juda qadimdan oʻrganilgan boʻlib, madrasalar dasturida unga alohida vaqt ajratilgan. [18]

Shu oʻrinda taʼkidlab oʻtish lozimki, Abu Xafs an-Nasafiy oʻz asarida madrasalarda oʻqitiladigan ilmlarni 23 sohaga ajratadi. Oʻz navbatida har bir soha alohida-alohida mavzularga boʻlingan. Asarning eng soʻngi 23-sohasi “Sirli ilmlar” deb nomlanadi va yettita mavzuga ajratiladi. Xususan, toʻrtinchi mavzu bevosita ilmi qiyofaga daxldor. Bu mavzu baʼzi oʻrinlarda “Farosat maydonida farosat bilan hukm qilish kitobi” deb ham yuritilgan. Unda kishining gavda tuzilishi va qiyofasiga qarab uning feʼl –atvorini aniqlash usullari bayon qilingan. Muallif oʻz asarida insonning tashqi koʻrinishini tashkil etadigan aʼzolari “alamatlar” deb ataydi. Ularga koʻz, quloq, burun, ogʻiz, iyak, soqol, yuz, boʻyin, peshana, yelka, bilak, tirsak, kaft, orqa, bel va tos, boldir, oyoq, soch kiradi. Shuningdek, yuz rangi, haraktlanish, ayol va erkak alomatlarini ham alohida aytib oʻtadi. [14]

Majlis tadrīs⁶. Nasaf IX-X asrlarda oʻziga xos ilmiy markaz sifatida taniladi. Bu haqda X asr oxirlarida yashagan jugʻrofiyun Muqaddasiy keltirgan bir dalil diqqatga moliq X asrda Nasafda oʻsha davr musulmon ilm-fanida taomilda boʻlgan ilmiy kongress-«Majlisi tadrīs» oʻtkaziladi. Muqaddasiy islom olimlarining oʻz ilmiy qarashlarini dalillash, asarlarini tarqatish va targʻib

⁶ P.Ravshanov. “Qarshi tarixi” - T – “Yangi asr avlodi” – 2006-yil. Kitobi asosida yoritilgan.

etishda qo'llaydigan ikki usul haqida so'zlagan. Odatda, fiqhga doir suhbat, munozaralar masjidlarda o'tkazilishi urf bo'lgan. Shu bilan birga, olimlar o'z uylarida yoki maxsus rabotlarda munozara – bahslar tashkil etganlar. Ilmiy kongress-majlis tadrис uzoq davom etgan, ba'zida fiqhshunoslar, hadisshunoslar, lison bilimdonlari oylab bahsu munozara qilganlar, muhim muammolarni muhokama etganlar. «Majlis tadrис»ni tashkil etuvchilar unga chet ellardan, odatda, arablarning poytaxt shaharlaridan olimlarni taklif qilganlar. Majlis tadrис ma'lum bir mavzuga bag'ishlanib, unda olimlarning shu boradagi yangi qarashlari, izlanishlari muhokama etilgan, baholangan, amaliyot uchun qabul qilingan. Majlis tadrисga xorijdan, musulmonlar uchun muqaddas hisoblangan poytaxtlardan taklif etilgan olimlar arablar qo'l ostidagi musulmonlashgan mamlakat shahriga tashrif buyurar ekan, o'zi bilan bahslashishni istagan barcha olimlarni to'plash huquqiga ega bo'lgan. Bu hol faqat diniy fanlargagina xos bo'lib qolmay, dunyoviy ilm sohiblari ham shu xildagi majlis uyushtirishlari mumkin bo'lgan. «Adabiy majlislar, adabiy munozara va suhbatlar o'rta asrlarda adabiyotshunoslar, shoirlar va adabiyotga yaqindan qiziquvchi barcha kishilar uchun adabiy ijod ustida, adabiy asarlar ustida fikr almashish uchun eng qulay vosita edi. Fikr almashish uchun matbuot bo'lmagan zamonlarda adabiyot taraqqiyotida bunday yig'ilishlarning ahamiyati juda katta bo'ladi.

Shuning uchun ham sinf ideologiyasini adabiyot orqali ham xalqqa singdirmoqchi bo'lgan podshohlar u davrlarda shoirlarni o'z saroyiga yig'ib, ularning adabiy to'planishlariga ham ma'lum darajada e'tibor beradi. Bu orqali esa ta'lim-tarbiya tizimiga xorijiy jihatlarni kiritish, boshqa davlatlardagi dunyoviy bilimlarni o'zlashtirish, ma'lumot almashish ko'zda tutilgan. Buning isboti uchun biz somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, xorazmshohlarning saroylaridagi adabiy yig'lishlari eslab o'tsak kifoya». O'rta asrlarda fanning hamma sohalarida bahs-munozara usuli keng yoyilganligini ta'kidlash to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz. Bundan ko'rinib turibdiki, biz noa'naviy ta'lim turiga xos deb bilgan bahs-munozara usulining ilk shakllarini IX asrlarda ham ko'rishimiz mumkin.

Muqaddasiy X asrda Nasafga, majlis tadrsga Ka'badan ishtirok etish uchun kelgan mutazaliylar yo'lboshchisi Abul Qosim Ka'baiy haqida xabar beradi. Uning Nasafga kelishi shiiylik targ'iboti bilan bog'liq bo'lsa, ajab emas V.V.Bartoldning yozishiga qaraganda, Abul Qosim Ka'baiy asli kelib chiqishi Balxdan bo'lib, Bag'dod mutaziliylar maktabi namoyondalaridan bo'lgan. U 931 yilda vafot etgan. Abul Qosim Ka'baiy Nasafga tashrif buyurgan vaqtda, ma'lumki, hokimiyat tepasida arablar emas, balki Somoniylar turgan edi. Nuh ibn Ahmad davrida Buxoroda qarmatchilik targ'iboti kuchayadi va pirovard natijada, Nuhning o'zi ham qarmatchilar g'oyani qabul qiladi. Gap shundaki, Abul Qosim Ka'baiy, mutaziliylar yetakchisi sifatida shiiylar bilan yaxshi munosabatda bo'lgan, shiiylik mutaziliylikdan ko'p narsalarni qabul qilgan. Xuddi shuningdek qarmatchilik ham o'zining ko'p tomonlari bilan shiiylikka yaqin turadi. [14]

Nasafda X asrda «majlisi tadrsga»ning o'tishi, unga mutaziliylarning yo'lboshchisi kelishi bejiz bo'lmagan, albatta. Bu haqda V.V.Bartoldning quyidagi fikri ochiq tasavvur bera oladi: «Amirning (Nasr-P.R.) o'zini ham jalb etgan g'oyatda yirik shiiylar harakati, Nasr podshohligining so'nggi davrida yuz beradi... Shiiylik targ'iboti fotimiylar halifaligi (X asr boshlarida) tuzilishi bilan sezilarli ravishda kuchayib ketadi. Fotimiy doiylar Xurosonga kelib Husayn ibn Ali Marvoziyni shiiylik mazhabiga o'tkazadilar, uning vorisi Muhammad ibn Ahmad Naxshabiy (yoki Nasafiy) edi. Nasafiy ustozining vasiyatini bajara borib o'z faoliyatini Movarounnahrga ko'chiradi, qaysiki, dastlab o'z ona shahri Nasafda, so'ngra poytaxtda Buxoroda-P.R.) muvaffaqiyat qozonadi».

Abul Qosim Ka'baiy Nasafga kelgan vaqtda bu joyda qarmatchilik targ'ibotlari endigina boshlanayotgan edi. Uning kelishi ishning muvaffaqiyatiga hissa qo'shishi lozim bo'lgan. V.V.Bartold, Abul Qosim Ka'baiy Nasaf rabotlaridan birida to'xtaganligini, unga va'z aytish uchun maxsus xona ajratib berilganligini so'zlaydi.

Nasr ibn Ahmad mutaziliylar yo'lboshchisi vafotidan 12 yil so'ng olamdan o'tadi. Abul Qosim Ka'baiy kelib ketgandan so'ng shiiylik Nasaf va

Buxoroda bir qadar kuchayib ketadi. Qarmatchilik shiiylikning bir qanoti edi. Oxir-oqibatda, Somoniylar mulklarida qarmatchilik ham, shiiylik ham barham topadi. Muhammad ibn Ahmad Naxshabiy sobiq podshoh Nasr ibn Ahmadning o'g'li, 943 yilning 10 aprelida taxtga chiqqan Nuh tomonidan dorga ostiriladi. Nasaf va Buxorodagi qarmatchilik harakatining rahnamosi bo'lgan Muhammad ibn Ahmad Naxshabiyning jasadi tunda dordan yashirincha olib ketiladi va bu ishni kim qilganligi aniqlanmay qoladi. Shiiylik harakati shu voqeadan so'ng Movarounnahrda yashirin tus oladi. Mutaziliylikning Movarounnahrda nechog'lik yoyilganligi haqida ortiq bir narsa aytish qiyin, lekin shiiylik qarmatchilik rasmiy musulmon ruhoniylari va turk sipohiylari-sunniylarda katta norozilik tug'ilishiga sabab bo'ladi Nizom-ul mulkning «Siyosatnoma» nomli Muarrix asarida Muhammad ibn Ahmad Naxshabiy «faylasuflar jumlasidan edi»deb ta'riflanadi. Abdulg'ani Mirzoyev o'zining «Abu Abdullo Rudakiy» nomli risolasida Muhammad ibn Ahmad Naxshabiy xatida «bu kishi donishmand va faylasuf zot edi», deb yozadi. Mutaziliylikdan boshlangan va karmatchilikda davom etgan diniy-siyosiy harakat kiborlarni va ziyolilarni jalb etgan. Qarmatchilarga Abu Abdullo Rudakiy kabi ulug' shoirlar ham xayrixoh bo'lganlar. Bu haqda I.Braginskiy shunday yozadi:

«Rudakiyning saroydan quvilishi sabablari aniq emas. Bundan o'ylash mumkinki, uning Buxoroda, mol-holdagi tenglikni (Mazdak ta'limoti ruhida) targ'ib qiluvchi qarmat harakati deb ataluvchi bid'at bilan bog'liq bir xalq isyoniga hayrixohlik bilan qaraganligi ham etarli rol o'ynagan bo'lsa kerak».

Mug'ullar bosqiniga qadar Nasafda madaniyat, ilm-fan ancha yuksaladi. Shahar, bu davrlarda Samarqand va Buxoro bilan raqobat qila oladigan darajaga kutariladi. Nasaf ta'sirida bo'lgan Ofuron (Obron), Kojar, Balad (Poloti), Fudina singari manzillardan taniqli olimlar, hadisshunoslar yetishib chiqadi. Musulmon olamida buyuk hadisshunos sifatida tanilgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (194/810-256/870) jamlagan «Al-jome' as-sahih» hadislar majmuasini islom olimlari Qur'ondan keyingi ikkinchi mu'tabar

kitob hisoblaganlar. Hadisshunos alloma o'z umrining ma'lum qismini Nasaf shahrining Boyon mahallasida o'tkazgan. Ismoil Buxoriy Nasafda ilm-fan bilangina shug'ullanib qolmay, shogirdlarga saboq ham bergan. Uning bu ishlardagi eng yaqin yordamchisi Ofuron (Obron) qishlog'idan bo'lgan Jabrail ibn Ovan al-Ofuroniyy edi. Jabrail ibn Ovan al-Ofuroniyy ham o'z zamonasining ilmda, hadisshunoslikda peshqadam vakillaridan biri sanalgan.

Qur'onni tafsir qilish Nasafda IX asrlardayoq yo'lga quyilishi bu shaharda ilm-fanning taraqqiy qilganligi dalolatidir. Qur'onni tafsir etishda Ibrohim ibn Ma'qal as-Sanjoniyy an-Nasafiy va Muhammad ibn Nasr al-Kallasiyan an-Nasafiy kabi olimlar peshqadam bo'lishgan. [14]

1.2 Nasafiyalar merosining o'rganilishi

Qashqadaryoda o'tmish adabiy hayotining shakllanishi xalqimiz madaniyatining umumiy taraqqiyoti tarixi bilan chambarchas bog'liq. IX-X asrlardayoq Nasafda yozma adabiyot namunalari vujudga kela boshlagan edi. IX asrning oxirlari - X asr boshlarida yashab ijod qilgan Abu al-Muti' an-Nasafiy arab tilida axloqiy-nasihatomuz ruhdagi badiiy asar yaratadi. IX asrda yashagan nasaflik shoir Shahobiddin Nasafiy (Shahobiy) Saljuqiylar saltanatining shuhratli shoirlari qatoridan o'rin oladi. [22]

Nasaflik ijodkorlar ham davr bilan bog'liq an'analardan chetda bo'lmaganlar. Arab va fors tillarida asar yaratishda mahorat kasb etgan. Manbalarda qayd etilishicha, Qashqadaryo vohasi va Nasaf shahrida 300 ga yaqin mashhur allomalar, muhaddis, mufassir, faqih va tarixchi olimlar yashab ijod qilgan. Voha tarixini yunon, xitoy va arab sayyohlarining solnomalarigina bir qadar yoritadi. Arab tarixchilari Ibn Xavkal, Istaxriy, Yoqut, Muqaddasiy, Som'oniylarning asarlarida bu haqda qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Xitoydan Hindistonga yo'lga chiqqan budda monaxi Syuan-Szyan millodiy 629 yilda Keshda ham bo'lgan. O'sha davrda Kesh ancha rivojlangan, kattagina shahar bo'lgan. Sayyoh o'z xotiralarida shahar bilan bog'liq ko'pgina ma'lumotlarni yozib qoldirgan. [20]

IX asrda Nasafda hadisshunoslik va fiqhshunoslik maktablari vujudga kelgan. X asrda yashagan Ahmad ibn Muhammad at-Tadyoniy, Hammad ibn Shokir an-Nasafiy, Abul Mu'yin an-Nasafiy kabi o'nlab ijodkorlar nomlari ma'lum. Shu bois X-XII asrlarda Movarounnahrdagina emas, balki butun Sharqda "Nasafiy" nisbasi ancha mashhur bo'lgan. Bu davrda fiqh, hadis, tafsir va islom dinining asosi bo'lgan aqoid ilmi rivojlangan. XV asrda Nasafiy allomalar turk tilida islom dini ahkomlari va boshqa ijtimoiy sohalarga oid asarlar yoza boshlagan. Amir Temur va temuriylar davrida Nasafda ilm-fan, madaniyat va san'at yanada rivojlangan. Abu Sa'd Abul Karim as-Samoniyni "Kitob al-Ansob" asarida VIII-XII asrlarda yashab o'tgan 180 ga yaqin nasaflik olim va shoirning nomlari qayd etilgan. Umuman, bu qadim shaharda o'z

sohasining juda ko'p zukko bilimdonlari kamol topgan. Nasafdan yetishib chiqqan olim-u fuzalolar diniy va dunyoviy bilimlar rivoji, ayniqsa, xanafiy mazhabi va moturidiya ta'limotining o'lkamizda keng tarqalishi uchun ulkan xizmatlar qilib, katta ilmiy meros qoldirganlar. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, **“Birgina Nasaf shahridan chiqib, “Nasafiy” taxallusi bilan shuhrat qozongan o'ndan ortiq olimlarning nomi hammaga yaxshi ma'lum. Islom olamini o'zining bebaho ilmiy merosi bilan boyitgan va yurtimizning shon-shuhratini taratgan ko'plab aziz-avliyolar, olim-u ulamolar faqat qashqadaryoliklarning emas, balki butun o'zbek xalqining faxri va g'ururidir.”** Nasafiy allomalar ularning hayoti va ijodi hamda Nasafda ta'lim-tarbiya jarayoni haqida mukammal tarzda asar yaratilmagan. [6]

O'zbekistonda nasafiyshunoslik marhum ustozimiz Najmiddin Komilov nomi bilan chambarchas bog'liq. Domla dastlab “Zubdat ul-haqoyiq” asarini o'zbek tiliga tarjima qilib, muxtasar va mag'zi to'q so'zboshi bilan nashr ettirgan. Shuningdek, “Tasavvuf” kitobida komil inson haqidagi talqinlarda bevosita Nasafiy asarlariga tayanib ish tutgan. Nasaf adabiy muhiti hali maxsus o'rganilgan emas. Iste'dodli olim Poyon Ravshanovning sa'y-harakatlari tufayli keyingi yillarda bu yo'nalishda anchagina ishlar qilindi, voha madaniy hayotida iz qoldirgan talaygina olim va shoirlar haqida ma'lumotlar to'plandi. Nasafiyilar merosini o'rganishda Ubaydulla Uvatovning ilmiy tadqiqotlari va izlanishlarini alohida ta'kidlash zarur. Keyingi paytda shu mavzuda o'tkazilgan ilmiy anjumanlar jamoatchilikda o'tmish merosimizga nisbatan katta qiziqish uyg'otdi.

Nasafiy allomalarni merosini o'rganish bo'yicha “O'rta Osiyo qomusiy olimlari” asarida qator o'rta Osiyolik allomalar qatorida Nasafda yashab ijod qilgan 100 dan ortiq allomalar haqida ham yoritib berilgan. Nasafiy allomalar me'rosining o'rganilishini tarixchi sifatida prof. U.Uvatov o'zining “O'zbekiston buyuk allomalar yurti”, “Buyuk yurt allomalari”, “Abul Muyin an-Nasafiy merosi” va shu kabi qator asarlari va ilmiy maqolalarida Nasafda yetishib chiqqan olim va allomalar haqida ularning hayot yo'li ilmiy merosi

haqida yoritib bergan. Prof. P.Ravshanov esa o'zining "Qarshi tarixi", "Qashqadaryo tarixi" va shu kabi boshqa asar va maqolalarida adabiyotshunos sifatida Nasafiylar merosini, Nasafda ta'lim tizimini, Nasafda madaniyat va ma'rifatni o'rganib yoritib bergan. Lekin Nasafiylar merosi, Nasafda ta'lim-tarbiya masalalari, Nasafiy allomalar ijod namunalarining pedagogik talqini bugungi kungacha ilmiy jihatdan o'rganilib chiqilmagan.

Shu sababli biz Nasafiylar merosini va ularning pedagogik qarashlarni tizimli ravishta quydagicha ishlab chiqdik.

Allomalar	Ijodiy faoliyati	Pedagogik qarashlari
Abul Abbos Ja'far An-Nasafiy. (X asrda yashagan.)	U fiqh va hadisshunoslikda, tarix va filologiyada keng qamrovli bilim sohibi bo'lgan. U turli mavzulardagi 10 dan ortiq kitob, jumladan, "Nasaf va Kesh tarixi" nomli 2 jildli mufassal asar muallifidir. Olim Samarqand tarixi haqida kitob va adabiyotshunoslikka oid "Kitob as-she'r vash-shuaro" ("She'riyat va shoirlar haqida kitob") nomli asar ham yozgan.	"Nasaf va Kesh tarixi" asarida X-XII asrlarda Nasaf va Kesh da yashagan mashhur olim, shoir va din arboblari haqida qimmatli ma'lumotlar bo'lgan. Muallif ularni 80 toifaga bo'lib tasvirlagan. As-Samoniylar o'z asarini yozishda "Nasaf va Kesh tarixi" kitobidan unumli foydalangan, undan parchalar keltirgan. Shuningdek olim va tarixchining 18 ustozlari va 8 shogirdlari haqida ma'lumot bergan.[8]
Muhammad Naxshabiy. (X asr)	Nasr ibn Ahmad Somoniylar Ikkinchi (914-943) davrida Xuroson va Movarounnahrda faoliyat olib borgan faylasuf va davlat arbobi. Allomaning asarlari bizgacha yetib kelmagan.	Qarmatiylar ta'limoti yerga jamoa egaligini, (qullardan tashqari) tenglik g'oyalarini targ'ib qilar, dehqonlar, hunarmandlar va ziyolilar orasida keng tarqalgan edi. Inb Sino, Rudakiy, Umar Xayyom, Nosir Hisrav kabi mashhur allomalar ham bu ta'limotlar tasirida bo'lganlar.

Abu Usmon Nasafiy. (X asr)	An-	Abu Usmon Said ibn Ibrohim an-Nasafiy taniqli tilshunos va adabiyotshunos olim bo'lgan. Uning “Al-adab va shi'r” (“Adabiyot va she'riyat haqida kitob”) asari mashhur edi.	
Abul Mu'in Nasafiy. (X asr)	An-	Olim 15ga yaqin asar yozgan bo'lib, ularning aksariyati kalom ilmining turli masalalariga bag'ishlangan. “Al-U'mda fi usul al-fih”, “Bahr al-kalom fi ilm al-kalom”, “Tabsirat al-adillati fi ilm al-kalom”, “At-tamhiyd li-qavo'id at-tavhid fi ilm al-kalom”, “Al-olim val-muta'llim”, “Iyzoh al-mahajatiy li-kovn al-aql hujjatan”, “Sharh al-jomi' al-Kabir lish-Shayboniy fi firu”, “Manohij al-aimmati fil firu”, “Mu'taqidot” kabi asarlari shular jumlasidandi	Allomaning “Bahr al-kalom fi ilm al-kalom” asari ilmi bo'yicha al-Motirudiya maktabining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Allomaning mashhur asarlairidan biri – “Tabsirat al-adilla” (“Dalillar tilga kirganda”) Imom Moturidiy va Samarqand kalom ilmi maktabi haqida ma'lumot beradi. Kitob Moturidiyning bu fandagi xizmatlariga yuksak baho berilgan va yozgan asarlari sharhlangan. Olim Ubaydulla Uvatovning ta'kidlashicha, mazkur kitobda al-Moturidiy ta'limoti nihoyat darajada mukammal va tushunarli tarzda bayon etilgan. Shu sababli u asrlar davomida kalom ilmi bo'yicha asosiy qo'llanmalardan biri sifatida e'zozlab kelingan.[12]
Abu al-Muti' Nasafiy (IX asr oxiri X asr boshlari)	an-	«Al-Lu'liyyat fi mavoiz» (Mulklar marvaridi) asari bizgacha yetib kelgan.	Xalqimiz tarixining o'sha davrdagi badiiy ifodasi o'z aksini topgan.
Abul Barakot Nasafiy (XIII asr)	an-	“Al-Vofi fi al-furu”, “Kanz ud-daqiq fi al-furu”, “Al Musaffa	Olimning “Kanz ud-daqiq” asari ayniqsa mashhur bo'lgan.

	sharh ul-Manzumat un-Nasafiya”, “Al-Mustasfi sharh ul-fiqh un-Nome”, “Al-Manor al-anvor fi al-usul al-fiqh” kabi asarlar yozgan.	Musulmon qonunshunosligi asoslari, hanafiya va shofeiya mazhablarining o’ziga xos jihatlari haqidagi bu risola Nasrulloh bin Muhammad bin Jammod al-Irdi Kermoniy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan
Aziziddin Muhammad Nasafiy (XIII asr)	“Kashf ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar kashfi”), “Zubdat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar qaymog’i”), “Maqsad ul-aqso” (“So’nggi maqsad»), “Kitob al-Inson al-komil” (“Komil inson kitobi”), “Manozil us-soyirin” (“Sayr etuvchilarning manzillari”) hamda yigirmadan ortiq nashr etilmagan asari ro’yxati keltirilgan.	U komil insonga shunday ta’rif beradi: “Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqatda yetuk bo’lgan odamga aytadilar va bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, undagi to’rt narsa kamolga yetgan bo’lsin: yaxshi so’z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va moarifdir”. Nasafiyning mazkur ta’rifidan kelib chiqadigan xulosa shuki, komil inson hayotdan tashqari bo’lgan allaqanday mavhum zot emas, balki real odamdir. Yaxshi fazilatlarni egallab borgan inson ana shunday martabaga ko’tarila oladi. Buning uchun esa tariqat va riyoziyot maqomlarini bosib o’tish zarur. [10]
Muhammad binni Abubakr Nasafiy (XII asr oxiri va XIII asr boshlarida yashagan)	Samarqand madrasalarida dars bergan taniqli olim, shoir va muddariss. “Lubob ul-albob”, “Javome’ ul – hikoyot va lavome’ ur rivoyot”	Alloma o’sha davrdagi ilm-fan rivoji, mamalakatdagi ijtimoiy hayot haqida o’z asarlarida yozib qoldirgan.

	asarlarining muallifi bo'lgan mashhur adib Nuriddin Muhammad Avfiyga ustozlik qilgan. Shoirning "Nashkanad" ("Sinmaydi") radifli qasidasi nihoyatda mashhur bo'lgan.	
Shahobiddin Ahmad Nasafiy (Samarqandiy). (XII asr)	Shoirning she'rlar devoni bizgacha yetib kelmagan. "Lubob ul-albob" va "Majmaul-fusaho" tazkiralarda uning uchto'rt qasidasi keltirilgan. Taniqli Eron olimi Said Nasafiy qadimiy qo'lyozmalardan uning yana bir necha qasidasini topib, "Tarixi Bayhaqiy" kitobiga ilova tarzida chop etilgan edi. [9]	Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'zining "Majma' an-navodir fi chahor maqolat" asarida Saljuqiylar sulolasi podshohlarining nomlarni adabiy lashtirilgan shoirlar qatori Shahobiddin Ahmadning nomini ham tilga olgan.
Muayyiddin Nasafiy. (XII asr)	Afsuski, shoirning she'rlar devoni va tazkirada tilga olingan "Pahlovonnoma" masnaviysi bizning kunimizgacha yetib kelmagan. "Lubob ul-albob"da shoirning ikki qasidasi, bir qit'asi va bir ruboiysi keltirilgan.	U o'z asarlarida o'sha davr og'ir turmush tarzini yoritib bergan.
Muhyiddin Yahyo Ibn Sharaf An-Nasafiy. (XIII asr)	Uning 1276-yilda kitobat qilingan "Hadislar majmuasi" bizgacha yetib kelgan.	Alloma tomonidan yig'ilgan hadislar yosh avlod ta'lim-tarbiyasida asosiy o'rin tutadi.
Najmuddin an-Nasafiy (XII asr)	Najmuddin an-Nasafiyning 100dan oshiqroq asarlar yozganligini, ular fanlarning filologiya, tarix fiqh va boshqa sohalariga oid ekanligini qayd etadi. «Matla' an-nujum va majma al-ulm»	«Kelishmovchiliklar haqida an-Nasafiy she'riy asari» xanafiy talqindagi o'nta katta bobdan iborat. Ularda diniy qarashlardagi o'zaro ixtiloflar haqida mushohada yuritiladi. Bugungi kunda zamonaviy pedagogika sohalaridan

	(Yulduzlarning chiqishi va fanlarning to'planishi), «Ujalat an-Naxshabiy li dayfi-xi al-Mag'ri-biy» («Naxshabning Mag'ribdan kelgan mehmon uchun shoshilinch yozgan kitobi»), «Qur'on» sharhiga bag'ishlangan «Al-yavoqit fi-l mavoqit» («Qulay vaqtlar xususida yoqutlar»), «Zallat al-qoriy» («Qorilarning xatolari haqida»), tasavvufga oid «Risolayi Najmiya» («Najmuddinning risolasi») kabi asarlarini ham qayd etish joizdir.	biri bo'lmish pedagogik konfilektologiya yo'nalishini o'sha davrdagi o'zaro kelishmovchiliklarni bartaraf qilish shartlarni ketirib o'tgan. Najmuddin an-Nasafiyning arab tilidagi asari qo'lyozmasi Fransiyada saqlanayotganligi ma'lum, biroq bu qo'lyozma keyingi asrlarda ko'p tahrirga duch kelgan va asarning dastlabki ko'rinishidan juda kam narsalar qolgan. Unda islomga qadar bo'lgan davr haqida afsonavor naqlar, arablar bosqini va Samarqand qurilishlari xususida ma'lumotlar beriladi. Kitobning asosiy mazmunini mahalliy avliyolar, ularning jasorati va daxmalari ta'rifi tashkil etadi. Kitobning qimmati Samarqandning sug'orilishi va uning tevarak-atrofidagi qishloqlar haqida xabarlar berilganligida, deyish mumkin. [11]
Abul Abbas Al-Mustag'firiyy Nasafiy. (XI asr)	U Somoniyni guvohlik berishicha, «Nasaf va Kesh tarixi» degan mufassal asar bitgan. Mustag'firiyni «Nasaf va Kesh tarixi» kitobi bizga qadar etib kelmagan. Al-Mustag'firiyni	Mustag'firiyy o'z asarida Nasaf va Keshning fozil kishilari haqida ma'lumotlar beradi. U ikki shahar odamlarini 80 toifaga bo'lib, naql qiladi. «Nasaf va Kesh tarixi»da nasaflik va keshlik 43ta olim, shoir va

	adabiyotshunoslikka doir «Kitob ash-shi'r va sh-shu'aro» («She'riyat va shoirlar haqida kitob») kitobi ham bo'lgan.	din arboblari haqda hikoya qilingan. Bu fozil kishilar Nasaf va Keshda X-XI asrlarda yashab, faoliyat ko'rsatganlar. Asarda muallifning 4 ustozi va 2 shogirdi haqida ham so'z yuritilgan. X.Halifning uqdirishicha, al-Mustag'firiyy biznng zamonamizga qadar etib kelmagan «Samarqand tarixi»ni ham yozgan. Bu ikki asar o'rta asrlardagi Qashqa vohasining umumiy manzarasini, ilm-fani va madaniyati rivojini yoritishda nihoyatda qimmatli manbalar bo'lib qolishi tayin edi. [13]
Abul Haris An-Nasafiy. (X asr)	Abul Haris Varsaniy Nasaf va Kesh tarixiga doir „ «Kitob mufaharat ahl Nasaf va Kashsh» (Nasaf va Kashsh ahlining ixtiloflari) asarini yozadi.	«Kitob mufaharat ahl Nasaf va Kashsh» (Nasaf va Kashsh ahlining ixtiloflari) kitobining nomlanishiga qarab, unda ana shu ikki shahardagi mazhab bilan bog'liq tafovutlar, mashhur kishilar va ularning diniy qarashlari, ularning tarjimai hollari to'g'risida hikoya qilingan deb taxmin qilinadi. Nasaf va Kesh aholisi munosabati qalamga olinganda ijtimoiy nizolar emas, ilm-fandagi bahslarni, raqobatni tushunish o'rinli bo'ladi.
Lutfulla An-Nasafiy Al-Kaydoniy. (XIII asrning oxiri XIV asrning birinchi yarmida yashagan)	Olimning “Matolib ul-musaddi” nomli kitobi mashhur bo'lgan. U “Fiqh ul-Kaydoniy” deb ham atalgan va O'rta	Allomaning bizga ma'lum bo'lgan asari o'rta Osiyo va Yevropada darslik sifatida foydalanilgan.

	Osiyoda ommaviy qo'llanmalardan biri sifatida o'qitilgan.	
Ali Nasafiy. (XIV asr)	O'z davrining eng mashhur binolarini barpo etishda qatnashgan. Samarqanddagi Shohi Zinda me'moriy majmuasining maqbaralaridan biri tarixini chizgan. 1370-1380 yillarda bu maqbara uning ishtirokida qurib bitkazilgan.	Ali Nasafiy shu orqali o'sha davr me'morchiligiga ulkan hissa qo'shgan. Bu bugungi kun arxitekturasiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. [8]
Hofiziddin Nasafiy. (XIV asr)	Fiqhshunos olim va shoir. O'zbekiston Sharqshunoslik Qo'lyozmalar jamg'armasida 4834/2208 raqami ostida uning "Manzumot al-kavokib" ("Yulduzlar dostoni") asari saqlanmoqda. Unda hanafiya mazhabining qarashlari she'riy yo'l bilan ifoda etilgan.	Bu asar o'rta asrlarda ancha mashhur bo'lganligini ko'rsatuvchi bir qancha misollar bor. Jumladan, XVII asrda yashagan olim, Halab shahri muftiysi Muhammad bin Hasan bin Ahmad bin Abu Yahyo al-Kavokibiy unga katta sharh yozgan. Bu sharh "Irshod ul-tolib ali manzumot al-kavokib" ("Yulduzlar dostonini o'rganuchilarga to'g'ri yo'l") deb ataladi.
MAHMUD NASAFIY. (XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashagan)	Iste'dodli hofiz, sozanda va bastakor bo'lib yetishgan, she'rlar ham yozgan. Mahmud Nasafiy "Isfaxon", "Husayniy", "Iroq" maqomlarida bir necha "Naqsh", "Amal" va "Savt"lar yaratgan. "Naqshi Mahmudiy" ohangi uning mashhur asarlaridan biri bo'lgan.	U o'zining shirali ovozi, ta'sirli ijro uslubi bilan shuhrat qozongan. Mashhur shoirlar unga o'z she'rlarini berib, musiqa yozish va kuylashni iltimos qilganlar. Mahmud Nasafiy shu orqali Nasafda, Movaraunnahrda musiqa ilmiga ulkan hissa qo'shgan.
Bahoriy Nasafiy. (XVI)	O'zFA Sharqshunoslik	Bu asarida u muammo

	instituti Qo'lyozmalar jamg'armasida Bahoriy Nasafiyning "Sharhi Muammoi Miriy" nomli asari 707/11 raqami ostida saqlanmoqda.	ilmining bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi. Miriy to'plamida keltirilgan muammolarning yechish yo'llarini sharhlaydi. Bu asar orqali konfliktologiya ilmining XVI asrdagi rivojini ko'rishimiz mumkin. [13]
--	--	--

Shu sababli biz ushbu dissertatsiya orqali Nasafiy allomalar merosining pedagogik jihatdan o'rganilishini, ularni ta'lim-tarbiya tizimiga tadbiq qilinishini va uning bugungi kundagi ilmiy amaliy ahamiyatini yoritib berish joiz deb bildik.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng sobiq sho'ro davrida tanazzulga yuz tutgan madaniyat, ma'naviyat, tariximiz va qadriyatlarimizni qayta tiklash ularni o'sib kelayotgan yosh avlodga to'laligicha yetkazish uchun ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Buyuk ajdodlarimiz nomlari qayta tiklandi, ular yaratgan bebaho meroslar o'rganildi.

O'zbekiston buyuk allomalar yurti, unda Buxoriylar, Farobiylar, Farg'oniylar, Termiziylar, Nasafiyar yetishib kamol topgan. Ular yaratgan asarlar asrlar osha bizgacha yetib kelgan. Ularning asarlarini o'rganib, pedagogik tahlil qilib ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash bugungi kun ta'lim samaradorligi uchun asosiy masalalardan biridir.

Qadimgi Nasafda XII-XIV asrda madaniyat, ilm-fan yuksak cho'qqiga ko'tarilgan. Nasaf madrasalarda o'qitiladigan fanlar asosan ikki yo'nalishga bo'lingan: 1) ulumi naqliya – naql qilinadigan ilmlar 2) ulumi aqliya – aql bilan idrok qilinadigan ilmlar. Bu ilmlarni o'rgatuvchi mudarrislar maqomi yuqori bo'lgan. Mudarrislarining oldiga qo'yilgan talablar juda yuqori bo'lgan. Shu sababli, ularning mehnati darajalangan va mehnat haqi ham shu darajalarga ko'ra to'langan. Nasafda yetishib chiqqan ko'pgina allomalarning asarlari

dasrlilik sifatida foydalanilgan. Nasafda ilm ahlini birlashtish, munozaralar o'tkazish uchun asarlarini muhokama qilish uchun o'sha davrda o'z mavqeyiga ega bo'lgan ilmiy kongress - "Majlis tadrir", o'z faoliyatini olib borgan. Majlis tadrir ma'lum bir mavzuga bag'ishlanib, unda olimlarning shu boradagi yangi qarashlari, izlanishlari muhokama etilgan, baholangan, amaliyot uchun qabul qilingan. Majlis tadrirga xorijdan, musulmonlar uchun muqaddas hisoblangan poytaxtlardan taklif etilgan olimlar arablar qo'l ostidagi musulmonlashgan mamlakat shahriga tashrif buyurar ekan, o'zi bilan bahslashishni istagan barcha olimlarni to'plash huquqiga ega bo'lgan. Bu hol faqat diniy fanlargagina xos bo'lib qolmay, dunyoviy ilm sohiblari ham shu xildagi majlis uyushtirishlari mumkin bo'lgan. «Adabiy majlislar, adabiy munozara va suhbatlar o'rta asrlarda adabiyotshunoslar, shoirlar va adabiyotga yaqindan qiziquvchi barcha kishilar uchun adabiy ijod ustida, adabiy asarlar ustida fikr almashish uchun eng qulay vosita edi. Fikr almashish uchun matbuot bo'lmagan zamonlarda adabiyot taraqqiyotida bunday yig'ilishlarning ahamiyati juda katta bo'ladi.

Qadimgi Nasafda bir necha fanlarni birgalikda o'rgangan qomusiy olimlar tug'ilib kamol topgan. Nasafiy nisbasida ijod qilgan allomlarni bugungi kunda 300ga yaqini olimlar tashkil qilishi aytib o'tilmoqda, lekin ularning merosi hayot faoliyati haqida yetarlicha manba to'planmagan. Nasafiyilar yaratgan ba'zi asarlar o'sha davr ta'lim tizimida darslik sifatida qo'llanilib, madrasalarda tolibi ilmlarga o'qitilgan. IX-X asrlardayoq Nasafda yozma adabiyot namunalari vujudga kela boshlagan edi. IX asrning oxirlari - X asr boshlarida yashab ijod qilgan Abu al-Muti' an-Nasafiy arab tilida axloqiy-nasihatomuz ruhdagi badiiy asar yaratadi. IX asrda etishgan nasaflik shoir Shahobiddin Nasafiy (Shahobiy) Saljuqiylar saltanatining shuhratli shoirlari qatoridan o'rin oladi.

Nasafiyilar merosini o'rganish uni bugungi kun yosh avlodiga tushinarli tarzda yetkazib berish, yosh avlodni tarix bilan tarbiyalash zamonaviy davr talabi bo'lib qolmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Qashqadaryoga tashrifi chog'ida **“Nasafiy allomalar haqida Xalqaro konferensiya tashkil qilamiz. Nasafiyilar dinimizning sofliqini saqlash uchun**

xizmat qilgan” deb ta’kidlagan. Nasafiylar merosini o’rganish faqatgina Qashqadaryo yoki O’zbekiston xalqi uchun emas butun dunyo islom ahli uchun g’oyatda muhim ish sanaladi.[4]

II BOB. Aziziddin Nasafiyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari⁷.

2.1 Aziziddin Nasafiy shaxs shakllanishida irsiyatning o'рни haqida.

Aziziddin Nasafiy o'z davri uchun qimmatli ahamiyatga ega bo'lgan komil inson siyratini yaratgan. Uning merosining ahamiyati shundaki, u komil insonni shakllantirish jarayonini ilmiy asoslaydi. O'sha davrda urug'don bola uchun ona qornida shakllanish jarayonini fiziologik tahlil qiladi. Kitobning "kichik olam" haqidagi ikkinchi bobi inson va inson darajalari to'g'risida, "Odamga kamolotga erishish uchun zarur bo'lgan jami narsalar urug'da mujassam" deb yozadi. Bu bilan shaxsning kamolotidagi irsiyatning o'рни va uning tabiat ta'siridagi rivojlanish jarayonini ilmiy asoslashga erishgan.

Aziziddin Nasafiyning "Zubdat-ul haqiqiy" asari ikkinchi bobida "Bilgilki, (har ikki olamda Alloh seni xayru barakoti bilan sarbaland etsin), insoniyatning boshlanishi bir javhardir, insonda mavjud jami' narsalar shu bir javharda mavjud bo'lgan edi va har biri o'z vaqtida zuhur etdi. Bu bir javhar urug'-nutfadir. Buning ma'nosi shuki, insonning barcha a'zo-qismlari javhar va sifatlardan iborat bo'lib, jismlar va ruhlar inson urug'ida mavjud edi. Odamdagi kamolotga erishish uchun zarur bo'lgan jami' narsalar urug'da mujassam, ya'ni bu urug' qotib ham, kitob ham, kalom ham, siyoh hamdir.

Ey, darvesh nutfa-urug' kichik olamning birlamchi javhari (javhari avval), kichik olamning jabaruti, kichik olamning haqiqati, kichik olamning tuxumi, kichik olamning muhabbatidir. Nutfa o'ziga oshiq bo'lib, o'z jamolini mushohada etishni, o'z ismlarini shu faoliyat ta'sirida va muxtasarlik olamidan tafsiliylik olamiga o'tadi. Natijada husnu jamoli ko'rinib, xossalari (ismlari) ayonlashsin uchun u behad ko'p shakl va suratlarda namoyon bo'ladi.

Buni bilding, endi bilgilki, nutfa (urug') bachadonga tushgach, bir qancha vaqt nutfa holidan turadi. Ma'lum muddatdan keyin alaqa (quyuq qon) shaklini oladi, bir necha muddat muzga (embrion) holatida bo'ladi. Muzga

⁷ Aziziddin Nasafiy "Zubdat-ul haqiqiy" – N. Komilov tarjimasi. T: Kamalak 1995-yil. Kitobi asosida yoritilgan

(holatida) suyaklar tomirlar, asab torlari paydo bo'ladi. Uch oy o'tadi. To'rtinchi oyning boshida Quyosh ta'siri ostida hayot nishonalari ko'rina boshlaydi, asta-sekin his etish va harakat qilish qobiliyati uyg'otadi. To'rtinchi oy o'tgandan keyin – tana va ruh shakllanadi, vujudning takomili oxiriga yetadi va yakun topadi.

Ona bachadonida to'plangan qon bola uchun ozuqadir, bu ozuqa kindik orqali bola tanasiga o'tadi. Sakkiz oylikda bolaning jismi, joni, va ruhi mukammal xolga keladi. Sakkizinchi oy o'tgach, to'qqizinchi boshida ikkinchi Mushtariy (Yupiter) ta'sir etish davri boshlangach, bola ona qornidan bu dunyoga keladi. Ammo sezib turibmanki, sen oxirigacha anglab yetmading, shuning uchun batafsilroq tushuntirmoqchiman. Bilgilki, urug' ona qorniga tushganda u yumaloq shaklda bo'ladi, chunki suyukliklar (suv) tabiatan yumaloq shakldadir. Keyin o'z issiqligi va bachadon issiqligi ta'sirida u yetila boshlaydi va uning nozik qismlari zich qismlaridan ajraladi. Bu jarayon (yetilish) tugagach, urug'ning zich (qattiq) qismlari markazga qarab intiladi va yengil (muloyim) qismlari qobiqqa qarab intiladi shu tariqa urug' to'rt qismga ajralib, har bir qism o'zidan pastdagi qismning qobig'iga aylanadi. Ya'ni qattiqrog'i markazga tomon intilib, urug'ning markazini egallaydi, yumshoq (nafis) qismi yuzaga yo'naladi va tashqi tomonni egallaydi. Ustki qobiq ostida turib, shu qobiqqa tegishli bo'lgani ushbu ustki qobiqdan ko'ra qalinroqdir va markaz ustiga turgan va unga taalluqli bo'lgani ushbu markazga qaraganda yumshoqroqdir. Shunday qilib, urug' to'rt qismdan iborat bo'lib, o'rtalikda turgan markaz savdo (qora o't) deyiladi. Savdo – sovuq va quruq, mijozi tuproq mijozi o'xshash bo'lib sovuq va quruq, mijozi tuproq mijozi o'xshash bo'lib shu bois tuproq o'rnini egallagandir. Markaz ustida joylashgan qism markaz bilan tutashib turadi va markaz doirasini tashkil etadi, uni balg'am deyilar. Balg'am – sovuq va ho'ldir, uning mizoji suv mizoji bo'lib, shu bois suv o'rnini egallagan. Balg'am ustini egallagan qism balg'amga tutashib turadi va uni o'rab olgan bo'ladi, bu qismni qon deyilar. Qon issiq va

ho'ldir, uning mizoji havo mizoji bo'lib, havo o'rnini egallagan. Qon ustida joylashgan va unga tutashib, uni o'rab turgan qismni safro deydilar. Safro – issiq va quruqdir. Mizoji olov mizoji bo'lib olov o'rnini egallagan.

Ana shu lutka (urug') degan bir javharda to'rt unsur va to'rt unsur va to'rt tabiat mizoj mavjud. Garchi ushbu to'rt qismda (savdo, balg'am, qon va safro) iborat bo'lsa-da ammo urug' bachadonning qoni bilan qo'shilganligi tufayli barcha to'rtala qatlam asta-sekin qizarib, qon quyqasiga, qon quyqasiga o'xshab qoladi. Odamning a'zolari ana shu qon quyqasi (alaqa)dan rivoj topadi. Bularning hammasi yana bir oy davomida amalga oshadi.

Unsurlar va taboyi' shakllangach, quvvatni taqsim etuvchi bu to'rt unsure va to'rt tabiatni qismlarga ajratib, inson a'zolarini yaratadi. Natijad bosh, qo'l, qorin, ucha, oyoq, ya'ni tashqi tuzilishni tashkil etuvchi a'zolar va miya, o'pka, yurak, jigar, o't pufak, taloq, buyrak, singari ichki a'zolar vujudga keladi. Ichki a'zolar manba' (ishlab chiqaruvchilar) dirlar. Ular har bir a'zoga ma'lum me'yorda savdo, balg'am, qon, safro yuborib turadilar. Ba'zi a'zolar bu to'rt (mijozdan) barobar miqdorda olib turadilar. Ba'zilari esa Xudovand hikmatiga muvofiq turli miqdorda oladilar. Bu barcha tashqi va ichki a'zolar shakllanguncha davom etadi. Manba'lar tugamaguncha har bir a'zo boshqasi bilan bog'lanib ozuqa yo'llarini, hayot tomirlari-yo'llarini, his va erkin harakat qilish yo'llarini hosil qiladilar. Bu jarayonning hammasi yana bir oy ichida yuz beradi.

A'zolar tuzulib, manba'lar tugaganidan keyin mazkur a'zolarining har birida joziba (tortish), musiqa (ushlab turuvchi kuch), xazima (hazm qiluvchi), dafi' (daf' etuvchi), mumayiza (farq qiluvchi), go'ziya (g'izolantiruvchi), nomiya (o'stiruvchi) va shunga o'xshash quvvatlar hosil bo'ladi. Bu quvvatlarni nabilar maloyiq deydilar. A'zolar shakllanib quvvatlar (maloyiq) hosil bo'lgach, oshqozon ovqat qidira boshlaydi va kindik orqali ona qornida to'plangan qonni surra boshlaydi. Ushbu qon bolaning oshqozoniga tushganda oshqozonda bir marta hazm bo'lishi bilan

pishadi, bola oshqozonida ilk pishgan oziq xuddi arpa oshiga o'xshab qoladi va qaylaga aylanadi. Ana shu qaylaning mag'zi va qaymog'ini jigar masarig'a orqali o'ziga simirib oladi, bu narsa jigarga tushganda yana bir marta hazm bo'lib, qayta pishadi. Qaylaning (qaylus) mag'zi va qaymog'i sifatida jigarga tushgan va hal bo'lgan (narsa) o'simlik ruhi hosil qiladi. Qolganlari esa yo safro, balg'am, yo qon yoki savdoga aylanadi. Safroni o't xaltasi, savdoni taloq, balg'amchi jon ruhi o'ziga tortib oladi va boshqa a'zolarga yuboradi. Badanda ozuqani tarqatuvchi – o'simik ruhidir. O'simlik ruhi jigarda joylashgan bo'ladi, u jigarda, ya'ni o'ng tomondan o'rin olgandir. Ozuqa barcha a'zolarga tarqalgach, a'zolarning nash'u namosi (o'sishi) boshlanadi va buning mohiyatida nabot (o'simlik) ma'nosi ham bor. Buning hammasi yana bir oy davomida kechadi.

O'sish shoyon aniqlanib, yakun topgach, o'simlik ruhi quvvatlanib, oshqozon va jigar mustahkamlanib, ovqat hazm qiladigan bo'lgach, o'simlik ruhining mag'zi va qaymog'ini yurak o'ziga tortadi. Yurakka tushgach, u yana bir marta qayta hal qilinadi, yana pishadi va butkul hayotga aylanadi. Yurakka tushgan va hayotga aylangan mag'zi bilan qaymoq hayvon ruhini vujudga keltiradi. Hayvon ruhidan qolganlarini hayvon ruhi qon tomirlari orqali barcha a'zolarga haydaydi va a'zolari (shu orqali) hayot bilan ta'minlaydi va barcha a'zolar hayvon ruhi vositasida tiriladi. Badanda hayotni ta'minlaydigan quvvat – bu hayvon ruhi, hayvon ruhi yurakka joylashadi, yurak esa chap tomondadir.

Hayvon ruhi takomil topgach, ushbu ruhning mag'zi va qaymog'ini miya o'ziga tortadi. U miyaga kelib, yana bir marta hal bo'ladi va miyada hosil bo'lgan mag'iz va qaymoqdan jon ruhi hosil bo'ladi, qolganlarini jon ruhi asablar bo'ylab tarqatadi, buning vositasida jismda hislar va erkin harakat paydo bo'ladi. Jismdagi his va erkin harakat jon ruhining ishidir. Hayvonlik haqiqati ana shudir. Buning hammasi yana bir oy ichida yuz beradi. Anosir, taboyi', ma'dan, o'simlik (nabotot) – har

birining takomili uchun bir oy vaqt ketadi. Hayvonlikdan keyin hech narsa yo'qdir, hayvonlik –takomilining so'nggisi hisoblanadi.

Dastlabki oydan va bola dunyoga kelguncha rivojlanish jarayoni odamning mijoziy xususiyatlari ona qornidayoq tarkib topishini ifodalaydi. Bu bobda bir odam a'zosini shakllanishi har bir a'zoning vazifalari atroflicha tahlilini ko'ramiz.

Ikkinchi bobning “oltinchi fasli”da miyaning vazifalari, insonning psixologik xususiyatlari quyidagicha tahlil etiladi.”Bilgilki miyada joylashgan ko'ngil (jon) ruh- anglovchi bekor etuvchidir. Uning anglash (tushunish) faoliyati ikki ko'rinishga ega. Birinchisi zohiriy va botiniy (faoliyat). Zohiriyga miyasi besh qismdan iborat ya'ni bular tashqi hislar bo'lib, ular beshtadir: eshitish, ko'rish, badan bilan sezish, tan bilish, hid bilish; ichki (botiniy) hislar ham beshtadir; aqli solim (ma'no), tasavvur, tahayul, hofiza, quvvai qiyos”. Mutafakkir insonning ulug'ligi, buyukligi ham boshqa jonzodlardan ustunligi ham uni ruhiy fazilatlarida deb biladi. Insonning pog'onalar bo'yicha ko'tarilishi asosi uning ruhiy fazilatlarini ilm – ma'rifat va faoliyatida ekanligini ifodalaydi, “Inson ilmi darajasi oshirilgan sari oliyjanobroq va buyukroq bo'ladi”- degan xulosaga keladi.

Bilgilki, miyada joylashgan ko'ngil (jon) ruh – anglovchi va bedor etuvchidir. Uning anglash (tushunish) faoliyati ikki ko'rinishga ega: biri – zohiriy, ikkinchi botiniy (faoliyat). Zohiriyga tegishlisi besh qismdan iborat, ya'ni bular tashqi hislar bo'lib, ular beshtadir: eshitish, ko'rish, badan bilan sezish, ta'm bilish, hid bilish; ichki botiniy hislar ham beshtadir: aqli solim (ma'no), tasavvur, taxayyul, xofiza, quvvai qiyos. Xofiza taxayyul xazinasidir, aqli solim hislarning xabarlarini – tasvirlarni bilib oladi, tasavvur hislarning surat-tasvirlarini tutib turadi, xofiza hislarning (xabari tasvirining) ma'nolarini tutib oladi. Buning ma'nosi shu'ki, aqli solim konkret ko'rinib turgan narsalar (shoxid) ni topadi, qiyoslash quvvati esa g'ayb (ko'rinmas, mavxum) narsalarni topadi.

2.2 Aziziddin Nasafiy shaxs shakllanishida mikromuhitning(olami sug'ro) tutgan o'rni haqida.

Olam ma'nosini bilganingdan keyin shuni bilg'ilki, ey darvesh, seni kichik inson (inson sug'ro) va kichik olam (olami sug'ro) deydilar, butun olamning o'zini esa ulug' inson (insoni kubro) va ulug' olam (olami kubro) deydilar. Ey, darvesh sen kichik olamsan, butun olamning nusxasi va timsoli belgisisan. Ulug' olamda bor narsalar kichik olamda mavjuddir. Ey, darvesh, ulug' olamning avvalu oxiri, zohiru botini, mohiyat va shakllarini idrok etish uchun o'zingning mohiyating, zohir va botinining anglab yetgin. Bundan boshqa yo'l yo'q. Ey, darvesh, narsa-hodisalarning qanaqaligini bilmoqchi bo'lsang, o'zingning qanaqaligingni bilishing kerak.

Bilgilki, taxayyul quvvati ikki xil bo'ladi. Birinchisi – sabab, ikkinchisi – mayl. Sabab suratning naqshi tasavvurda paydo bo'lganda va qo'zg'atuvchi kuchlarni harakatga keltiruvchi omilga aylanganda hosil bo'ladi. Qo'zg'atuvchi quvvat – bu a'zolari harakatga keltiruvchi quvvat bo'lib, a'zolarining harakati o'shandan. Va ushbu qo'zg'atuvchi quvvat sabab quvvatiga itoat etadi va ham uning amrlarini ijro etuvchidir. Sabab quvvati harakatga yo'naltirilgan uyg'onish quvvatining sababkori va omilidir. Foyda ko'rish va huzurlanishni uyg'otish maqsadiga ko'ra, ushbu darajada bu xirs (nafs) quvvati deb ataladi, zararni daf' qilish va afzallikka intilishni uyg'otish maqsadiga ko'ra esa u ushbu darajada g'azab quvvati deyiladi.

Hozirgacha aytilganlarga binoan odam hayvon bilan o'xshashdir, ya'ni odam zikr etilgan uch xil ruh – o'simlik ruhi, hayvon ruhi, jon ruhi, bo'yicha hayvonlarga monanddir. Hayvondan ustun bo'lgan inson afzallikni insoniy ruh tufayli qo'lga kiritadi. Insoniy ruh tana-jismda bo'ladimi yoki yo'q, degan masalada bahslashadilar. Shariat ahli insoniy ruh xuddi sutdagi saryog'day tanada mavjuddir, deydilar. Hikmat ahli esa, insoniy ruh tanada ham, tanadan tashqarida yoki ichkarida bo'lish – jismga xosdir, vaholanki, ruhi notiq – moddiy jism emas. Ammo barcha shunga iqroriki, o'simlik ruhi, hayvon ruhi va jon ruhi jism – tanada bo'ladi va u ovqatning qaymog'i

va mohiyatidir. Ovqat o'sishni ta'minlovchi ozuqani yetkazib, uni parvarish etadi, darajalar bo'ylab ko'tarilishiga ko'maklashib biluvchi, ko'ruvcha va eshituvchi qiladi.

Bilgilki, hayvon ruhi juzv – qismlarnigini anglashga qodir, inson ruhi (esa) juzvni ham, qull (umum) – ni ham anglay oladi. Hayvon ruhi zarar va naf'aning farqiga boradi, ammo inson ruhi foyda va zararni bilishdan tashqari, foyda keltiradigan va zarar keltiradigan narsalarni ham farqiga boradi. Ey, darvesh, inson ruhi (nafsi) tirikdir, bilguvchi, xirsli, iste'doddir, eshituvchi, ko'ruvchi va so'zlovchidir. Boshqalarga u ko'rinmaydi va eshitilmaydi va nutqi bilinmaydi. Jism bo'laklarga bo'linib, maydalangani, ruh esa bo'laklarga bo'linmay, maydalanmaganiday inson ruhi bilishda – yaxlit bilag'on, ko'rishda – yaxlit ko'rguvchi, eshitishda – yaxlit gapiruvchi. (Uning) boshqa sifatleri haqida ham shunday hukm qil.

Inson ruhini bilganingdan keyin endi bilgilki, shariat ahli fikricha, inson mana shunday qobiliyati bilan payg'ambarlarga imon keltirdi, ularga ummat bo'lib, payg'ambarlar yo'l boshchiligini qabul qildi. (Natijada) shunga muyassar bo'ldiki, uni imonli va uning ruhini ham imonli dedilar. Agar (inson) payg'ambarlarga imon keltirish va ular sunnatiga amal qilish barobarida surunkali ravishda Robbil olaminga ibodat bajo keltirsa va tunu kunning ko'p qismini toat-ibodat bilan o'tkazsa, uni solih va sohibi taqvo deb, uning ruhini ham taqvoli solih ruhi deb aytadilar. Agar surunkali ibodat ustiga, u foniy dunyodan butkul yuz o'g'irgan bo'lsa, boylikdan, jonu mansabdan voz kechib, jismoniy lazzat va xirsdan qutulgan bo'lsa, uni zohid deb, uning ruhini ham zohid ruhi deb aytadilar. Agar yana boz ustiga, zohidlikdan tashqari, narsa-hodisalarning botiniy mohiyatini anglasa, nazaridan hech narsa yashirin qolmasa va taqlid chegarasidan irfon chegarasiga qadam qo'ygan bo'lsa, uni donishmand (orif) deydi va uning ruhini donishmand (orif) deb aytadilar. Agar irfoniy ma'rifat ustiga boz ustiga o'ziga qurb (yaqin) qilib tanlagan va muhabbatiga musharraf etib, qalbini o'z nuri bilan yoritgan bo'lsa, uni valiy deb, uning ruhini valiy ruh

deb aytadilar. Agar qurb va muhabbat hamda qalb ravshanligi bilan birga, boz ustiga Xaq taolo uni mo'jiza – karomatlari asrori kashfi uchun tanlagan bo'lsa va xalqqa Xaq yo'lini xidoyat etish uchun payg'ambar qilib yuborsa, uni nabi deb, uning ruhini nabi ruhi deb aytadilar.

Agar Xaq taoloning mo'jiza – karomati va asrori kashfi bilan barobar boz ustiga, uni o'z kitobi uchun tanlasa, uni rasul deb, uning ruhini rasul ruhi deb aytadilar. Kitob yuborish barobarida agar u avvalga (o'zigacha) shariatni botil etib (bekor qilib), yangi shariatni joriy etsa, uni ululazm deb, uning ruhini ululazm ruhi deb aytadilar. Agar avvalgi shariatni botil etib, yangi shariatni joriy etish barobarida, boz ustiga Xaq taolo uni payg'ambarlik Xotami bilan saylagan bo'lsa uni Xotamul-anbiyo deb, uning ruhini Xotamul-anbiyo ruhi deb ataydilar.

Ey darvesh, mana shu inson ruhining pog'onalar bo'ylab ko'tarilishidir. Ta'limu tahsil, takror va zikr, jahdu jadaldan maqsad shu. Shariat ahli (inson) ruhining taraqqiyoti bundan baland emas, deydilar. Ularning fikricha, ushbu to'qqiz darajaning har biri oriflar va taqvodorlar darajasidir. Bovujud, kimning darajasi avval baland bo'lsa, uning bilimi va solihligi ham baland bo'ladi. Kishining bilimi va taqvodagi (ustuvorligi va pokligi) orttirilgan sari nomi, qaytib boradigan maqomi ham o'zgarib boradi. Inson ilmi darajasi oshirilgan sari oliyjanobroq va buyukroq bo'ladi. Va bu to'qqiz maqomning har biri (insonga) bir inoyatdir. Har bir toifaning maqomi azaldan belgilab qo'yilgan va kishi o'z maqomini chetlab o'tolmaydi. Hikmat ahli (ya'ni faylasuflar) ham uruj bundan yuqori bo'lmaydi, deb aytadilar, ammo hikmat ahli buni chegara deb hisoblamaydilar. Hikmat ahlining fikricha, ushbu to'qqiz martaba – daraja ma'rifat ahli va safo ahlining martabalaridir biroq kimning maqomi oliyroq bo'lsa, uning ma'rifat (bilimi) va safosi (pokligi) ham balandroq bo'ladi. Odamning sofliigi va bilimi ortib borgan sari uning ruhi qaytib boradigan maqomi ham yuqori bo'laveradi. Demak, bu maqomlarning har biriga inson musharraf bo'lishi mumkin va hech kimning maqomi oldindan belgilab

qo'yilgan emas. Har kimning maqomi uning ma'rifati va safosiga berilgan mukofotlar va kimki ko'proq ma'rifatli va safoli bo'lsa, uning maqomi balandroq bo'laveradi.

Hikmat ahlining fikricha, hech narsaning ibtido va intixosi yo'q, agar narsalarning intixosi bo'lsa, demak ularning ibtidosi ham bo'lishi kerak. Ya'nikim, Oy doirasining yakun topishi bilan ash'yolar o'z takomiliga erishadi va o'z takomiliga erishgan har bir ash'yo nihoyat topgan bo'ladi. Har bir yangi doiradan boshlab yangi ibtido boshlanadi va u o'z takomiliga erishish uchun darajama-daraja intiladi.

Vahdat ahli (tasavvuf ahli) fikricha esa, urujning chegarasi yo'q, agar qobiliyatli odamning umri ming yil bo'lsa va barcha ming yillik umrini taqvo va toatda o'tkazsa, u har kuni ilgari bilmagan biror narsasini bilib oladi.

Zero, Tangri hikmati va ma'rifatining chegarasi yo'q. Vahdat ahlining fikricha, bashariy borlig'idan ozod bo'lgan inson uchun yetishmaydigan maqom yo'qdir. Borliqning barcha juzvlari odamiylik hislatiga ega bo'lishga intilib, (doimiy) harakat va safarda bo'ladi. Insoniy borliq kasb etgandan keyin esa, u takomiliga erishadi. Odamzod ham safardadir – u o'z mohiyatiga erishmaguncha tinmay harakat qiladi, (agar shunday qilmasa) u o'zini ham tanimaydi, hamda xulq bilan bezanib, kamolot kasb etmaydi.

Ey darvesh, axloqiy hislatlar-da bezanmagan, o'zini tanimagan odamlar ko'p, ammo ular hali komil emas. Go'zal hislatlar-da bezangan bo'lib, lekin o'zini tanimaganlar bor. Bular ham komil emas. Binobarin, insonning kamolotga erishishi tugal axloqqa ega bo'lish va o'z-o'zini tanish bilan amalga oshadi.

Ey darvesh, men bu risolada inson va insoniy martabalar HAQIDA gapirganimday boshqa hech qayerda gapirgan emasman. Boshqalar ham o'z kitoblarida (buni) yozmaganlar, Sen bu bobni mulohaza qilib, diqqat bilan o'qi! Chunki bu zohiru botin do'koni va o'z-o'zini anglash xazinasining kalitidir.

Bilgilki, ba'zilarining fikricha, ayrim odamlarda to'rtta ruh mavjud ya'ni: o'simlik ruhi, hayvon ruhi, jon (qalb) ruhi va inson ruhi (nafsi notiq). Yana boshqa bir xil odamlarda beshta ruh bor deyдилar, ya'ni: o'simlik ruhi, hayvon ruhi, qalb ruhi, inson ruhi va muqaddas ruh. Va yana deyдилarki, insoniy ruh va muqaddas ruh yuqori olamdandir, ya'ni g'ayb olamidandir – osmoniy farishtalar jinsidan. O'simlik ruhi, hayvon ruhi va qalb ruhi – quyi olamdandir, ozuqaning qiyomi va sharbatidan. Ushbu besh ruhning har biri bir javhardir. Ular bir-biridan ajratilgan va o'zaro farqlanadi. Tana go'yo sham bo'lib, o'simlik ruhi misli shamdon, hayvon ruhi go'yo pilik, qalb ruhi bamisoli yog' bo'lsa, inson ruhini nurga qiyoslash mumkin. Muqaddas ruh esa – bu “nuran alo nur” – (nur ustiga nur)-dir.

Boshqa ba'zilar har bir odamda faqat bitta ruh bor deyдилar, ammo bu ruhning darajalari bor va har bir darajaning nomi mavjud. Nomlar ko'p bo'lganligi sababli odamlar ruh ko'p deb o'ylayдилar. Biroq bunday emas. Ruh bitta va jism ham bittadir, lekin jismning darajalari bor va har bir darajaning qandaydir nomi bor. Ruhning ham darajalari bor va darajalar qandaydir nomlarga ega. Jism ruhga muvofiqdir va ruh jismga muvofiqdir. Mulk malakutsiz va malakut mulksiz bo'lmaydi, ularning har ikkalasi birgalikda (mavjud) bo'lib, bir-biridan ajralmasdirlar. Jism ham, ruh ham ikkalasi birga rivojlanadi va komillikka erishguncha kamolot zinapoyalaridan ko'tarilib boraveradilar va darajalarni egallayдилar. Ularning zuvalasini har qancha ko'proq pishirishsa, tarbiyalansa, ular mohiyatida yashiringan sifatlar ko'rina boshlaydi. Bu jarayon o'z nihoyasiga yetguncha davom etadi. Keyin esa yana nuqson tomon qaytish (yuz beradi).

Oy falaki ostidagi barcha narsaning chegarasi bor, ana shu chegaraga yetib borgandan keyin o'sish imkoniyati qolmaydi, istivo (harakatsizlik) yuz beradi. Ammo istivo, ya'ni uruj ham, nuzul ham bo'lmagan “osoyishtalik” vaqtining ham chegarasi bor. Ya'ni oy falaki ostidagi jami narsalar uruj xossasiga ega va bu urujning oldindan belgilangan chegara va me'yori mavjud. Biroq uruj va nuzul orasida qandaydir harakatsizlik (istivo) mavjud. Bu

harakatsizlikning ham oldindan belgilangan chegara va me'yor bor. Bu xuddi Sirot ko'prigiga o'xshaydi. Chunki Sirot ko'prigi ustidan bir qancha vaqt balandlashib yuriladi va yana keyin pastga qarab yurish lozim bo'ladi. Sirot ko'prigini esa do'zax ustiga qurganlar. Birovlar undan quvnab, yengil o'tadi, boshqalar esa yiqilib-surilib o'tadi. Yana boshqa birovlar qiyinchilik bilan, nafrat va qurquv ichida Sirotidan o'tadilar.

Kimki duzaxga yiqilmay, bu ko'prikdan eson-omon o'tsa, u azaliy vatani hisoblangan jannatga yetishadi. Ey daresh, barcha jannatdan chiqib, yana jannatga qaytadi. Ammo gap cho'zilib ketdi, biz esa ko'zlagan maqsaddan chetlasha boshladik. Maqsadimiz esa ruh faqat bitta, jism ham faqat bitta, jism va ruhning darajalari bo'lib, har bir darajaning qandaydir nomi borligini bildirish edi. Lekin sen jismning manbai nima, u nimadan paydo bo'lganini va ruhning manbai nima, u nimadan paydo bo'lganini bilganingdagina bu so'zlar senga ravshan bo'ladi.

Bilgilki, tuproq, suv, havo va olov moddadir, ularning har biri surat (shakl va ma'no)ga ega. Tuproqning suratini unsur deydlar, tuproqning ma'nisini (mohiyatini) tabiat deydlar. Qolganlari haqida ham shuni aytish mumkin. Ulardan har birining suratini uning unsuri deydlar, har birining ma'ni-mohiyatini esa tabiat deydlar. Ma'lum bo'ladiki, to'rtta unsur va to'rtta tabiat mavjud. Bu to'rt narsani bir-biri bilan aralashtirsalar (bu zaruriy holdir) albatta mutashobihul ajzo, ya'ni o'zaro o'xshash qismlar hosil bo'ladi. Bu tab' (yoki mijoz)dir, tab' – mijoz unsurlarning aralashishidan kelib chiqadi.

Oldingilarni bilding, endi shuni ham bilginki, bu to'rt unurni bir-biri bilan aralashtirganda, ularning suratlari aralashib ketadi, ularning suratlaridan qandaydir o'zaro o'xshash a'zolar hosil bo'ladi. Buni jism deb ataydlar. Ularning ma'nisidan (ham) qandaydir o'xshash a'zolari hosil bo'ladiki uni ruh deb ataydlar. Demak, to'rt unurni (modda) alohida-alohida mavjud bo'lganga qadar ularni unsurlar va tabiatlar deb ular o'zaro aralashib, mijoz – (tab') hosil bo'lganda esa ularni ruh va vujud deb aytadilar. Unsurlar jismning mohiyati – ma'nosi bo'lsa ham ammo jismlar sodda bo'lib, uruj va nuzul (xossasiga) ega

emas. Endi (qo'shilganda) esa, u darajalar bo'lib taraqqiy qiladigan va har bir darajada yangi nom oladigan vujudga aylanadi.

Ey darvesh, jisimning mohiyati, ruhning mohiyati va tab' – mijozning mohiyati aytganlarimdaydir. Jism –maxluqot olamidan, ruh esa amr olamidan, jism – malakutsiz bo'lishi mumkin emas, shu kabi malakut ham mulksiz bo'lmaydi. Ularning ikkalasi birga va bir-biridan ajralmasdir. Chunki ularning ikkalasi ham urujga moyil va o'z takomiliga erishgach ikkalasi yana nuzul sari intiladi: O'zidan boshlanib o'ziga qaytadi.

Bilgilki, tab' – mijoz faqat ikki vaziyatda, ya'ni mu'tadil va g'ayri mu'tadil (holatda) bo'ladi. Oy falaki ostida mu'tadillik bo'lishi mumkin emas, chunki ushbu falak (mulk va malakut olamlari) orasida mushtarakdir – ikki tomonga ham tegishlidir. Agar oy falaki ostida mu'tadillik bo'lganida edi, dunyo abadiy bo'lardi va unga o'zgarishlar yuz bermagan bo'lardi. G'ayri mu'tadil vaziyatda tab' - mijoz uch holatda bo'lishi mumkin, ya'ni yo mu'tadilga yaqin, yo mutadildan uzoq yohud yaqinlik va uzoqlik orasidagi o'rta holatda bo'ladi. Mu'tadildan uzoq tabiatdan ma'danlar jismi va ma'danlar ruhi kelib chiqadi, o'rta holatdagi tabiatdan o'simlik jismi va o'simlik ruhi (nafsi) paydo bo'ladi. Mu'tadilga yaqin tabiatdan hayvon jismi va hayvon ruhi kelib chiqadi.

Inson hayvon turlaridan biridir. Ey darvesh, aynan hayvon ruhi tarbiya topib, ta'lim va tahsil ko'rib, bilish, takrorlash, taqvo va zikr tufayli darajalar bo'ylab rivojlanadi va ruhning birligi, jismning ruh bilan va ruhning jism bilan yagonaligi va bir-biridan ajralmasligini aytish edi.

Ey darvesh, Vahdatul-vujud o'zi uchun zarur jamiki narsa va xususiyatlarni o'zida saqlaydi va o'zidan sarflaydi. Ruh hech qayerdan kelmaydi va hech qayerga ketmaydi. Ruhda nur bor va olam bu nurdan limmo-lim. Bu nur olamning jonidir, bu nur olamni barkamol etuvchi va harakatga keltiruvchidir. Ya'ni u (ruh) o'simlik darajasida – tabiat, hayvon darajasida- harakat, odam darajasida- faoliyat ko'rinishida (zuhur etadi.)

Shoir aytganiday:

Neki ko'rding, dil ko'zin och, hatto tuproq chagida

Ibrat olsang, zuhur etur olam kamalak rangida

Ey darvesh, bu nurni vujud darajasida, ruh darajasida, aql darajasida, mutlaq ziyo darajasida ham topadilar. Ammo barcha kishilar bu nurni izlab talpinadi, (ular) bu nurni o'zlaridan tashqarida izlaydilar va qancha izlasalar, shuncha undan uzoqlashadilar.

She'r:

Dedim ki, izlagil sen, topmog'in bor ehtimol,

Izlash yuqotmoq ekan, bilmay qilibman hayol.

Har qancha so'zni muxtasar qilay desam, ixtiyorimdan tashqari kuch maqsad chegarasidan meni uzoqlashtirmoqda. Ey darvesh, hali sen ko'p marta falak o'yinlarini ko'rasan, dunyo girdobida charx urasan, ma'nisiz safarlar qilasan. Hali necha marta bu olamning eshigini chetlab o'tasan, umring va mol-mulkingni barbod berasan! Bunga ehtiyoj bormi? Taqvoga ham, zuhdu pokdomonlikka ham hojat yo'q. muammolarni yechishga kuch sarflashning ham ma'nisi qolmagan-izlaganing izlanish mashaqqatiga arzimaydi. Yo'q narsani izlaydilar, sirni va sirning yo'lini qidiradilar:

Gerehlarni yechmoq istagan darvesh,

Tarkibdan tug'ilib, tasnifdan o'tar.

Chanqoqdan qaqroqsan daryo labida,

Xazina ustida qashshoqsan magar.

Va yana:

Bir savat shirmoy non turar boshingda,

Tilaysan eshikdan burda non nechun?

Kishilar eshigin taqillatguncha,

Qoqsang-chi, ey nodon, dilning eshigin!

Ey darvesh, ishlarning asili oriflar suhbatidir, shuni izlagin, topganingdan keyin zohid bo'lib, qanoatga yuz o'gir, shunda qolgan umring saodatda – safoda o'tar.

Shu paytgacha men: odamzod jonli mavjudot bo'lgach, u zarurat miqdorida mehnat qilishi, oilasini xor qilmay boqishi, kuchi yetguncha odamlarga xizmat qilib, hojat chiqarishi lozim deb o'ylardim. Hozir esa odam bolasi uchun qanoatdan va zohidlikdan yaxshiroq narsa yo'q deb o'ylab turibman. Bu dunyo va oxirat sening bir lahzalik parishonliging va tahlikangga arzimaydi. Kimki qanoat va zuhudni pasha qilgan bo'lsa, u shohdir, biroq kimki ushbu (hislatlarga) ega bo'lmasa u quldir. Holbuki, shoh va qul orasida farq anchagina

Ey darvesh, sen o'zingni va o'z darajalaringni bilib olding, endi shuni bilgilki, senga o'n ikki mushkul masala tushuntirilib, bayon qilindi.

Birinchisi, avval to'rt unsur, so'ngra osmonlar va yulduzlar haqida bilding.

Ikkinchisi, avval vujud, keyin uql (aqlar) va jonlar (ruhlar) borligini bilding.

Uchinchi, falaklar, yulduzlar, uqula va jonlar unsurlar bilan vujudlarning qaymog'i va ma'nosi ekanligini bilding.

To'rtinchisi, daraja qancha yengil bo'lsa, u shuncha balandroq va olam markazidan uzoqroq ekanini bilding.

Beshinchisi, yengil ham, og'ir ham bittab' (tabiatiga ko'ra) olam markaziga intilishini, binobarin, og'irlar chuqurroq bo'lib, olam markazi (o'rtasi)ga yaqinroq ekanligi, yengillar esa olam markazidan uzoq joylashganini bilding.

Oltinchisi, olam lomakon (makonsiz) ekanini, ammo olamning juzvlari tabiatan olam markaziga qarab intilgani sababli, ularning joyi olam markazi ekanligini ham bilding.

Yettinchi, shuni bildingki, mulk olami hisoblangan jismlar olami va malakut olami hisoblangan ruhlar olami o'zaro sut bilan yog' kabi bir-biri bilan birgadir. Ular go'yo g'olib va mag'lub darajasidan bo'lib, bunda malakut – g'olib, mulk esa – mag'lub hisoblanadi.

Sakkizinchisi, shuni ham bildingki, mulk faqat bitta, ammo uning har bir darajasi alohida ismga ega.

To'qqizinchisi, shuni bildingki, mulk va uning sifatleri ehsos etiluvchidir va hislar ularni qabul qila oladi. Binobarin, soliklar xilvatda o'tirganda nurni ko'rdik, deganda, aslida nurni emas, balki nurga o'xshash sarobni ko'radilar va nur deb tasavvur etadilar. Biron narsani uzoq kutgan odam har bir narsada o'zi istaganini ko'rmoqchi bo'ladi, hammadan o'shani eshitmoqchi bo'ladi yoki istagan narsani tushida ko'rib, o'zini bedor deb xayol qiladi, zero solik darveshlarning uyqusi juda yengildir. Ularga haj qilish va avliyolar qabri, muqaddas joylarni ziyorat qilish paytida ko'ringan yorug'lik sarob va yolg'ondir. Ikki ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan nur bu olov yoki yulduzlar nuridir.

O'ninchisi, shuni angladingki, mulk va malakutning zoti – javhari bittadan ortiq emas. Ushbu javharning tabiati – xossasi oliy va undan oliyroq tabiat yo'q. hatto undan baland hech narsa ham yo'q. Nimaiki mavjuddir mulk va malakutda mavjud bo'lib qoladi. Bularning hammasi o'sha sifatlarda bor, ammo amalga oshirilmasdan kelinardi.

O'n birinchisi, shuni bildingki, birinchi darajada hayot, bilim, iroda, quvvat, eshitish va ko'rish (qobiliyati) haqiqatda mavjud emas. Ammo darajalar bo'ylab taraqqiy etganda, hayot, bilim, iroda, quvvat, eshitish va ko'rish (qobiliyati), nutq (qobiliyati) haqiqiy mavjudlik kasb etadi. Ma'lum bo'ladiki, kamolot (takomillashuv) sabab bor joyda yuz beradi. Daraxtning barcha darajalaridan ko'ra mevasi nafis va qadrli ekanligiga shubha yo'q. Mavjudotning mevasi esa insondir. Iksiri a'zam, malhami a'zam, jomi jahonnoma, oinai getinamo – hamma-hammasi orif insondir.

Buning ma'nosi shuki, olam jonidagi o'sha nur (olam esa ul nur ila limmo-limdir) birinchi darajada iroda va qudrat bora-bora haqiqiy mavjudlik kasb etadi. U o'zining mazharidan ayri mavjud emas va shunday holatda uning mazhari bilan nisbati sut bilan qaymoqning (nisbati) kabidir. O'sha birinchi darajada zuhurlanish soda tarzda edi, nur ham oddiy edi. Ammo darajalar

bo'ylab ikkalasi rivojlanganda, bungacha ularda yashiringaan sifatlar yuzaga chiqadi va naqshlar (shakllar) paydo bo'ladi. Binobarin, biz bu nurga erishdik va bu nurni ko'rdik, ul nur dengizday behudud sathda porlab turadi, deguchilar yolg'on so'zlaydilar. Zero bul nurni ko'z bilan ko'rish mumkin emas, lekin uni basirat ko'zi (qalb ko'zi) bilan idrok etsa bo'ladi.

Unga his – sezgilar orqali yaqinlashish mumkin emas. Negaki aql uning oldida nunoqdir. Bodom danagida yog'ni ko'rish mumkinmi yoki sut (tarkibidagi) yog'ni ko'z bilan ko'rsa bo'ladimi?! Yog' hatto sezgilar orqali qabul qilinib, mulk olami (moddiy olam)ga mansub bo'lganda ham, uni ko'rish mumkin emas. Nur esa his qilinmaydi va u malakut olamidandir, qanday qilib uni ko'rasan?

O'n ikkinchisi, shuni bildingki, inson jam'(kull)ga – manba'ga qaytadi. Juzvning manbai kullning asli yordamida urujga kiradi va bu urujning takomillashuvining nihoyasiga qadar davom etadi. O'zining takomiliga yetgach, u kullning asl manbaiga qaytadi, “O'zidan boshlanib, O'ziga qaytadi” yoki: “hamma narsa o'z asliga qaytadi” so'zlarining ma'nosi shu.

Ey darvesh, kimki bu kitob orqali o'zini tanimasa, u o'zini boshqa kitoblar orqali taniy olmaydi. O'zini anglamagan har bir kishi esa, hech narsani anglamay (dunyodan o'tadi). Ey darvesh, barchasi shu asl (bob)da aytili va hech narsa qoldirilmadi. Agar bu aytilganlardan ham ko'proq bilaman desang, buning iloji yo'q. chunki bu bobda bir xil gaplar to'g'ridan to'g'ri, ba'zilar esa ishoralar bilan aytili. Takrorga esa hojat qolmadi. Ham o'zini va ham boshqalarning avvalu oxirini bilib olgan odam o'zining va boshqalarning martaba va manzillarini anglaydi, o'zining va boshqalarning o'limidan keyingi holatlarini bilib oladi va hech narsa yashirin qolmaydi.

Ulug' odamda bor narsalar kichik odamda majudligi va kichik odamda mavjud jami narsalar katta odamda borligi haqida. Ey darvesh, bu ikkinchi asl va undan keyin keladigan uchinchi asl tasavvuf ahlining so'zlari mohiyatidir. Tasavvuf ahlining fikrlari haqiqatdan olganda, omuxtadir. Ya'ni (bir qism fikrlar) shariat ahlidan, yana bir qism hikmat ahlidan, uchinchi qism

esa vahdat ahlidan (olgan). Ba'zi narsalar o'zlashtirilgan, boshqalari yangidan kashf etilgan. Bilgilkim, Alloh butun borliqni yaratib, unga olam deb nom berdi, chunki olam Uning borlig'ining alomatidir. Olam borligida uning ilmi, ma'rifati, irodasi va qudrati alomat va noma (yozuv) ko'rinishida mujassamdir. Alomat ekanligi bois olam deb, noma ekanligi bois kitob deb atadi. Keyin kimki bu kitobni o'qisa, Meni bilib oladi, Mening ma'rifatim, irodam va qudratimni angelaydi, deb amr etdi. Biz juda kichkina edik, kitob esa juda katta edi va bizning nigohimiz ul kitobning hududlarini, jami sahifalarini ilg'ay olmadi. Ustodi A'zam bizning ojizligimizni ko'rib ushal olamning muxtasar ko'chirmasini yaratdi va ul Kitobni qisqartirib qayta kitobat etdi. Birinchisini olami kabir (ulug' olam) ikkinchisini olami sag'ir (kichik olam) deb nomladi. Birinchi kitobni ulug' kitob, ikkinchi kitobni kichik kitob deb ataladi. Ulug' kitobda nimaiki bo'lsa, uni kamaytirmay va qo'shmay kichik kitobda ham naqsh etdi. Toki kichik kitobni o'qigan har bir kishi katta kitobni o'qigan bo'lsin. Keyin u ushbu kichik olamga o'z halifasini yubordi. Parvardigorning halifasi aqlli avvaldir. Aql Alloh taolo sifatlarining mazharidir. U aqlni o'z sifatleri va xulqi bilan bezadi va uni o'zining kichik olamiga tushirdi va shu bois Tangri taolo insonni o'z timsolidan andoza olib yaratdi, deydilar. Bu Tangrining Ulug' olamdagi halifasi bo'lgan o'sha aqli avval edi, bizning aqlimiz esa – Tangrining kichik olamdagi halifasidir.

Bilgilki, Tangri taolo olamda biror narsa yaratishni xoxlasa, Uning suratini (naqsh) avval Arsh ustiga joylashtiradi, keyin Arshdan Kursiga o'tkazadi. So'ng Kursidan sobit yulduzlarning lavhi mahfuziga olib o'tadi, undan yetti osmonga olib tushadi. Quyi olamning podshohi bo'lgan vujudi kull Tangri taolodan keluvchi bu g'aybiy yo'lovchini qarshi olib, unga munosib ravishda to'rt unsuridan ot (markab) tuhfa etadi. Toki g'aybiy yo'lovchi ushbu otga minib, shahodat olamida mavjudlik topsin va Tangri taoloning ilmi Uning amaliga aylansin. Binobarin, shahodat olamidagi jami mavjudot amr olamidan ruhga egadirlar, jismlari esa maxluqot olamidandir. Bu muzannah (sof) ruh (jon) Xudovandi olamdan keladi va u maqsad qilingan ishlarni amalga oshirgach,

yana qaytib, Xudovandi olam huzuriga yo'l oladi. "Undan boshlanadi va Unga qaytadi", deyilishining ma'nosi shu. Tangri taolo faoliyatini idrok etish, behudud oyatlarni anglash mana shudir.

Ey darvesh, ofoq (ufqlar, olam) haqida nimani bilgan bo'lsang, anfus (nafslar, odamlar) haqida ham shuni angla. Bilgilki, kichik olamda aql – Tangrining halifasidir, insoniy ruh – Tangri halifasining arshi, hayvoniy ruh – Tangri halifasining kursisi (taxti), yettita ichki a'zolar yetti osmon, yettita tashqi a'zolar – yetti iqlimdir.

Oldingilarini bilding, endi shuni ham bilgilki, Tangri halifasi biron bir ishni xayol etganda ushbu ishning surati avval Arshi hisoblangan insoniy ruhda paydo bo'ladi, so'ngra kursi hisoblangan hayvoniy ruhga o'tadi, hayvoniy ruhdan sobit yulduzlar hisoblangan o'simlik ruhiga o'tadi, undan yetti osmon hisoblangan yetti ichki a'zolarga o'tadi va keyin tashqi a'zolar quvvati bilan qo'shilib, zohirda ko'rina boshlaydi. Agar qo'l orqali tashqariga chiqsa, unda qo'l Tangri taolo halifasidan kelayotgan o'sha g'aybiy yo'lovchini uchratadi. Qo'l unga g'aybiy yo'lovchi markabi, ya'ni to'rt unsurдан tuzilgan otni hadya etadi. U ot o'simlik shirasi, to'tiyo, qurum va bo'yoqdir, toki ul yo'lovchi bul to'rt unsur otg'a minib, shahodat olamida mavjudlikka ega bo'lsin. U shahodat olamida mavjudlik hosil qilgach, tasavvurdagi Tangri halifasiga aylandi.

Ey darvesh, Tangri halifasi nimani yozsa va nimaniki qilsa, avval uni vositachisiz va moddiyunsiz o'zi qiladi. Ammo agar u o'z asbobi bilan biror narsa qilmoqchi bo'lsa, unda o'sha narsaning surati vositachi hisoblangan asbobga o'tadi, hamda zohirga chiqadi va dunyoda mavjud bo'ladi. Ul birinchi surat aqliy borliqqa ega bo'lsa, bul ikkinchi surat jismoniy borliqqa egadir. Ul birinchi surat asliy borliqqa ega bo'lsa, bul ikkinchi surat xorijiy borliqqa ega. Tangri halifasi faoliyati haqida nimani bilgan bo'lsang, tangrining faoliyati haqida ham shuni bil. Tangri taolo nimaniki amalga oshirmoqch bo'lsa, vositachilarsiz, modda va asboblarsiz avval o'zi amalga oshiradi. Keyin bul narsaning surati vositachilarga o'tadi va bu quyi olamga tushib boradi va shahodat olamida mujassamlanadi. Ammo gap cho'zilib ketdi va maqsaddan

chetlashdik. Agar surat (tasvir) yurak orqali zuhur topsa, Tangri halifasidan kelgan g'aybiy yo'lovchini til qarshi oladi va unga munosib ravishta to'rt unsurdan ot hadiya etadi. Bu ot 12 harf va to'rtta so'zdir. (?) Bu g'ayb yo'lovchisi ushal otga minib, shahodat olamida namoyon bo'lgandan keyin Tangri halifasi tomonidan zuhur etilsa, Tangri halifasining so'ziga aylanadi. Yozilgan narsa esa yana sayohatga chiqadi va ko'z orqali Tangri halifasiga yetib boradi, shu qatori aytilgan (so'zlar) narsalar ham sayohat qilib, quloqlar orqali tangri halifasiga yetib boradi, "o'zidan boshlanib o'ziga qaytadi" so'zining ma'nosi – shu. Boshqa barcha harflar va sifatlar haqida ham shuni bil. Shunday qilib, ikkita so'z paydo bo'ldi: bitta so'z – yozilganlar, ikkinchisi aytilganlar va har ikki so'zda ham o'sha amr olamidan kelgan sirli (g'aybiy) yo'lovchi mavjud.

Bu ikki yashirin sayohning tanasi – vujudi yaralmish olamdan bo'lib, sayohlar esa har ikki so'zning mohiyat – ma'nosini tashkil etadi. Rubi' maskun (inson yashaydigan quruqlik) so'zlarning ramziy mohiyati bo'lib, har ikki so'zdagi asl ma'no esa Tangri halifasidir. Gap cho'zildi va maqsaddan uzoqlashdik. Maqsadimiz esa ulug' olamda nimaiki bo'lsa, u kichik olamda ham mavjudligini aytish edi.

Bilgilki, bachadonga (tuxumdonga) tushgan urug' javhari avvalning alomati (belgisi)dir, to'rt qismga ajralgandan keyin esa, u unsurlar va taboiy alomatiga aylanadi. A'zolar, chunonchi, tashqi a'zolar, ya'ni bosh, qo'l, qorin, ucha, oyoq – ular yetti iqlim alomatining mohiyatini ko'rsatib turadi. O'pka, miya, buyrak, taloq, yurak, jigar, o't pufagi kabi ichki a'zolar yetti osmon belgisi mohiyatidir. O'pka – birinchi osmon bo'lib, oy falakining belgisidir, chunki oy falaki ulug' olamning o'pkasidir va bilimlar vositasidir. Bu falakda behisob farishtalar manzil tutadilar. Bilimlarni va turmush hikmatlarini egallashni nazorat qilish topshirilgan farishta ularning sardori va Jabroilidir. Jabroil – olam ahli bilimlarining sababi, u – uchinchi osmonning buyragi va Zuhro falakining belgisi. Chunki Zuhro ulug' olamning buyragidir. Bu falakda ko'p sonli farishtalar bor va xursandlik, ayshu ishrat, ehtirolarni nazorat qilish topshirilgan farishta ularga rahnomodir u esa to'rtinchi osmon yuragi bo'lib,

quyosh falakining belgisidir. Chunki Quyosh ulug' olamning yuragidir. Bu falakda ko'plab farishtalar manzil tutgan va hayotni nazorat qilish topshirilgan farishta ularga rahnamolik qiladi. Isrofil olam ahli hayotining sababidir va beshinchi osmonning o't pufagidir va Mirrix falakining belgisidir. Chunki Mirrix Ulug' olamning o't pufagidir. Bu falakda ham ko'p sonli farishtalar manzil tutgan va g'azab, nafratni nazorat qilish topshirilgan farishta ularga rahnamodir. U oltinchi osmon jigari va Mushtariy (yupiter) falakining alomatidir. Chunki Mushtariy ulug' olamning jigaridir. Bu falakda yana ko'p farishtalar bo'lib, ularga oziqlanishni nazorat qiluvchi farishta rahnamodir. Mikoil olam ahli rizqi(yeb ichishi)ning sababidir. Va u yettinchi osmonning talofidir, hamda Zuhul (Saturn) falakining belgisidir. Chunki zuhal ulug' olamning talofidir. Ushbu osmonda yana behisob farishtalar istiqomat etadiki, ularga ajali yetganlar jonini olish topshirilgan farishta rahnamolik qiladi va Azroil shu farishtalardandir, u olam ahli jonini olish sababidir.

Hayvon ruhi sobit yulduzlar arshi va belgisidir, chunki sobit yulduzlar falaki Ulug' olam taxtidir. Bu falakda ham ko'p farishtalar makon tutgan. Inson ruhi esa falaklar falakining kursisi va alomatidir. Zero falaklar falaki Ulug' olamning kursisi va Rabbimiz halifasining aqli hisoblandi u Aqli avvalning alomati hamdir, zero aqli avval Ulug' olamda Tangri taoloning halifasidir a'zolar hali (o'sib) shakllanmasdan oldin ma'danlar belgisi mohiyati bo'ladi, o'sish boshlanganda o'simlik belgisining mohiyati (bo'ladi), hislar va beixtiyor harakatlanish boshlanganda hayvon belgisi mohiyati (bo'ladi). "Mabda' va moad" risolasida kamina bu haqda batafsil gapirganman, qiziqqan kishi o'sha yerdan izlasin.

Bilgilki, suluk so'zi arab tilida umuman yurishni bildiradi, yo'l yuruvchini esa soli deyilar. Yo'lovchi zohiriy olam bo'ylab safar etuvchi ham, botiniy olam bo'ylab safar etuvchi ham bo'lishi mumkin. Tasavvuf ahli fikriga ko'ra suluk alohida safarni anglatadi. Bu Xudo sari safar qilish va Xudoga safar qilishdir. Xudo (Iloh) sari safarning nihoyati bor, ammo Xudoda (Ilohiyotda)

safarning nihoyati yo'q. Agar sen bu so'zlarni tushinib yetmasang, boshqacha qilib aytaman:

Bilgilki, tasavvuf ahli fikriga binoan, suluk yomon so'zlardan xayrli so'zlarga, yomon ishlardan xayrli ishlarga, zamima (buzuq) axloqdan hamida (maqtalغان) axloqqa, o'z borlig'idan Parvardigori olam borlig'iga tomon harakat qilmoqdir. Ya'ni solik xayrli so'zlar, ishlar va yaxshi xulqni kasb etgach, ma'rifat nuri uning qalbiga yog'iladi va u narsalarning asl mohiyatini his eta boshlaydi. "Ey Parvardigor, narsalar (aslida) qanday bo'lsa, ushunday bizga ko'rsat" hadisining (ma'nosi) ravshan bo'lganda, Irfon yuz ko'rsatganida va ma'rifatda kamolotga erishganda, narsalar qanday bo'lsa, ushunday holat kasb etganda, bu uning (solikning) o'z borlig'ida o'lib, Tangri azza va jalla borlig'ida qayta tirilishining nishonasidir. Garchi solikda (ba'zan) borliq (vujud) yo'qdir, ammo go'yo vujud – borlig'im bor deb xayol qiladi. Xuddi ana shu hol soliklarning maqsad – murodi, toliblarning ma'tlubi va yo'lovchilarning istagidir. Demak xalqning xos kishilari hisoblanmish soliklarning kamoloti quydagi to'rt narsadadir, ya'ni xayrli so'z, xayrli ish, xayrli xulq va ma'rifat. Mana shularda kamoloti bor har bir kishi niyatiga erishgan bo'ladi.

Ey darvesh, barcha soliklar shu to'rt martabada turadi, ularning har biri biror martabani egallaydi. Ammo yuz mingtadan bittasi bu yo'lda sobit tura oladi va mazkur to'rt darajaga ko'tariladi, faqat bittasi komillik martabasiga ko'tariladi, yetolmasdan qolganlari esa orqaga qaytadilar va komillikdan umidlarini uzadilar.

Bilgilki, o'zingdan soqit qilishing lozim bo'lgan jami narsalar parda (hijob)da u o'zlashtirib, egallab olishing lozim bo'lgan jami narsalar maqomini tashkil etadi. Maqomlar haqida bilganingdan keyin shuni bilgilki, bu yo'lda senga g'ov bo'lib turgan narsa to'rttadir: (bular) molu mulkka mehr, oilaga bog'lanish (mehr), taqlid va buysunmaslik. Bu yo'lda maqomlar soni ham to'rtta, ya'ni: xayrli so'z, xayrli ish, xayrli xulq va ma'rifat. Ey darvesh, bu to'rt maqom muyassar bo'lishi uchun oldin to'rt pardani yiroqlashtirish lozim. Zero, bu to'rt pardadan nafratlanish tahorat qilmoq bilan barobar, ammo ushbu to'rt maqomga

yo'l esa namoz qilmoq bilan barobar. Har bir parda – tananing yuvib poklanadigan bir a'zosi bo'lsa, har bir maqom bajariladigan namozning bir rakaatidir. Avval tahorat, keyin esa namoz, avval poklanish, keyin esa qo'shilish (vasl). Birida o'lmagan odam ikkinchisida tug'ilmaydi. Xordiqni istasang ishda o'lgin, Xudoni istasang, - o'zingda o'lgin. O'z ishingda o'lolmasang, xordiqni izlama, o'zingda o'lolmasang, Xudoni izlama, chunki unisi ham, bunisi ham amalga oshmaydi.

Ushbu pardalarni inkor etgan hamma vaqt tahoratda bo'ladi, ushbu maqomlarga ega bo'lgan har doim namozdadir. Ey darvesh, ul pardalarni olib tashlash va ul maqomlarga erishish faqat to'rt narsa orqali amalga oshadi: zuhdga berilmoq, kam yemoq, kam uxlamoq va kam gapirmoq. Orif inson bilan suhbatga kelganda, solik nimaki ish qilsa, orif kishi bilan qilsin.

Ey darvesh, barcha aybu nuqsonlarning ildizi ko'p ovqat yeyishdadir. Ammo parxez deganda bugun oshqozonga siqqancha yeb, ertaga och yurishlikni anglamaslik kerak. Bundan foyda yo'q, balki buning zarari ko'proq. Shundaylar borki, bir necha kun kam ovqat yeydilar, ro'za tutadilar, keyin esa ko'p ovqat yeydilar. Bu xildagi parxezning foydasi kam, bu salomatlikni yemiradi. Zuhdu taqvo va parxez doimiy bo'lishi kerak, doimiy bo'lmasa maqsadga erishilmaydi. Har bir ishda sobitlik darkor.

Ey darvesh, sulukda ikki narsada azm sobitlik talab qilinadi va bularsiz suluk hosil bo'lmaydi, ya'ni: oriflar suhbatini olish va ovqatdan parxezda bo'lish, solikning ovqati va uyqusi maqsadli bo'lishi kerak.

Solikning riyozat va taqvo yo'lidagi (tariqatdagi) maqsadi Xudoni izlash bo'lmasligi kerak, chunki Xudo hamma yerda mavjuddir va uni izlashning xojati yo'q. borliqning vujudi – Undan, jami narsalarning abadiyligi - Uning o'zi va jami narsalar Uning o'ziga qaytadi. Bugina emas, butun borliq – Uning o'zidir. Shuni bilish kerakki, sulukdan maqsad poklikka va xayrli xulqqa intilish ham, ilohiy nurning zuhuri ham, sirlarni kashf etishga intilish ham emas. Har bir kishi bitta insoniy martaba – darajaga mansub bo'ladi va solik biror martabaga chiqqanda o'sha martabaga xos narsa, u xoxlaydimi, xoxlamaydimi, zuhur etadi.

Biror martabaga erishgan kishiga o'sha martabaga xos bo'lmagan narsalarning zuhur etishi mumkin emas.

Ey darvesh, daraxtning darajalari bo'lgani kabi odamning ham darajalari bor. Va daraxtning har bir darajasini bildiradigan narsa nima ekani ma'lum. Binobarin, bog'boning vazifasi yeri yumshoq holda saqlash, ishlov berish, tikanaklar, yovvoyi o'tlardan tozalab turish, sug'orish va daraxtni zararli ta'sirlardan himoya qilib turish kerak, shunda daraxtning hamma va har bir darajasi o'z vaqtida zuhur etadi.

Soliklarning ishi ham shunga o'xshash. Uning zuhdu taqvo va riyozati (chinakam) odam bo'lishga yordam bersin va odamiylikning barcha darajalari to'liq namoyon bo'lsin. Solikning istagidan qat'iy nazar, poklik ham, ezgu xulq ham ma'rifat va irfon ham sirlarni kashf etish ham va nurning zuhuri ham har biri o'z vaqtida hosil bo'laveradi, solik buni sezmaydi va eshitmaydi. Shunga amal qilganlarga buni anglaydilar Ey darvesh, shundagina solikning ko'zlari ko'rmagan, qulog'i eshitmagan va aqliga sig'magan, narsalar namoyon bo'ladi.

Gap cho'zilmasin va maqsad yo'lidan og'ishmaylik. Solik baland himmatlik bo'lmog'i lozim va toki hayoti bor ekan hayoti amalida tursin, riyozat va jihod bilan xursand bo'lsin, zero Parvardigorning ilmi va hikmati cheksizdir.

Ey darvesh, daraxtning barcha darajalari uning urug'ida mavjud, bu darajalar to'la zuhur etmaguncha tadbirlar bog'bon tomonidan tarbiyalanib, parvarish qilinadi. Xuddi shu kabi safo, ezgu xulq, ma'rifat, sirlarni anglash va nur zuhuroti odamning taqdirida mavjuddir.

Orif kishi bilan suhbatda inson darajasi parvarish topib, to'la zohir bo'ladi. Ey darvesh, senda avval boshdagi va oxiridagi ilmu ma'rifat yashiringan nimaki izlasang, o'zingdan izla, nega tashqaridan qidirasan?

Quloqlaring orqali yurakka yetib boradigan bilim, bu xuddi boshqalar qudug'idan olingan suv kabidir, u bilan chanqoq yeringni sug'ormoqchisan, ammo bu suv turmaydi, boz ustiga, u sening qudug'ingda to'xtab turmaslikdan tashqari, tezda aynib qolib, ko'p badbo'y va kasalliklar tug'diradi.

Ey darvesh, bu kasallik takabburga aylanadi va mansabu joh muhabbatini kuchaytiradi “O’z ko’zi bilan ko’rgan narsadan ko’ra (ishonchliroq) xabar yo’q”. shunday qilki, o’z qudug’ingni suvi bo’lsin va undan qancha olsang ham, boshqalarga qancha bersang ham, u kamaymasin, u qanch ko’p tursa, shuncha tozalansin va og’ir dardlarga bag’ishlansin. Ey darvesh, odam qanday bo’lishidan qa’tiy nazar, bu “quduq” zohirda ko’rinmay turadi. Ana shu “quduq”ni tozlab, suvni ko’rinadigan qilishi kerak.

Ey darvesh, agar sen o’zingni maqomlar chegarasiga olib kelolmasang, o’z maqomlaring sifatini kundan kun kuzata olmasang va “ko’z ko’rolmaydigan, quloq eshitaolmaydigan va inson yuragi bilolmaydigan” narsani uzliksiz ko’rolmasang va Xaq taolo huzurida indiyat (yaqinlik) maqomida oliy jannatda bo’lolmasang, Xoliqi Mavloniy idrok etishga jahd qil, Uning jamoli bilan uchrashishga intil, toki o’z borlig’ing do’zohidan qutilib, Xudovand borlig’i jannatiga erishasan.

Ey darvesh, tuz qopiga tushgan narsa tuzga aylanadi, ifloslikka tushgan narsa iflos bo’ladi, zero nopok va paliddan nopok va palid tug’iladi, safodan safo hosil bo’ladi. Sendan tug’ilgan narsa sof bo’lishi uchun avval o’zingni pok etishing kerak. Ey darvesh, ifrotiy (haddan oshiq) ro’za va nomozga berilib, ketma ket hajga borma, buyurgan farzni ado etish bilan cheklan. Ko’p so’z va gaparni yodlashni odat qilma, fiqhni berilib o’rganishing ham, ko’p hikmat bilishning ham foydasi yo’q, kerakligini bilib olsang, bas.

Ammo shunday yo’l tutginki, qalbing sahovat va hikmatga to’lgan bo’lsin, ezgulik sohibi bo’lgin, zero do’zax ahlining azobi yolg’on va qalloblik nuqsonlaridan kuchayadi. Sening qalbing haqgo’ylik (rostlik) va ezgulik bilan bezansin, toki inson deganda ulug’ nomga munosib bo’lsang do’zax azoblaridan qutilasan, illo agar buni ehtiyoj yuzasidan qilayotgan bo’lsang, joying do’zaxdan bo’lsin. Shunday bo’lgilki, sendan beixtiyor hamisha yaxshilik va sahovat yog’ilib tursin, hamma vaqt yovuzlik va haqorat yog’diradigan kishilardan bo’lma, chunki ularning haqiqati (tabiati) hamisha nohaqlik va zulm, noxushlik ijod qilishdir. Sening haqiqating (mohiyating) to’g’rilik va xayrli ishlar ijod

qilish bo'lsin. Ey darvesh, hech bir mukofot talab qilmay minnatdorchiliklar kutmay, aksincha, o'zingni burchli deb bilib, yaxshilik ijod qilib, hamma vaqt, hamma uchun ezguliklar yaratganingdagina sen Ilohning xulqi bilan muzayyan etilajaksan.

Zero, kimki hamisha odamlarga farog'at tilasa va odamlar uchun farog'at keltirsa, o'sha sahovatli qalb egadir. Bunday odam hech kimga xizmatini darig' tutmaydi, tili, qo'li, moli bilan o'zgalar yordamiga shoshiladi. Hamma vaqt odamlarni qiynashni odat qilgan, odamlarga azobu zulmni ravo ko'ruvchi, tili, qo'li bilan ozor beruvchilar qalbi nuqsonli odamlardir.

Yaxshilik va yomonlik, xayru sharrning ma'nosini bilding, endi shuni bilgilki, kimni qalbi ezguli bo'lsa, u do'zax azobidan qutilib, jannat ahliga qo'shiladi. Do'zaxdan xalos bo'lib, jannat ahliga aylangan har bir kishi oliy maqomlarga intilishi mumkin, zero, qalb kamolotiga erishib, jannatiy bo'lganlarning hammasi jannatni kengaytiradilar, qalbi nopok, nuqsonli kishi nimaki qilmasin, bu dunyoyu oxirati torayadi, jannatiy odam nimaki qilmasin, uning dunyo va oxirati kengayadi.

2.3Aziziddin Nasafiy makromuhitning(olami kubro) tutgan o'rne haqida.

Ey darvesh, Alloh sening dunyo va oxiratingni obod qilsin. Bilgilki, olam zot va sifatlarning ismlaridan iboratdir. Zot (javhar) va sifatlarni jamlab olam deyilar va zot bilan sifatlarning Har birining ko'rinishi qismlari ham olam deb nomlanadi. Olam o'zining avvalida ikki qismdan iborat: birinchi qismini olami g'ayb (yashirin olam), ikkinchi qismini olami shuhud (ko'rinadigan) deb aytadilar. Bu har ikki olamini miqdoriy va qulliy (umumiy, yahlit) ma'nolarda turli nomlar bilan tilga oladilar. Masalan: xoliqiyat olami amr olami, mulk olami va malakut olami, jism olami, va ruh (jon) olami, hislar olami nur olami, va soya (zulmat) olami va shu kabilar. Bu nomlar har ikki olam olami g'ayb va olami shuhidga ishoradir.

Shuni bilgilki, ulug' olamning boshi bitta javhardan iboratdir, xuddi, shu kabi kichik olamning boshida ham bitta javhar yotadi. Ulug' olamning ul javhari ulug' olam urug'i bo'lganiday kichik olamning ul javhari kichik olamning urug'idir. Qat'iy o'qib ol: bu ikki olamda nimaiki paydo bo'lsa, u o'shal urug'larda mavjuddir. Bu aytilganlar senga ravishda bo'lgan bo'lsa, endi anglagilkim, kichik olamning asosidagi javhar nutfa (urg'u)dir va kichik olam bilan ulug' olamning har ikkisi urug'dan paydo bo'lgan. Kichik olamda amalga oshiriladigan ishlarning jami urug'da allaqachon mavjud bo'lmagan (ya'ni amalga oshirilmagan) narsa bo'lmaydi. Kichik olam javharini bilganingdan keyin bilgilki, ulug' olam javhari haqida har xil fikrlar bor. Ammo, agar munozara mavzuini bayon etib, ehtirolarga tutqun bo'lmay, bu dengizga kirib borilsa, ziddiyatlarning yo'qolishi muqarrar.

Ulug' olam haqida va Ulug' olamning Tangri Taolo Rabbil Olamin tomonidan yaratilishi haqida shariat ahlining fikrlari Bilgilki, shariat ahli ikkita vujud to'g'risida gapiriladilar. Birinchisi- vujudi qadim (ya'ni azaliy vujud), ikkinchisi vujudi xolis (ya'ni dunyo), Vujudi qadimning boshlanishi yo'q, ammo vujudi xodisning boshlanishi avvali bor. Bu zohir ahlining fikridir. Va bunda ziddiyat ham yo'q, zero borliq (vujudiyat) ikki vaziyatdagina bo'lishi mumkin: yo u azaliydir, yoki azaliy emasdir.

Agar u azaliy vujud bo'lsa, abadiy vujud ham bo'ladi. Agar uning boshlanishi bo'lsa, demak, u o'tkinchi-foniy vujud. Har ikki vujudni bilganingdan keyin bilgilki, azaliy va abadiy vujudni Xudo deydilar, Xudo olam emas va olam Xudo emas. Xudo olamning Halloqi (yaratuvchisi) na olam- Xudoning ijodi. Halloqi olam munosib ta'rifli sifatlariga egadir va u munosib sifatlardan xolidir. Shariat ahlining fikricha, Xoliq olamni yaratishda ham, xoxlasa, uni barbod etishda ham iroda-ixtiyori o'zidadir.

Ey, darvesh endi bilgilkim. Shariat ahli deydilarki, Tangri subhonahu taolo ilk da'fa bir javhar yaratdi. Uning nomi Nafsi avval (Ruhi avval)dir. Tangri subhonahu taolo mulk va malakut olamlarini yaratishni iroda etib, javharga nigoh tashladi, ul javhar eriy boshladi va ko'pirdi. Yoki o'shal javharning mohiyati (mag'zi) va qaymog'i edi, eritilgan shakar qismi kabi ajralib chiqdi va qayg'usi pastga cho'kdi. Halloqi olam o'sha javharning qismidan ruhlar olamining darajalarini yaratdi, qayg'usidan esa jismlar olamini vujudga keltirdi.

Ruhlar olami o'n kun darajada yaratildi, avvalgi gavhar bilan o'n to'rtta bo'ldi. Ruhlar olamining o'n uchta ekanining dalili jismlar olamining ruhlar olamiga nisbati, ya'ni u ham o'n uchtadir. Zohid olami botin olamining belgisidir. Ey, darvesh, deydilarki, mulk malakutga o'xshaydi va malakutning asosi jabarut, ya'ni mulk orqali malakut va malakut orqali jabarutni isbotlash mumkin.

Ruh – javhardir, u jismni harakatga keltiradi, va takomillashtiradi. U tabiatga muvofiq, o'simlik darajasida, harakat (iroda) ga muvofiq, hayvon darajasiga zuhur etadi. Soddaroq aytganda, ruh latif javhar u maydalanmaydi va a'zolarga bo'linmaydi. Chunki u ruh amr olamidandir va xatto o'zi amrdir. Jism qattiq va dag'al javhar, u maydalanadi va qismlar (a'zolar) ga bo'linadi. Jism maxluqot olamidandir.

Ruhning ma'nosini bilganingdan keyin, ruh darajalarini ham bilib ol. Tangri subhonahu taolo ruhlar olamini yaratishni ixtiyor etib, o'z nigohini (javharning) shaffof qismiga qaratdi va ul qism qaynab erib boshlaydi. Shu

qismning qismi (mag'zi) va qaymog'idan payg'ambardir Xotami (xulosasi) ruhini yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan qolgan payg'ambarlar ruhini yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan avliyolar ruhini yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan ahli ilmu ma'rifat ruhini yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan zohidlar ruhini yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan taqvo ahli ruhini yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan ahli imon ruhini yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan odamlar ruhini yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan hayvonlar ruhini yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan o'simlik ruhini yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan ma'danlar va ashyolarni yaratdi. Har bir ruh bilan birga ko'p sonli farishtalarni yaratdi va malakut olami, shu tariqa yakun topdi.

Bilgilki, Tangri subhonahu taolo jismlar olamini ham yaratishni istab, o'z nigohini quyqa qoldiqqa qaratdi va ul quyqa qoldiq qilib qaynay boshladi, Uning mag'zi va qaymog'idan Kursi (Taxt) ni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan yettinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan oltinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan beshinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan to'rtinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan uchinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan ikkinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan birinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan olovni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan xavoni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan suvni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan tuproqni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan boshqa jismlarni yaratdi. Mulk va malakutdagi yaralmish yigirma sakkiztadir. O'n to'rttasi mulk, o'n to'rttasi malakut olamida. Murakkab jismlar uchta, ya'ni ma'dan jismi, o'simlik jismi va hayvon jismi.

Ey, darvesh, sodda jismlarning mulk va malakut olamida yigirma sakkizta ekaniga hech bir shubha yo'q. Ammo ruhlar olami avvalmi yoki jismlar olami, avval mabda' (chiqish joyi), keyin maod (qaytish joyi) mi, yoki avval maod, so'ngra mabda'mi avval oliy daraja paydo bo'lib, tartib bilan quyi darajalarga qarab borildimi yoki avval quyi darajalarga qarab borildimi yoki avval quyi daraja paydo bo'lib, keyin birin ketin yuqori darajalar kelib chiqdimi, degan masalalar ustida qarama-qarshi fikrlar bor. So'zni cho'zib maqsaddan uzoqlashmaylik.

Ruh darajalari va jism darajalarining har biri o'z-o'zidan maqom topdi. Ya'ni, Arsh-payg'ambari Xotam g'ururining maqomi, Qursi-ululazm payg'ambarlar ruhining maqomi manzili va hujrasi, oltinchi osmon anbiyo ruhi maqomi, beshinchi osmon avliyo ruhi maqomi, to'rtinchi osmon hakimlar ruhi maqomi, uchinchi osmon-zohidlar ruhi osmoni, ikkinchi osmon - taqvo ahli ruhi maqomi, birinchi osmon imonlilar ruhi maqomi, shu tariqa osmonning to'qqiz darajasi tugal yakun topdi. Ammo yana to'rt daraja qoldi, ya'ni qolgan odamlar, hayvonlar, o'simliklar va jirm (jism)larning ruhlari. Ular yuqori olamdan ham, quyi olamdan ham emas. Ammo jirm (modda) quyinlarning quyisidir. Demak, pastga – tubanlikka tushib boriladi va (shu orqali) o'zini tanish va bilish kerak, o'z Rabbini tanish va bundan yuqoriga qarab taraqqiy etish, o'zining dastlabki (asl) maqomiga yetish demak. O'z maqomini egallash bilan uruj ko'tarilish tugallanadi va uning doirasi berkiladi. Doira berkilgach, ko'tarilishning, iloji yo'q, undan nari ko'tarilish - taraqqiyot bo'lmaydi. Yo'lda to'xtab qolish mumkin, ammo o'z maqomidan o'zib ketish mumkin emas. Agar yo'lda to'xtab qolish (ushlanib qolish) mumkin bo'lmaganda, Kalomullohning nuzul etilishi, payg'ambarlarning yuborilishi foydasiz bo'lib qolardi. Ruhlar va jismlar olamini yaratgandan keyin Parvardigor uch farzand: ma'dan, o'simlik, hayvonni yaratdi, so'ng nihoyasida Odamni yaratdi. Odam va havvo qissasi mashhurdir, biz ushbu risolada bu qissani keltirmadik. Keyin odam atoning bolalari paydo bo'ldi va ko'payib bormoqda, ular asta-sekin kamol

topmoqda va har biri ilk maqomi tomon intilmoqda, ularning o'z doirasi yakunlanguncha rivojlanishda davom etadi. Bu shuni ko'rsatadiki, har bir kishining kamoloti ilk maqomi sari harakat qilish, bu yo'lda jiddu jahd ko'rsatishdir. Ushbu maqomni egallash va yo'lda qolib ketmasdan ilgari borishdir.

Bilgil, ushbu to'rt daraja azaldan yaratilgan, ular kasb etilgan (hislat) emas. Va rabbil olamining yaratilish ishida targ'ibot – o'zgarish sodir bo'lmaydi. Imom Abu Xanifa mazxabining talqini shunga qoimdir. Chunki Alloh taoloning xislati shunday va barcha odamlar shu hislatga muvofiq yaratilgan va bu darajalar ruhlarning darajalaridir. Agar darajalar kasbiy bo'lganda edi, unda har bir kishi o'z maqomidan o'zib istalgan daraja-maqomga ko'tarilaverardi, yuqori maqomlarni egallayverardi va avliyolar anbiyolar rasullar maqomini egallagan bo'lardi. Boshqa maqomlar kasbiy emas, (ularni) sa'y-harakat bilan egallab bo'lmaydi. Ular yaratilganda (har bir toifa uchun) nasib etilgan ulushdir. o'lda dam olish, to'xtab qolish mumkin, lekin o'zining azaliy maqomini osib o'tib ketolmaydi.

Ey, darvesh, mana sen ruhiy darajalarni bilding shuni ham bildingki, ular qanday yaratilganu qanday holatda bo'lsa, shundaydirlar- taqdiri azalni o'zgartirib bo'lmaydi, o'z maqomidan o'zib ketish mumkin emas, ruhlar bu olamga keladilar, (ammo) o'z so'zlari va ishlarida o'zgarishsiz qoladilar. Ularning har birida avvaldan ma'lum me'yor bor, undan oshib ketish mumkin emas.

Bu shuni ko'rsatadiki. bu dunyoga kelgan Har bir ruh muayyan chegaraga ega bo'ladi va avvalgi ma'lum maqomi bo'yicha uning jism ichra qancha bo'lishi, qancha nafas olishi, qancha yeb ichishi, qancha so'zlashi, nimalarni o'rganishi va o'ylashi hokazolar oldindan belgili bo'ladi. Xaqning irodasi va ilmidan tashqari daraxt yaprog'i qimirlamaydi yoki odam biron narsani niyat qilmaydi. Ey, darvesh, ammo bu fikr g'oyat ishtibohli. Shariat ahli garchand odamning o'z faoliyatidan ixtiyorsiz ekani borasida to'g'ri (fikrlarini) aytsalar-da, lekin ular nazlida barcha mavjud

narsalar Xaqning irodasi va ilmi tufaylidir. Xaqning ilmi va irodasiga zid hech bir narsa sodir bo'lmaydi (deydi ular). Demak, barcha odamlar nutqda (so'zda) va harakatda ixtiyorsizdirlar. Bu fikr bilingan narsa (ma'lum) ilmga bo'ysunadimi yoki ilm ma'lumga bo'sunadimi, degan masalaga asoslanadi. Shariat ahli fikricha, ma'lum ilmga bo'ysunadi. Demak, (shunga ko'ra) hamma narsaning oldindan ma'lum me'yori bor va undan oshib o'tib bo'lmaydi. Tangri taolo azalda qanday belgilangan bo'lsa, shunday bo'ladi. Ahli Hikmat (ya'ni faylasuflar) fikrlari ko'ra, ilm ma'lumga (bilib olinganga) bo'ysunadi. Binobarin, odamlarning so'zlari va faoliyati ishlari uchun oldindan belgilangan o'lchovlar yo'q. Bilim va boylikka ega bo'lish odamning sa'y-harakatiga bog'liq: odam qancha ko'p g'ayrat qilsa, bilimi va darajasi shuncha ortadi. Yaxshilik yoki yomonlik qilish, kam yeyish yoki ko'p yeyish – inson ixtiyoridagi ish, u qancha mehnat va kuch sarflasa, shuncha imkon topadi.

Bilgilki, imon maqomidagi ruh jismni tark etsa birinchi osmonga qaytadi, taqvodorlik maqomidagi jismni tark etgan ruh ikkinchi osmonga qaytadi. Boshqa maqomlar haqida ham shunday. Har bir ruh o'zi tark etgan maqom-manziliga qaytadi va biror ruh jismdan ajralgandan keyin o'z maqomini qo'yib boshqa yuqoriroq maqomga ko'tarila olmaydi. Bu – to'qqiz darajaning holati. Ammo kimki bu jismda imon maqomini qozonmagan bo'lsa, u qaysi darajadan bo'lmasin, osmonga qaytmaydi. Ey darvesh, kimki imon maqomini qozonmagan bo'lsa, u payg'ambarlarni tan olmagan va avliyolarga erishmagan, garchi surati odamlarday, biroq hislat va xulqiga ko'ra odam emasdir, u hayvon jumlasidan. Chunki, hayvonlar uchun asliyat olamiga yo'l yo'q, zero yuqori olam gunohsiz, pok insonlarning xujrasi va manzili, ahli tahorat va farishtalar joyidir. Ma'rifatli va taqvosiz odam yuqori olamga muyassar bo'lmaydi. Ey, darvesh, agar sen boshlang'ich javhar - ruhi avvalni Odam deb atasang, xaqlican, chunki qolgan barcha avlodlar ruhi unda mavjud edi, barchasini undan (Odamdan) oldilar va so'radilar: “Alastu birabbukum?” (Men sizning Rabbingiz emasmanmi?) Kimki “ha” dedi, u –

oliy, “ha” demaganlar imon maqomiga ham yetolmaydilar. Madomiki, ruhi avvalni Odam derkan, undan ajralgan qoldiqni Havvo deydilarki, bu ham to’g’ridir. Odam va Havvo (aql) daraxtiga yaqinlashganlaridan keyin jannatdan chiqarildilar. Demak, jannatning ham, daraxtning ham o’z darajalari mavjud. Ya’ni o’tkinchi jannat va abadiy jannat.

Shariat ahli fikriga ko’ra, ulug’ olamda farqlar aynan shunday paydo bo’lgan, ammo uruj va nuzul (yuqorida) aytilganiday bo’ladi. Biroq tasavvuf ahli bundan boshqa uruj va nuzul bor, deydilar.

Ey darvesh, zikr etilgan – uruj ko’tarilish va nuzul – tushish haqida bilding, endi shuni ham esingda tutki, anbiyo va avliyoning uruji tabiiy o’lim yuz bergunga qadar sodir bo’ladi. Boshqalar tabiiy o’limdan keyin ko’radigan narsalarni ular tabiiy o’lingacha ko’radilar, ularga o’limdan keyingi holatlar ma’lum bo’lib, ular ilmul yaqin darajasidan aynul yaqin darajasiga o’ta oladilar. Modomiki, odamlarning pardasi ularning jismi ekan, ruh jismdan chiqqan paytda uning oldida hech bir parda – to’siq turmaydi. Anbiyolarning uruji ikki xil bo’ladi: yoki faqat ruhning o’zi jismsiz ko’tarilib boradi, yoki ruh yoki jism birga ko’tarilib, (parvoz etadi). Avliyolarning uruji esa bir xildir – ular faqat jismdan ajralgan ruh orqali ko’tarila oladilar. Endi shuni ham bilginki, ushbu narsalar haqida gapirib, biz kamolot va urujni bayon etishni maqsad qilganimiz yo’q. Payg’ambarlar me’rojini-da hikoya qilish maqsadimiz emas, zero hazrati Payg’ambar me’roji (hammaga) ma’lum. Bizning maqsadimiz soliklarni taqdirlash va ogohlantirish, toki ular zuhd va taqvo, riyozat (paytida) ehtiyotsizlik qilmasinlar, saodatga erishish, halovatga musharraf bo’lish yo’lida to’xtab qolmasinlar, olg’a qarab intilsinlar. Tangri taolo huzurida mag’rifat topsinlar.

Ey, darvesh, solikqa o’lmasdan burun istiqboldagi (abadiy) hayotning muyassar bo’lishi ulug’ ne’mat. Odamlar buni bilmaydilar, agar bilganlarida tiriklikda abadiy hayot holati yuz berishi uchun, o’z maqomlarini idrok etish uchun tun-u kun jahd qilardilar. Solik kishi quyidagi uch narsaga alohida ahamiyat beradi: birinchisi suluk (tariqat yo’li), ikkinchisi jazba

(ishq), uchunchisi uruj (ko'tarilish). Kimdaki bu uch narsa u shayx ham, murshid ham bo'la oladi. Ammo bu sifatlari bo'lmagan odam murshid bo'lishga loyiq emas. Sulukka xos narsa – harakat, intilishdir. Jazbaga xos narsa – tortilish, zavqu shavqdir. Urujga xos narsa – karam va sahovatdir.

Gap cho'zilmasin va maqsaddan chetlamaylik. Tasavvuf ahlining ushbu ko'tarilish (uruj) dan maqsadlari quyidagicha: solikning ruhi solik salomat hamda bedorlik holatida jismidan chiqib, o'limdan so'ng yuz beradigan holatlarni tirikligida ko'rsin, toki u do'zaxni jannatni ko'rib, jahannam va bihishtdan ozuqalanuvchilarni bilsin, toki u ilmul yaqin martabasidan aynul yaqin martabasiga o'tib, ko'rganlarning mohiyat haqiqatlarni anglab yetsin. Falakka uruj qilgan ruh o'z maqomigacha ko'tariladi. Qolgan ruhlar ham shu tariqa to Arshi A'logacha, ya'ni Xotamul-anbiyo maqomigacha yetib boradi va o'zining ilm maqomiga yetib boradi va o'zining ilm maqomi – asl vatanini chetlab o'tolmaydi. Har bir ruh vujudga qaytgandan keyin nimaga erishgan va (nimani) ko'rgan bo'lsa, barini xotirasida saqlab qoladi. Ba'zi birlarining ruhi ko'kda bir kun qolib, osmon aylanadini kezip chiqadi, keyin o'z jismi-vujudiga qaytadi. Boshqasining ruhi osmon falaklarida o'n kungacha qolib ketadi. Bizning shayximiz deydi: mening ruhim u yerda o'n kungacha qolib ketadi. Shundan keyin tanamga qaytdi, tanam esa harakatsiz, hayotsiz turib qoldi. Ruhim qaytib kirgandan keyin tanam o'rnidan qo'zg'aldi, ammo-u faromushlikda qancha vaqt turganini bilmasdi, bu xolni ko'rganlar: o'n uch kundan beri sening vujuding shu holatda turdi, deb xabar berdilar.

Boshqa bir mo'tabar zot ruhi samolarda o'n kun qolib ketgani va keyin vujudiga qaytib kirganini hikoya qiladi. Uning ruhi o'n kun ichida ko'rgan jami narsalarini xotirasida saqlab qolgan ekan. Ammo, aytilganiday har bir kishining ruhi o'z maqomigacha ko'tariladi. Va yana deydilarki, oxirgi payg'ambar bilan oxirgi valiyning ruhi Arshi A'logacha ko'tarilib boradi. Bu toifa ushbu (darajadagi) valiylikni Ali martabasi deyдилar, ya'ni masalan, xazrati Alining martabasi hamma martabalardan

baland. Bu toifa valiylikning xatto rasul va anbiyo rutbasidan ham yuqori deb hisoblaydilar.

Ey darvesh, zikr etilgan – uruj ko'tarilish va nuzul – tushish haqida bilding, endi shuni ham esingda tutki, anbiyo va avliyoning uruji tabiiy o'lim yuz bergunga qadar sodir bo'ladi. Boshqalar tabiiy o'limdan keyin ko'radigan narsalarni ular tabiiy o'lingacha ko'radilar, ularga o'limdan keyingi holatlar ma'lum bo'lib, ular ilmul yaqin darajasidan aynul yaqin darajasiga o'ta oladilar. Modomiki, odamlarning pardasi ularning jismi ekan, ruh jismdan chiqqan paytda uning oldida hech bir parda – to'siq turmaydi. Anbiyolarning uruji ikki xil bo'ladi: yoki faqat ruhning o'zi jismsiz ko'tarilib boradi, yoki ruh yoki jism birga ko'tarilib, (parvoz etadi). Avliyolarning uruji esa bir xildir – ular faqat jismdan ajralgan ruh orqali ko'tarila oladilar. Endi shuni ham bilginki, ushbu narsalar haqida gapirib, biz kamolot va urujni bayon etishni maqsad qilganimiz yo'q. Payg'ambarlar me'rojini-da hikoya qilish maqsadimiz emas, zero hazrati Payg'ambar me'roji (hammaga) ma'lum. Bizning maqsadimiz soliklarni taqdirlash va ogohlantirish, toki ular zuhd va taqvo, riyozat (paytida) ehtiyotsizlik qilmasinlar, saodatga erishish, halovatga musharraf bo'lish yo'lida to'xtab qolmasinlar, olg'a qarab intilsinlar. Tangri taolo xuzurida mag'rifat topsinlar.

Dunyo oxir bo'lib qiymat boshlanganda, har bir odam jismining a'zolari yig'ilib, jism tiklanadi va Har biriga o'z ruhini kiritadilar. Osmonlar jiplashadi va yer o'zgaradi, barcha odamlar Maxshar maydoniga keltiriladi. Va har bir kishining gunohu savobi hisob qilingach, hammani do'zaxga tashlaydilar. Imonu dini borlar, solihlarni do'zaxdan chiqarib, jannatga kiritadilar, ular jannatda abadiy istiqomat qiladilar. Imonsizlar va zolimlarni do'zax qa'riga uloqtiradilar, ular unda abadiy azobdadirlar. Gunohkorlarni gunohlari miqdoriga qarab azoblaydilar, keyin do'zaxdan chiqarib, jannatga yo'llaydilar, ular jannatga abadiy turadilar. Yuqoridagilar shariat ahli fikrlaridir. Ba'zi ulamolar (shariat ahlini) zohirbinlar deb ataydilar.

Hikmat ahlining ulug' olam borasida fikrlari va ulug' olamning qanday paydo bo'lganligi haqida Bilgilki, hikmat ahli ham ikki xil vujudning mavjudligini tan oladilar. Bu vujudlarning biri (ular fikricha) - azaliy, ikkinchisi o'tkinchi. Azaliy va abadiy vujudni ular o'z mohiyatiga ko'ra vojibul vujud (zaruriy mavjudlik) deb ataydilar, o'tkinchi mavjudlikni, mohiyatiga ko'ra, olami imkon (yoki vujudi imkon) deb ataydilar. Mavjudlik (borliq) shu ikki holatda bo'lishi mumkin yoki mavjudlik (manbai) uning o'zida, yoki undan tashqaridalar. Agar uning borlig'i manbai-sababi undan tashqarida bo'lmay, uning o'zida bo'lsa, uni haqiqatda – zaruriy borliq (vojibul vujud) deydilar.

Vojibul-vujud Rabbul olamindir, imkoniy vujud Tangri taolo yaratgan olamdir. Vojibul-vujud najib va hamida sifatlar bilan sifatlanadi. U noliyiq sifatlardan pokdir. Hikmat ahli fikricha, vojibul-vujud mohiyatan sabab hamdir. Xuddi quyoshdan chiqqan nurday yoki natija sababdan hosil bo'lganiday olam uning mohiyatidan paydo bo'lgan. Toki Quyoshning xalqasi yonib turarkan, uning yog'dusi tugamaydi, toki birinchi sabab vujudi mavjud ekan, natijaning vujudi ham mavjud bo'laveradi.

Endi shuni ham bilgilki, Hikmat ahli fikriga ko'ra, Tangri taolo Xoliqu Qudsiydan birinchi paydo bo'lgan narsa javhar – aqli avvaldir. Aql – sodda javhar. Javhar yaxlit bo'lib, bo'laklarga bo'linmaydi, uning a'zo qismlari yo'q. Hikmat ahli deydilarki: bir sonidan bir paydo bo'ladi. Demak, haqiqiy vaxlat bo'lgan Tangri taolo Halloqi Qudsiydan haqiqiy birlik paydo bo'lgan. Mana shuning o'zi aqli avvaldir. Ushbu haqiqiy birlik – vaxlat bo'lgan aqli avvalda aqlning mohiyati – natijasi sifatida miqdoriy va sifatiy kasrat – ko'priklar hosil bo'lgan. Bu ham aql sababining natijasi, ham sabab va natija (ma'lum) orasidagi vositachidir. Oqibatda aqli avvalda uch e'tibor (sifat) paydo bo'ladi va aqli avvaldagi har bir e'tiborda jon, aql va osmon yuzaga keladi. Aqli avvaldan so'ng to'qqiz aql, to'qqiz jon va to'qqiz osmon paydo bo'ldi. Shundan keyin oy osmoni ostida olov unsuri va olov tabiati, havo unsuri va suv tabiati, tuproq unsuri va tuproq tabiati paydo bo'ldi. Ular

otalar va onalar kabi. Bu ota-onalardan uch farzand yaratildi, ya'ni ma'dan, o'simliklar va hayvonlar. Nihoyat, eng so'nggida odam yaratildi, u komillika erishdi va aqli avvaldan aqli mavhumga ega bo'ldi. Nimaiki oxirda paydo bo'ldi, boshlanishda ham bor edi. Oqibatda o'zining boshlang'ich (nuqtasini) topgan doira nihoyasiga yetdi. Demak, aql boshlanish (ma'dan) ham, oxir (maod) hamdir, zero aql kelishiga qarab ma'ad, qaytishga nisbatan olinganda esa – oxirdir. Oxir avval bo'lgan qaytib kelinadigan joy. Boshlanish Laylatul-qadr kechasiga muvofiq, qaytish qiyomat kuniga to'g'ri keladi.

Ey, darvesh, aqli avval – qalam va Rasululloh, maxluqotning sababiyati va borliqning Odam Atosidir. U parvardigorning sifatlari bilan muzayyan etilgandir va shu sabab Tangri taolo insonni o'ziga o'xshatib yaratdi, deyishadi. Hikmat ahli fikricha, Tangri taolo – Halloqi olamdan faqat ahli fikricha, Tangri taolo – Halloqi olamdan faqat aqli avval paydo bo'lgan, qolganlar aqli avval mahsuli. Aqli avval Xudoning olami, qolgan barchasi – aqli avval olamidir. Aqli avvalning sababi–Tangrining o'zi, qolgan barcha (mavjudot) sababi aqli avval. Boshqacha aytganda, aqli avval Tangri taolodan – natija sifatida ajralib chiqqan, qolgan jami narsalar aqli avvaldan natija sifatidir. Aqli avvalning mullimi – Tangri taolo, aqli avval Tangri taolodan olganlarini boshqa maxluqotga beradi. Har bir aql o'zidan baland (aql)dan olib, o'zidan pastga uzatadi. Va ularning har biri parvardigorning na'mati-fayzidan bahramand bo'lib, baxshish-nasiba olib, yana qaytariladi. Vojibul-vujud beradi, ammo olmaydi, chunki o'zidan oliyroq yo'qdir. U mohiyatan pok va dono, muqaddas va bilguvchidir.

Bilgilki, aqli avval – vohid bir javhardir, biroq miqdoriy va sifatiy ma'nolarda ul javharni turli ismlar ila zikr etadilar. U hamma narsani idrok etuvchidir. Ushbu javharni tirik va tiriltiruvchi ruh deb nomladilar, zero, u tirik va hayot bag'ishlovchidir. Bul javharni qalblarga bunyod etuvchi (paydo qiluvchi) nur deb atadilar, zero nur – ko'rinadigan va ko'rsatadigandir, Bul javharni qalblarga ilmu ma'rifatli naqsh etuvchi qalam deb atadilar. Ushbu javharni olam ahlining rizqi-ozuqasi sabab va asosi deb bilguvchilar, uni Jabroil deb atadilar.

Ushbu javharni olam ahli hayoti sabab vositasi deb bilganlar, uni Isrofil deb atadilar. Ushbu javharni ash'yoning haqiqatiga yetib, ma'nosini anglaguvchi, deganlar uni Azroil deb atadilar. Xuddi shu javharda jami bo'lgan, bor va bo'ladigan narsalar mavjud edi, deguvchilr uni Lavhi Maxfuz (yashirin lavh) deb atadilar.

Agar ushbu javharni Baytulloh (Allohning uyi), baytulqadim (abadiyat uyi), baytulmuqaddas, baytulavval, masjidulaqso, desalar yoki xazrati Odam, muqarrab farishtalar, Arsh-A'lo, desalar ham xaqlidirlar. Maqsaddan chetlamaylik, demoqchimanki, g'ayb olamining aqlari va jonlari latif va oliyhimmat, bilimli va sofdirlar. Qay biri qanchalik baland, u shunchalar aqli avvalga yaqindir, ham fazilatli va himmatli, latif, bilimi va musaffoligi ham yuqoridir. Osmonlar to'g'risida shunga qiyos qilg'il: qaysi biri oily osmonga yaqin, u latif va qadrli. Nuzul paytida esa manba' (mabda') ga yaqinrog'i latif va qadrli, uruj paytida mabda'dan uzoq har bir daraja latifroq va qimmatliroq.

Zero, nuzul paytida loyqa tubanga cho'kadi, uruj paytida esa (loyqa) butunlay yo'qoladi. Yana deydilarki, soda (javharlar) mabda'dan har qancha uzoqlashsa, shuncha g'uborlashadi, murakkablar esa mabda'dan uzoqlashgan sari ulug'vor va qadrli bo'lib boraveradi.

Bilgilki, shariat ahli shuz' va kullni idrok etadigan, o'zini va parvardigorni taniydigan, biladigan insoniy haqiqatni inson ruhi, deydilar. Hikmat ahli esa bu haqiqatni inson joni deb aytadilar. Oldingilarni bilding, endi shuni ham bilgilki, shariat ahli odamlarning ruhi tanasidan oldin mavjud edi, deb ta'kidlaydilar. Bu haqda birinchi aslda aytilgan edi.

Hikmat ahlining fikriga ko'ra esa, odamlarning joni, tanasidan oldin mavjud bo'lmaydi va ularning jismdan (tanadan) oldin mavjudligi mumkin emas, ammo tanagacha jon imkon holatida mavjud bo'ladi. Aniq noayonlik mavjudlik topishi mumkin emas, xuddi shu kabi aniq mavjudlik ham noayonlik emas. Narsalarning paydo bo'lishi va yo'qolishidagi ma'no—bu imkon (olamidan) haqiqiy olamga va yana haqiqiy olamdan vahdatga o'tib turishidadir. Olamdagi jami' narsalar bo'lgan, bor va bo'ladiganlarning hammasi aqli avvalda

mavjud edi, deb yuqorida qayd etgan edik. Demak, aqli avvalda bo'lmagan narsani amalga oshirib bo'lmaydi. Binobarin, hamma aqlar va odamlarning jonlari aqli avvalda imkoniyat shaklida mavjud edi va ularning har biri o'z vaqtida vujudiy olamga kelib ko'rinish kasb etadi.

Ey darvesh, ba'zilar quyi olam jonlari va aqlarining manbai o'ninchi aql, ya'ni Oy falaki aqli, deydilar. Uning nomi aqli foil – yaratuvchi aqlidir. U quyi olamning boshqaruvchisi va suratlantiruvchi (shakl beruvchi) dir. Boshqalar bo'lsa, g'ayb olamining o'n aqlidan har biri quyi olam jonlari va aqlarining manba'i hisoblanishi mumkin, deydilar. Shuning uchun ham odamlar orasida katta farqlar bor. Oy falaki jonidan tushgan jon quyosh falaki jonidan tushgan jonga hech qachon barobar bo'lolmaydi. Odamlar o'rtasidagi farqlar ana shu aytilganlardan kelib chiqadi, ya'ni ular (jonining qaysi manba'dan tushgani va ham azminai arbaa (to'rt fasl)ning xosiyatidan kelib chiqadi. Baxt va baxtsizlik, zakovat va tundlik, qashshoqlik va boylik, ulug'vorlik va pastlik, umrning uzoqligi va qisqaligi va boshqalar – bularning hammasi fasllar xosiyatining alohida ta'siridir. Payg'ambarlar, avliyolar va donishmandlar bir ovozdan zamon va makonning hamma narsaga, ayniqsa, odamga kuchli ta'siri borligini tasdiqlaydilar.

Bilgil, shariat ahli falaklar (osmonlar) va yulduzlarda hayot, bilim, iroda, eshitish, va ko'rish qobiliyati yo'q, ularning harakati ixtiyorsiz bo'lib, bu dunyoga ta'sirlari iroda tufayli bo'lmasdan, xosiyat oqibatidir, deydilar. Ahli hikmat esa ularning dunyoga ta'siri iroda orqali ham, xosiyat orqali ham sodir bo'ladi, deydilar. Oldingilarni bilding, endi (shuni ham) bilgilki, aqlar (uqul), jonlar, falaklar va yulduzlar quyi olamga kuchli ta'sir etib turadi va quyi olamning barcha ishlari yuqori olam bilan mustahkam bog'liqdir. Bu gir aylanuvchi tegirmon tosh kabi, lekin o'zi don yetishtirib, o'zi un qiladi, o'zi hayot bag'ishlaydi. O'zi hayotdan maxrum qiladi etadi, o'zi boylik va martaba berib, yana o'zi ularni tortib oladi. Baxt va baxtsizlikning sababi, tiriltirish va jondan judo qilish Uning ishi, zero ushbu tegirmon toshining aylanishi Xaqning qazovu qadaridir (taqdiridir). Sen hamma narsa Xaq taoloning

qazovu qadariga bo'yinsunishini eshitding, ammo qazo-qadar nimaligini bilmaysan.

Ey darvesh, Tangri taoloning hukmi, qazosi, qadari boshqa narslardir. Bu nomlarning ma'nosi bir xil emas, nomlanishlarning haqiqati har xil.

Uning azaliy bo'lgan ilmi – Uning hukmi: Uning bilimi orqali yaratganlari - Uning qazosidir va yaratgan narsasining aylanishi (harakati) qadardir. Qadar Xalloqi olamning bu dunyodagi faoliyatidir. Demak, (bu dunyodagi) jami' ishlar qadar bo'yicha bo'ladi. Ammo agar sen tushunmasang, boshqa so'zlar bilan izohlab beray.

Ey darvesh, Uning ilmi Uning hukmidir. Sabablarning yaratilishi Uning qazosi, sabablarni Harakatga keltirish esa Uning qadaridir: buning ma'nosi shuki, bu olamdagi jami' sabablar birgalikda Uning qazosining haqiqatini tashkil etadi, ammo bu sabablarning jami' harakatlari birgalikda olinganda – Uning qadaridir. Endi senga shu narsa aniq bo'ldiki, Uning qadarisiz (taqdiri azalsiz) bu olamda hech narsa sodir bo'lmaydi. Binobarin, dunyodagi barcha narsa – Xaqning qadari bilan bo'ladi. Qadarning ma'nosini bilganingdan keyin, endi bilgil, agar qadar (taqdir)ni o'zgartirish mumkin emas, deb aytsalar ham to'g'ri, chunki ba'zilar qadarni o'zgartira oladi, ammo umuman olganda, uni o'zgartirib bo'lmaydi. Ammo qadarni o'zgartira oluvchilar bu ishni qadar bo'yicha qiladilar. Qadarni faqat qadar bo'yicha o'zgartirish mumkin. Masalan, deylik, biron ko'proq asal yeb qo'yib, yuragi quydi va isitmasi chiqdi va o'lim xavfi paydo bo'ldi. Shunda tabib unga bir payola kafur berdi va natijada uning issig'i tushib (kasal) tuzalib ketdi. Bu issiq Xaqning qadari ekanligiga hech bir shubha yo'q, demak qadarni qadar bo'yicha o'zgartirish mumkin ekan.

Shunday bo'ladiki, yaqin joyda kasalni davolaydigan xoziq tabib bo'lmasa-chi? Unda kasalni daf' etish qiyinlashadi, isitma cho'zilib ketib, bemorning badanidagi kerakli namlik qurib qoladi. Bilgilki, yoritgichlar va osmonlar ham shunday ta'sirga ega. Masalan, yoz kelib, havo qizib ketadi, bu issiqlik – qadar bo'yichadir, faqat sardoba qurib, unga suv haydab saraton

issig'idan jon saqlash mumkin. Ammo yana qish kelib, sovuq boshlanadi. Bu sovuq taqdir (qadar)dandir. Va agar uy qurib, olov yoqilmasa, bu sovuqdan qochib qutulish mumkin emas. Ochlik, o'lat va shunga o'xshashlar haqida shuni bilgil. Ba'zan mumkin emas, ba'zan qadar ta'sirini qaytarish mumkin, ammo umuman olganda, qadarni o'zgartirib bo'lmaydi.

Ey darvesh, sen qilayotgan ishlarni tadbir deyдилar, ammo parvardigor amri ila bo'ladigan ishlarni taqdir deyдилar. Lekin agar haqiqatga diqqat qilsang, ularning Har ikkalasi, ya'ni tadbir ham, taqdir ham bir narsadir. Unisi ham, bunisi ham Xaqning qadari hisoblanadi. Zero agar kishi qadardan xalos bo'lolmasa, hakim, donishmandlarning fikri va zakiylarning tadbiri foydasiz bo'lib qoladi, nasihat va xaromdan ogohlantirishlar aytilmay qoladi, maslahat va extiyojkorlik ham befoyda bo'ladi. Bularning hammasi kunday ravshan va ayonligi tufayli ko'p hakimlar bu to'g'rida to'xtalmayдилar.

Ey darvesh, fikr va tadbirlar ta'sir kuchiga ega, ammo insonning himmati (intilishi) va orzusi bir sifatlarga ega emas. Ha, ko'p donishmand va solihlar farzand tarbiyalayдилar, o'z bolalarini o'zlariga o'xshashlarini xohlab harakat qiladilar. Ammo, yo'q aksincha ular (donishmandlarning bolalari) johil va fohish kishi bo'lib yetishadilar. Ha ko'p, qissaxon va xushovoz xonandalar bola-chaqa qilib bolalarini o'zlariga o'xshashlari uchun kuch sarflayдилar. Yo'q, aksincha ularning bolalari xokimlar va solih taqvodor shaxslar bo'lib yetishadi. (Demak) odamlarning orzulari va intilishlari ta'sirga ega emasligi aniq.

Agar odamning intilish va orzulari ahamiyatli bo'lganda edi, hech kim qashshoq va benavo bo'lmasdi. Hamma boy va badavlat bo'lar sog'lom, baxtiyor yashardi. Ammo yo'q. Agar kishi ishi ulug' himmatlar yo'lida bo'lsa, odamlarning faoliyati ta'sirli bo'ladi. Chunki ulug' niyatlar harakat va faoliyati ta'sirli bo'ladi. Chunki ulug' niyatlar harakat va faolliksiz ahamiyat kasb etmaydi. Binobarin, falon kishini o'z xohishi bilan dardga

giriftor etish yoki faloniy qaxringa uchrab o'ldi, deguvchi riyokor shayxlar aldaydilar.

Ey darvesh, anbiyolar ham, avliyolar ham, hukmlar ham ko'p narsa xohlagan edilar, ammo ular bo'lmadi va ular ko'p narsa xohlamagan edilar, lekin ular sodir bo'ldi.

Ey darvesh, Yer amalga oshmagan behad ko'p orzular joyidir, bitta ushalgan orzu, amalga oshgan ish ostida o'nta amalga oshmaganlari yotadi. Oriflar buni biyishtalik, orzulardan voz kechdilar, talvasani tashlab, osoyishtalik va tamkin-taslimni ixtiyor etdilar. Ey darvesh, kelishuv va qanoat, taslim va rizo – doridir va kimki bu dorini iste'mol etsa, do'zaxni chetlab o'tadi, taslim va rizo yo'lini tanlagan har odamning joyi jannatdir.

Garchi sen to'g'ri fikrning, xayrli tadbirning, sa'y - harakatning orqali dunyoviy ne'matlarga erishib, mol dunyo va mansabga ega bo'lsang ham, ertaga nima bo'lishini bilmaysan va bilolmaysan, sog'u salomat turasanmi, dardga chalinasanmi, ishlarning chappasiga ketadimi, iste'fo kutayapdimi seni – bilishing qiyin. Ertaga qanchadan-qancha shoxlar sarnigun bo'lib, qanchadan-qancha boylar qashshoqlarga aylandi, qancha qashshoqlar ertaga badavlat bo'ladi va qancha taxtdan ag'darilganlar ertaga podshoh bo'ladi.

Bu xuddi to'lqinlanayotgan dengizday gap, to'lqin bir naqsh bo'lib ko'tariladi, ammo u yo'qolmasdan yangi naqsh paydo qilib, oldingisini mavh etadi. Ey darvesh, bu so'zlarga quloq tutgan odam, ularni jon qulog'i bilan eshitsin va mustahkam esda saqlasinkim, rizo va taslim yo'lidan yaxshiroq yo'l yo'qdir.

Bilgilki, jon tanadan ajralgandan keyin agar u komillikka erishgan bo'lsa, uruj (asliga qaytib) asl, aqlar huzuriga qaytadi va g'ayb olami joni bilan qo'shiladi. Chunki inson joni (ruhi)ning kamoloti aqlari ma'rifat va safo sohibidirlar va doimiy ravishda ma'rifat egallab, nurafshonlik kasb etadilar.

Shu bois insonning vazifasi – uzluksiz ma'rifatga intilish va nur bilan to'ldirish va ilm topib, musaffolik sari intilishdir. Kimki bunga muyassar

bo'lgan bo'lsa, joni (ruhi) tanasini tark etgan zahoti falak olamining aqlari va joni uni o'zlariga jalb etadilar va shafolatning ma'nosi ham shudir. Falak olamidagi jon va aqlarning qaysi bilan munosabat bog'lagan bo'lsa, o'sha o'ziga tortib oladi. Agar quyi ruh (nafsi mulk) bilan alohida bo'lsa, uning marhamatiga erishib, shu holatda tana bilan xayrlashsa, Oy ruhi (joni)ga qaytadi. Ammo agar ruh bu holatda tanani tark etmagan bo'lsa va (odam) yana ko'proq ma'rifatga erishgan bo'lsa, poklansa va uning safosi (pokligi) rivojlanib, osmon ruhi bilan munosabat bog'lasa va uning marhamatiga musharraf bo'laturib, tanani tark etsa, uning ruhi osmonlar osmoni ruhiga qaytadi. Ibtido va intixoni bilding, qolgan darajalar haqida ham shunday qiyos qil, ya'ni inson qaysi ruh bilan munosabatga kirishsa, o'sha ruh uni o'ziga jalb etadi.

Odamlarning ruhi jismdan judo bo'lgach va falak olamiga yetgach, foniy markab (ot) lardan qutuladilar va abadiy markablarga minadilar va shu abadiy markablar ustida abadiy bo'ladilar va Har biri o'z maqomi me'yorida rohat va farog'atda turadilar.

Va har bir qobiliyatli odam taqvo va jihod bilan ma'rifat topib, ziyoga to'lishib, o'z ruhini osmonlar osmoni ruhiga munosib holatga keltirishi mumkin. Shunda uning ruhi jismdan judo bo'lgandan keyin osmonlar osmoni ruhiga qo'shila oladi. Ammo qobiliyatli bo'la turib, o'zini taqvo va jihod riyozatiga solmagan va ma'rifat nuriga erishmagan, ilmu safo topmagan ruh Oy osmoni ostida qoladi, bu esa do'zaxdir. Bunday ruh falak olami solihlar, taqvo va safo ahlining xujraji va manzilidir.

Ma'rifatli va safosi bo'lmagan odam uchun falak olamiga yo'l yo'q.

Ey darvesh, faqat sa'yi-qo'shish, jiddu bilan oliy martaba va darajalarini egallash mumkin. Agar odam ma'rifat va safo sohibi bo'lsa, falak olamiga yeta oladi va Har qancha ko'p ma'rifat, safo topsa, uning makoni shuncha baland bo'ladi.

Shunday qilib, hikmat ahlining fikri har bir kishining oldindan belgilangan maqomi bor va belgilangan maqomiga erishgach, uning doirasi

yakun topadi, doira yakun topgach esa, boshqa rivojlanish bo'lmaydi, deguvchi shariat ahli fikridan farq qiladi.

Bu fikr xato, chunki shariat ahli odamlarning ruhlari (jonlari) jismlaridan oldin haqiqatda mavjud edi, har biri bir maqomda turardi va ular tushib jismga kirib, yana undan judo bo'lgach, oldingi maqomigagina ko'tarila oladi, deb o'yladilar. Ahli hikmat fikricha esa, odamlarning joni tanagacha, haqiqatda mavjud emas edilar, demak jonlarining jismgacha maqomi yo'q, ammo endi jismga ega bo'lgach, har biri o'z qobiliyatli bo'lsa, qancha qo'shish etsa, kuch sarflasa, uning maqomi shuncha baland bo'ladi.

Har bir kishining maqomi uning ilmi va amaliga munosibdir. Har bir odamda ikki xil qobiliyat bor. Birinchisi to'rt fasl harakati ta'siridagi qobiliyatidir. U nasldan meros bo'lib, uni sa'y-harakat bilan egallab bo'lmaydi.

Ammo maqsaddan chalg'imaslik uchun so'zimizni muxtasar qilamiz. Ey darvesh, o'z ruhini oliy nuqtagacha olib chiqqan va osmonlar osmoni ruhi bilan aloqa bog'lab olgan har bir kishi ma'rifat va poklik (safo)ni oxirigacha yetkazib maqomlarning adog'igacha bora oladi. Insoniylik xaddi-chegarasini egallagan har bir kishi komil inson bo'ldi va kichik olamni yakunladi. Kichik olamni yakunlagach har bir olam Taoloning ulug' olamdagi halifasidir. Tangri halifasi majmuni akbar, iksiri a'zam, kibriti axmar, jomi jaxonnom va oinam getinamodir. Va ahli avval uning xabarchisi, payg'ambar uning dargohi bo'ldilar.

Ba'zan halifalar Xaq bilan aqli avval vositasida suhbatlashadilar, ba'zan aqli avval vositasiz Xaq bilan suhbatlashadilar. Halifaning ruhi jismlardan ajralgan zaxoti abadiy Qodiri rohmansir-rohim va Rabbil-olamin xuzurida farog'atu rohatga erishadi va Halloqi olamning qariyb (yaqin)laridan bo'ladi.

Bu tanlanganlarning jannati va komillar manzilidir. Bu jannatga kirgan har bir kishi rohatu farog'at ichra yashaydi. Qatra dengiz bilan

qo'shildi. Ushbu jannatning qolgan darajalari sakkizta. Bu darajalarda bo'ladiganlar, do'zax azobini ham chekmaydilar, chunki ular do'zaxni ko'rib o'tganlar va jannatning bir darajasiga erishganlar. Bular Parvardigori olamga yaqinlashishdan maxrumdirlar, ularda Tangri taolo huzurida bo'lish umidi ham yo'qdir, ular ayriliq o'tiga giriftordir. Jannatning bu sakkiz darajasi – komil bo'lmaganlar joyidir. Ulardan har birining ilmi va safosi qancha yuksalsa, uning jannatdagi martabasi shuncha balandlashadi. Hikmat ahli fikriga ko'ra ham, quyi olam – unsurlar va moddalar, ma'dan, o'simlik va hayvonlar olami: hayot va o'lim olami do'zaxdir va do'zax olovining po'rtanasidir. Ammo falak olami – osmonlar va ylduzlar, aqlar va jonlar (ruhlar) olami, adabiy va o'zgarmas olam. Bu jannatdir va jannat martabalaridir. Odamda qancha ma'rifat va soflik bo'lsa, uning jannatdagi joyi ham shuncha yuqorida bo'ladi. Ammo odam qanchalik johil bo'lsa, nuqsonli bo'lsa, jahannam qa'rida shunchalik chuqurroq joy oladi.

Ba'zilar deydilarki, Oy osmoni ostida qolib, falak olamiga ko'tarila olmagan jonlar boshqa tanaga ega bo'lishadi. Bu tana kishining o'limi oldidan ustuvor bo'lgan sifat va fazilatlariga muvofiq beriladi, toki u ana shu sifatleri suratida hukmga tortilsin, shu shaklda aybiga ko'ra azob cheksin, gunohiga ko'ra ajr olsin va ular toki komillik kasb etib, gunohlar girdobidan xalos bo'lmagunlaricha bir tanadan ikkinchi tanaga o'taverishadi va faqat shundan keyingina falak olamiga erishadilar. Boshqa bir toifa esa: falak olamiga erishadilar. Boshqa bir toifa esa: (jon) boshqa tanaga ko'cha olmaydi, modomiki, har bir mavjud tananing o'z joni bor ekan, bir jon uchun ikki tananing bo'lishi mumkin emas, shunday ekan jon Oy osmoni tagida abadiy tanasiz mavjud bo'lib qolaveradi, deydilar. Ya'ni ba'zilar shaxslar deydilarki, Oy osmoni ostidagi abadiy qolib ketguvchi ruhlar jinlardir. Yuqoridagilar o'zlarini ahli hikmat deguchilarning fikrlaridir, boshqa birovlar ularni ahli botin ham deydilar.

Vahdat ahlining ulug' olam haqidagi gaplari xususida. Bilgilki, Vahdat ahli fikriga, vujud (borliq) faqat bitta va u Subhonahu taolo

Parvardigori olamning vujudidir. Subhonahu taolo vujudidan boshqa vujud yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Yana ular deydilarki, garchi vujud biita bo'lsa ham, lekin bu vujud o'z-o'zicha zohiriy va botiniy borliqqa ega. Buni bilding, endi bilgilki, vahdat ahli fikriga, botiniy vujud nurdir va bu nur o'sha olam jonidir, olam bu nur bilan to'liqdir, bu nurning hududi va adog'i yo'q. U xuddi bepoyon dengizga o'xshaydi. Hayot, ma'rifat (bilim), Harakat va ashyolar qudrati hamda tabiat, ashyolarning xossasi va Harakati shu nurdan, ko'rish, eshitish, gapirish va yurish quvvati shu nurdandir. Bu nurdan o'zga narsa yo'q, chunki borliq shu nurda jam. Garchi narsalarning sifati, faoliyati va nomlari shu nurdan bo'lsa-da, biroq bu nurdan tashqarida o'zga narsa yo'qdir. Odamdagi (alohida) birliklarning hammasi ushbu nur ko'rinishining mohiyatidir. Ular (birliklar)ning har biri shu nurning darchasi bo'lib, nur (shu'las) shu darchalardan taraladi. Ey darvesh, bu nurning boshi ham, oxiri ham yo'q, fano va adam (yo'qlik) unga ta'sir etmaydi. Lekin darchalar eskiradi, yangilanadi, tuproqqa aylanib, yana tuproqdan bunyod etiladi. Ular (darchalar) o'z-o'zicha mavjud bo'lib, o'zlari tug'iladi va o'zlari yetishadi. Ular kamoloti uchun zarur narsalarga egadirlar.

Bu nur o'zining zuhuriga shiqdir, zero bu nur zuhurotda o'z jamolini mushohada etadi, o'zi sifatlarini va ismlarini idrok etadi. Xuddi shuning uchun ham "O'z Rabbingni tanish (bilish) uchun avval o'zingni tani (bil)" – degan Hadis aytilgan. Sen bu yagona nur olamining joni ekaniligingni va barcha kasrat (ko'plik) bu nur zuxurining haqiqati ekanini bilganingdan keyin, agar bo'lganlar biz emas, desalar – xaqdirlar va yana agar bo'lganlar biz emas, borlar biz emas, bo'ladiganlar biz emas, desalar ham – xaqdirlar. Ey, darvesh, borliqning (kasratidagi) birliklari (juzvlar)ni bu vujudga nisbatan olganda, muqaddam ham, mustaqbil ham bo'lmaydi, zero borliqning har bir alohida zarrasi (birligi)ning vujudga nisbati ushbu kitob harflarning siyohga nisbati kabidir. Shuning uchun ham sendan Xudogacha bo'lgan yo'lning kenglik va uzunlik bo'yicha (o'lchovi yo'q) deydilar.

Borliqning birliklari bir-birlariga nisbatan esa muqaddam va mustaqbil (ya'ni oldin-ketin bo'lishi mumkin) Bir xilli boshqalariga nisbatan o'tgan zamonda, boshqalari kelasi zamonda bo'ladilar.

Har qancha qisqa gapirishga urinsa ham, so'zim ixtiyorimdan tashqari cho'zilib bormoqda. Ey, darvesh, mana bundan ko'ra muhimroq narsa yo'q, eshitib, anglab ol, najot topasan: Vujud (haqiqiy borliq) yagonadir va u Xudoning vujudidir. Va Xudo vujudidan boshqa vujud yo'q bo'lishi ham mumkin emas. Bu yagona vujudning botini nurdir va u olamning jonidir va bu nur o'zini darchalar orqali zohir etadi, o'zi aytib, o'zi eshitadi, o'zi berib, o'zi oladi, o'zi tasdiqlab, o'zi inkor etadi. Ey darvesh, bu nurga muyassar bo'lmoq, uni ko'rmoq kerak, shirkdan xalos bo'lish uchun olamga shu nur orqali boqish lozim. Shayximiz aytardilar: men bu nurga erishdim va uni ko'rdim, u behudud va poyonsiz, uning yuqori-pasti, o'ngu-so'li yo'q, oldi-orqasi ham yo'q. (Ul nurni ko'rgach), uyqu va ochlik hissi daromad va chiqim HAQIDAgI o'ylar meni tark etdi. Mening xalovatim buzildi. Men buni bir valiy odamga aytib berdim. U menga: Bor birovning g'aramidan egasidan so'ramasdan bir xovuch somon olgin, dedi. Men bordim va oldim va bu nurni boshqa ko'rmadim. Boshqa bir avliyo derdi: men bu nurga musharraf bo'ldim va bu nurni idrok etgach, o'zimni ko'rolmay qoldim, chunki hammayoq nur edi.

Ey darvesh, solik ushbu nurga yetishganda, unga oyat-alomatlar beriladi. Birinchi oyat-alomat shuki, u o'zini ko'rishdan to'xtaydi, toki u o'zini ko'rar ekan, maxluqot kasrati saqlangan bo'ladi, toki u kasratni ko'rar ekan – Vahdat ahlidan emasdir (ya'ni ko'p xudolidir). Solik o'zi maxv bo'lgandan keyin shirk ham yo'qoladi, xulul ikki odam orasida sodir bo'lsa, birlashish ikki ash'yo orasida kechadi, xijron va vasl ham ikki odam orasida yuz beradi. Solik bu nur ichra yongach, bularning hammasi barham topadi va yolg'iz Xudoning o'zi qoladi, xolos. Solik fanodan o'tib, tavhidga yetadi.

Bilgil endikim, vahdat ahlining aksari borliqda (vujudda) aytilganlardan ortiq narsani ko'rmaydilar va bilmaydilar. Ammo ularning vujuddan boshqa vujud yo'q va bu vujud Xudoning borlig'idir, u zohir va botinga ega, uning zohiri bir nurdir, nurning zohiri (zuxurlanishi) ushbu nurning sifatlaridir yoki ushbu nurning ko'zgusi yoxud ushbu nurning chirog'idir, degan so'zlari haqdir.

Ular to'g'ri mushohada etadilar, ammo ular borliqning asl asoslari, qaysikim, sof vahdatdir, idrok etmaganlar. Va ularning nigohi narsalar haqiqatiga yetmaydir, xolbuki, bu haqiqat (mohiyat) – jabarutdir, ya'ni ular nigohi mulk va malakutni ilg'ab, lekin jabarutni ilg'amagandir. Xolbuki mulk bilan malakut jabarut oldida ummondan qatra misolidir. Jabarut – bu musaffo vahdat, jism va ruhning manbai, Kitob va Kalomning boshi, mulk va malakutning asosi, borliq va odamning manbaidir. Mulk va malakutda bor jami' narsalar jabarutda mavjud. Mulk va malakutda yeru va osmon ham, Arshu Qursi ham bor. Yeru osmon shu qadar behisob maxluqot mavjudki, ular uchun bu osmonda odam borligi ham, Iblisning borlig'i ham ahamiyatsiz narsadir. Yana gap cho'zilib ketdi va maqsaddan chetlashdik. Maqsad esa vahdat ahlining fikrini bayon etish edi, ya'ni ularning fikriga ko'ra, ulug' odam urug'i (tuxum) bo'lgan javhar birlamchi xayulo (moddiyun)dir.

Bilgilki, birlamchi xayulo surat va shakllarga kiradigan javhardir. Xayulo to'rt qismdan iborat. Masalan, temir va daraxt javharning mohiyati bo'lib, ko'p shakl va suratlarni olishi mumkin. Bu – xayuloning qismlaridan biri, nutfa (urug') javhar bo'lib, ko'plab shaklu suratlarni kira oladi va bu birlamchi moddiyun – xayulo qismlaridan (yana) biri. Unsurlar javharning mag'zi bo'lib, ko'plab shakl va suratlarda ko'rinishi mumkin va bu xayulo qismlarining boshqa ko'rinishi mumkin va xayulo qismlarining boshqa bir qismidir. Xayulo – soda javhar bo'lib, ko'p shakllarga va suratlarga kira oladi. Xayulo (birlamchi modda) – hayot va o'lim olamining mohiyati (haqiqati) va abadiy va o'zgarmas, olamning ham haqiqatidir. Bu olamda

mavjud jami' xayuloning shakllari va suratlaridir. Ana shu xayulo, ya'ni birlamchi modda jabarut olamidir. Jabarut olami mulk va malakut (olamlarining) manbai bo'lib, u mulk va malakutga oshiqdir, chunki mulk va malakutda o'z husnu jamolini ko'radi, ismlari va xossalarini idrok etadi.

Xuddi shu kabi malakut mulkka oshiqdir, negaki mulk malakutning zuxurotidir, malakut esa jabarutning zuhuroti hisoblanadi. Jabarut olami deyilgan xayulo ba'zi bir shaklu suratlariga kiradi va bu shakl, suratlarni hech qachon yo'qotmaydi. Va bu shakl bilan suratlar falak olamiga xos – olam abadiy va sobitdir. (Xayulo) boshqa naqshu suratlarni qabul qilib, yana rad etadi.

Hamma vaqt shunday qilib kelgan va doimo shunday qilaveradi. Quyi olamning naqshu suratlari (shakllari) tufayli hayot olami va o'lim olami mavjuddir.

Bu xayulo qismlarining boshqa qismidir. Moddiyuning qismlarini bilganingdan keyin bilgilki, vahdat ahlining fikriga ko'ra, birlamchi moddiyun (xayulo) Har ikki olam, ya'ni g'ayb olami va shahodat olami haqiqatidir. Bu haqiqatning boshi ham oxiri, hudud va chegarasi ham yo'q. U bo'lmaydi va qismlarga ajralmaydi, fano va adamdan daxlsizdir. Bu olamning chegarasi va oxiri bo'lmaydi, u qirg'oqsiz va adoqsiz bir dengiz. Butun borliq undandir, hamma narsa Unga qaytib keladi, chunki hamma – Udir.

Ikki olamni in'om etuvchi Uning o'zi va Uning ikki olamining ham mohiyati bitta – hududsizlik va mohiyat bu mohiyat – g'ayb olami (asror olami) va bu mohiyat vahdatdir. Ey, darvesh, jabarut olamining ismlari va alomatlari yo'q, u shakl va suratlariga ham ega emas, chegarasi va tizim-tartibi ham ko'rinmaydi. Uni his bilan idrok etolmaysan, aql uni bilishga qodir emas, idroklar uning oldidan xayron, tasavvur va xayollar qoshida lol. U olamda asal bilan xanzal (achchiq tarvuz)ning mazzasi bir xil, zarhal bilan taryoqning ta'siri ham bir xil, tovuq bilan lochin birga yashaydi, bo'ri bilan qo'y birga yuradi, tun va kunning rangi bir bo'ladi, u yerda o'lim va

abadiyatga o'rin yo'q, unda yuz ming yil degan gap yo'q, unda ziddiyat va tafovutlar bo'lmaydi. Fir'avn Muso bilan, Namrud Ibrohim bilan kelishib ketadi.

Bilgilki, vahdat ahli fikricha, garchi har ikki olamning vahdati sirf (sof yagonalik) bo'lsa-da ammo u har bir molik bo'la oladigan sifatda va qobil bo'lguvchi Har bir suratda ta'riflana oladi: ushbu sifat va ushbu surat faqat ayni sifatning darajasi va ayni suratning darajasida komillikkda erishishi mumkin. Uning fazilatining takomili va sha'ni-ulug'vorligining takomili mana shunda haqiqat o'zining sifatlari, mohiyati va suratlarida uzluksiz tajalliydadir. Xuddi dengizda to'lqin-to'lqinga mingashib, ketma-ket davom etganiday, bu haqiqat (mana shunday) uzluksiz tajalliy etib turadi. She'r:

deb gumon qilurlar – asli u – ummon

Boqiy ummon to'lqin urarkan, to'lqin

Yaratgan Halloqning surati ayon,

Borliq taxtasiga bitilgan har naqsh

Bilgilki, vahdat ahli fikricha, garchi ushbu nurdan boshqa hech narsa yo'qdir, ammo ana shu yagona nur ko'p nur manbalariga ega, chunonchi: olamda jinslar, nav'lar fard (birlik)lar bor, bularning hammasi yagona nur manbaining haqiqati va bu yagona nur vaqti-vaqti bilan taraladi, vaqti-vaqti bilan har bir manbaga yig'iladi. Odamlar oliyhimmatlilik bilan ham, yovuzlik bilan ham hukmronlikni qo'lga kiritishlari mumkin. Qulliy donishmandlik shundaki, ruhning madadi faqat bir kishiga beriladi, toki u olamga yo'lboshchi bo'lsin yoki uni boshqarsin. Boshqa barcha nav'larga bu taalluqli, Demak bu olamda paydo bo'lgan har bir surat qandaydir alomat-sifat bilan ta'riflanadi. Va qandaydir ism bilan belgilanadi. Vaqti kelib, bu surat olamni tark etib, yangi suratga o'tar ekan, u ana shu (keyingi) surat bilan ta'riflanib, keyingi nom bilan belgilanadi. Va bu olamga muayyan ruhning muayyan sifat va muayyan ismga muvofiqlik sababiga binoan taalluqlilidir, zotan, muayyan ruhning sifat va ism bilan

tanosuxi (bir-biriga o'tish) sababi bo'yicha emasdir. Bu o'zlarini vahdat ahli deguvchilarining fikridir, boshqalar buni tabiiy (tabiat) deb aytadilar.

Bilgilki, vahdat ahli ikki toifaga bo'linadilar. Bir toifa vujud birdir va bu Xudoning vujudidan o'zga vujud yo'q va bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidlaguvchilar. Binobarin, ular fikricha, butkul borliq Xudoning vujudidan iborat. Ularning so'zlarini batafsil keltirdim. Boshqa toifa esa vujud ikki xildir, biri – haqiqiy vujud, ikkinchisi – xayoliy vujud, degan fikrlaridirlar. Ularning fikriga ko'ra, Xudovand haqiqiy vujud egasi, dunyo esa, xayoliy vujud. Parvardigor nestnamoy – ko'zga ko'rinmas borliqdir. Dunyo bo'lsa – ko'zga ko'rinadigan yo'qlkdir. (Dunyo) boshdan oxirigacha xayoldir, ammo faqat ko'zga ko'rinib turadi, (Dunyo) haqiqiy borliq xosiyati tufayligina mavjud bo'lib ko'rinadi, haqiqiy borliq esa Xudovand borlig'idir. Darhaqiqat, olam (dunyo) hayoliy borliqdan boshqa narsa emas, u aksdir, soyadir. Ikkinchi toifaning fikri bunaqa, ular o'zlarini vahdat ahli deyishadi, boshqalar esa ularni sofistlar, deb ataydilar.

Bilgilki, dunyoda har doim mana shu to'rt toifa mavjud bo'lib keldilar va barcha ta'limotlar asosida shu to'rt ta'limotlar asosida shu to'rt ta'limot yotadi. Aytilgan va yana paydo bo'ladigan ko'p sonli fikrlar ana shu to'rt xil ta'limotning shoxlaridir. Hech shubha, yo'qki, bu to'rt ta'limotdan faqat bittasi to'g'ri bo'lib, qolgan uchasi yolg'ondir. Ammo ularning har biri haqiqat bir yon, boshqalar yanglishadilar, deb da'vo qiladi va bu ruboiyni aytadi:

Parranda ko'rmaga musaffo suvni

Sho'r suvga tumshug'I tiqaverar bot.

Toza suv qo'ysalar uning oldiga,

Mavjlanar uning chin sho'r suvda hayot.

Ey, darvesh aksar odamlar tasavvurda xayoliy va o'zlari yasagan xudolarga sig'inadilar, zero ularning har biri nimanidir tasavvur etadi va bu tasavvurini xudo deb ataydi va shunga ibodat qilib yashaydi. Har bir kishining xayoliy tasavvuri o'ylab topilgan va o'zi yaratgan narsadir. Ular

butga (sanamga) sig'inuvchilardan doimo xijolatdadirilar va ularni o'zlari cho'pdan but yasab, o'zlari ijod qilib, tag'in unga sig'inadilar, deya mazammat etadilar. Ammo, bilmaydilarki, o'zlari ham ayni shu xoldadirilar va butun umrlari davomida shunday yashab, Mutlaq Iloh bo'lgan Xojai olamni tanimay o'tib ketadilar.

Ey, darvesh ular aniqlagan jami' narsalar ya'ni yulduzlar, quyosh, olov, sanam, nur, soya va shunga o'xshaganlar ularni o'zlariga bog'lab qo'ydi va parastish-sig'inish ashyo'siga aylandi. (Xolbuki) faqat Tangri taolo boshqa mutlaqiyat, boshqa chehra, boshqa haqiqatdir. Hech bir shubha yo'qki, Har bir odamning o'z xojasi bordir, ammo xoja boshqa, Xojalar Xojasi – Xojai jahon boshqa. Va har kimki Tangrining vajhiga muyassar bo'lsa-yu, ammo butparastdir va butun hayotini jahon ahli bilan ziddiyatda behalovat o'tkazur, barcha kunlarini janjal, tortishuv va inkorlar bilan o'tkazur. Kimi, bu vahjni chetlab o'tib, Parvardigor haqiqatini anglab olgan bo'lsa, butparastlikdan qutulgan bo'ladi va da'fatan jahon ahli bilan murosaga keladi, inkoru shubhadan xalos bo'ladi, ko'ngli tinchiydi. Bu esa xayrli alomatdir. Kimki vahjga yetib, haqiqatga yetgan bo'lsa va Parvardigorga sig'inib ibodat qilsa, u ahli vahdatdir.

Ey darvesh, hamma bir narsaga iqrordir: kimki o'zini anglagan, o'zini tanigan bo'lsa, o'z Rabbini anglaydi va taniydi. O'zini tanigan kishi – ulug' olam (olami kabir) ni ham anglaydi. Shuning uchun barcha kuchni o'z-o'zini anglashga sarflash lozim. [7]

Tasavvuf ta'limotida komil inson - bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutlaq ruhga tutash qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zot. Prof. Najmiddin Komilov "Tasavvuf" kitobida yozishicha komil inson tasavvuf adabiyotida ko'p marta tilga olinib, munozaralarga sabab bo'lgan va bu haqda maxsus kitoblar yozilgan. Shulardan Sayid Abdulkarim Geloniy va Aziziddin Nasafiy (XIII asr)larning "Insoni komil" nomli risolalaridir. Komil inson tushunchasini birinchi marta Muh'yiddin Ibnal Arabiy (1165 - 1240) tomonidan muomalaga kiritilgan. Uning fikricha komil insonning yerdagi

timsoli Hazrat payg'ambarimiz Muhammad salollohu vasallamdir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. [12]

Shayx Aziziddin Nasafiyni komil inson ilmining nazariyotchisi deyish mumkin, chunki uning barcha asarlarida bu mavzu markaziy o'rinni ishg'ol etadi. Alloma inson kamolotning belgisi sifatida ikki narsani asos qilib olgan. Buning biri – hamida axloq bo'lsa, ikkinchisi – o'z-o'zini tanish.

Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berib yozadi: “Bilgilki, Komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatga yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unga quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq, va maorif”.

Jumladan, Aziziddin Nasafiyning pedagogik merosi alohida o'rganilishi tasavvuf ta'limoti va pedagogika tarixi o'zaro bog'liqligi insonni kompleks tadqiqotiga yangi yo'nalish ochgan bo'ladi. N. Komilov ta'kidlaganidek: “XIII asr Sharq xalqlari ma'naviyati va tafakkuri tarixida alohida o'rin egallaydi. Bu davrga kelib, kalom ilmi, falsafa va tasavvuf kamol topdi. Natijada har uchalla sohani birlashtirgan ajoyib olimlar va mutafakkir adiblar yetishib chiqdi. Ana shunday mutafakkirlardan biri atoqli vatandoshimiz Aziziddin ibn Muhammad an Nasafiydir”. Aziziddin Nasafiyning “Kashful haqoyiq” (Haqiqatlarni ochilishi), “Zubdatul haqoyiq” (Haqiqatlar qaymog'i). Bu kitoblarda Sharq falsafasi va hikmati, islomiy haqiqatlar omuxta etilgan tasavvuf va falsafani qo'shib, komil inson ta'limotining rivojlanish bosqichlari o'z ifodasini topgan.

Prof. N Komilov “Tasavvuf” kitobida yozganidek: “Nasafiy islomdagi bir nechta ilmning insonga bo'lgan qarashlari munosabatini chog'ishtiradi, insonni kayhoniylar vujud sifatida ham, yer mahluqoti sifatida ham tahqiq va tadqiq etadi. Nasafiyda komil inson ruh tushunchasi bilan zid aloqada tekshiriladi. Inson martabalari ruh martabalari sifatida olib qoraladi”.

Aziziddin Nasafiy komillikka erishining asosiy yo'laridan biri ham inson o'zligini anglashi deb biladi. U kitobxonga murojat qilib “Ey piri darvesh hamma bir narsaga iqroridir. Kimki o'zini anglagan, o'zini tanigan bo'lsa

Rabbini angelaydi va taniydi. O‘zini tanigan kishi ulug‘ olam (olam kabr)ni ham angelaydi: - shuning uchun barcha kuchni o‘z-o‘zini anglashga sarflash lozim”deb yozadi dedi.

Aziziddin Nasafiy merosidan pedagogik ta’limda foydalanishning quydagi samarali yo’llari aniqlandi:

- Komil inson g‘oyasining rivojlantirilishi;
- Pedagogikaning tasavvuf bilan bog‘liqligini Aziziddin Nasafiy ilmiy merosida asoslanishi;
- Aziziddin Nasafiy ilmiy merosida insonni bir butunlikda talqin etilishi;
- Aziziddin Nasafiy merosida barkamol shaxs modelining ifodalanishi;
- Komil inson shakllanish omillari va vositalari.

III BOB. Aziziddin Nasafiyning komil inson haqidagi ta'limotining ilmiy-amaliy ahamiyati.

3.1 Aziziddin Nasafiy komil inson ta'limotining tasavvufda tutgan o'rni.

Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda ta'lim-tarbiyaning tarixiylik va milliylik qonuniyatining ahamiyati benihoya katta. Tarixini bilgan, tanigan kishi o'zini, o'zligini taniydi. Buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish, ularni yosh avlodga yetkazib berish bugungi kun dolzarb masalalaridan biridir.

Tasavvuf, sufiylik — islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Haldumning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U "Muqaddima" asarida tasavvuf "suvf" — "jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero qadimdan tarki dunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi ahli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar, deydi.

Islom huquqshunosligida, ya'ni shar'iy ko'rsatmalarni amalga tatbiq etishda 4 ta fiqhiy mazhab bo'lganidek, Tasavvufda ham bir necha tariqatlar shakllangan. Mashhurlari — tayfuriya, junaydiya, hakimiya, qodiriya, yassaviylik, malomatiylar, rifo'iy, kubroviylik, suhravardiylik, chishtiya, akbariya, shoziliya, bektoshiya, mavlaviya, naqshbandiya, sanusiya tariqatlaridir. Mustaqillik yillari mamlakatimizda tasavvuf tariqatlarini o'rganish, unga doir asarlarni tarjima qilish, atoqli mashoyixlarning maqbaralarini qayta qurish va ta'mirlashga ahamiyat berilmoqda. Hakim Termiziy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Shayx Zayniddin, Zangi ota, Shayx Xovandi Tohur va boshqa ko'plab tasavvuf tariqatlariga mansub piri komillarning hayot va ijodlarini chuqur o'rganish, qoldirgan asarlaridan xalqimizni bahramand etish borasida muayyan ishlar qilindi.

Tasavvuf ta'limotida yuksak nom qoldirgan buyuk ajdodimiz, komil inson ta'limoti nazariyotchisi, Aziziddin Nasafiy ijodini o'rganish, uning asarlarini

pedagogik tahlil qilish bugungi kunda komil inson ta'limotini o'rganishda katta yo'l ochadi. Tasavvufda ta'limotida komil insonga quydagicha ta'rif beriladi: "Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan ruhi mutlaq ruhga tutash, fayz-u karomatdan serob siyrat-u surati saramjon qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zot"⁸.

Komil inson, shunday qilib, odamzod orzu qilgan jamiyki ezgu xislatlarning ifodachisi, u go'yoki Mutlaq iloh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'luvchi muqaddas xilqat. Bunday martabaga musharraf insonlarni valiulloh, qibla, qutb g'avs(madadkor), avtod (ustunlar), abdol (badal qilingan) deb ham ulug'langanlar.

Mutabar kitoblarda aytilishicha, dunyo shunday zotlar tufayli barqaror va osoyishtadir, yerning ikki qutbida ikkita qutbi a'zam, to'rt burchagida to'rtta avlodlardan, yetti iqlimda yetmish ikkita abdol doimiy qo'riqchi bo'lib turar ekan. Ularning biri olamdan o'tsa, ikkinchisi darrov o'rnini bosar ekan. Shuning uchun yer yuzida har qancha gunoh ko'payib ketganda ham u zeru zabar bo'lmasdan, o'z o'qidan chiqib ketmay turarkan, chunki ana shu aziz avliyolar bandalar gunohini Parvardigordan so'rab turar ekanlar. Bu balki haqiqat balki rivoyatdir, unga ishonish ishonmaslik har kimning o'z ishi. Ammo rivoyatlar tagida ham ulkan haqiqatlar yotadi.

Bu haqiqat shundan iboratki, dunyoning tinchligi va faravonligi haqiqatdan ham, dono va oqil, pok niyatli odamlar faoliyatiga bog'liq. Ya'ni ilohiy poklik va nafosat, e'tiqod va tafakkur bizni balo qazolardan asraydi. Tasavvuf o'z usuli, haqiqat deb topgan yo'li bilan shu maqsad sari intilgan. Tasavvuf ahli sig'ingan ideal – Komil inson aslida xalq ideali, adabiyot ideali edi.

Shayx Aziziddin Nasafiyning "Komil inson", "Maqsad-ul aqso", "Zubdat-ul haqoyiq" nomli va boshqa risolalarida komil inson masalasi o'zgacha yoritilgan. Unda bu tushuncha insonning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, martabalar

⁸ N.Komilov "Tasavvuf" – T – "Yozuvchi" – 1996-yil. 78-bet.

topishi bilan bog'liq holda olib qaraladi. Natijada biz Nasafiyning tariflarida aynan hayotiy odamga xos belgilar, axloqiy sifatlar keltirilgan. Yana shuni ham aytish kerakki, Nasafiy islomdagi bir nechta ilmning insonga bo'lgan qarashlari va munosabatini chog'ishtiradi, insonni kayxoniy vujud sifatida ham er mahluqoti sifatida ham tahqiq va tadqiq etadi. Nasafiy komil inson tushunchasi ruh tushunchasi bilan zich aloqada tekshiriladi. Inson martabalari ruh martabalari sifatida olib qaraladi. Shuning uchun umumiy tushunchalardan konkret tushunchalarga o'tib turish bor. Buning sabablaridan yana biri Aziziddin Nasafiyning kamolotni uruj (ko'tarilish) va nuzul (tushish) nazariyasi asosida tushinishidir. Bu nazariya o'z navbatida ulug' olam va kichik olam tushunchalari bilan bog'lanib ketadi. Chunki Nasafiy Ibn al-Arabiya qo'shilib, insonni olami sug'ro (kichik olam), ilohiy olam va madaniy olamni birgalikda olami kubro (ulug' olam) deb ataydi. Ulug' olamdagi jamiki narsa va xususiyatlar kichik olamda mavjud deydi. Shu tariqa, inson yuqori olam-olami kubroning kichiraytirilgan nusxasi hisoblanadi.

Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berib yozadi: "Bilgilki, Komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushinmasang, boshqa ibora bilan aytayin, bilgilki komil inson shunday insondirkim, unda quydagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fel, yaxshi axloq va maorif".

Nasafiy sanagan sifatlarning dastlabki uchasi, ya'ni yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi xulq Zardusht kitobi "Avesto"dan olingandir. Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg'on, riyo badkirdorlikdan cheklanadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan ezgu ishlarga tayyor turadi. Aziziddin Nasafiy yaxshi axloq haqidagi Zardusht oyati yonida "maorif" ya'ni tasavvufning poklanish talabini qo'shib qo'ygan. Uning fikricha tariqat yo'liga kirgan soliklarning vazifa-maqsadi ushbu to'rt fazilatni egallashdir. Kimki "o'zida shu sifatlarni kamol toptirsa kamolga erishadi. Nasafiyning mazkur ta'rifidan ikkita xulosa kelib chiqadi. Biri shuki, olim nazarida komil inson hayotdan tashqari bo'lgan allaqanday mavhum zot emas, balki real odamdir. Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam shunday

martabaga ko'tarila oladi. Ikkinchi xulosa shuki Nasafiyga ko'ra, Komil inson martabasi tariqat va riyoziyot yo'li bilan qo'lga kiradigan yuksak martabadir.

Aziziddin Nasafiy asarlarining markazida komil inson masalasi turadi, shuning uchun uni "komil inson ilmining nazariyotchisi" deyish mumkin, degan edi N.Komilov. Chunki uning barcha asarlarining markazida komil inson, komil inson ta'limotining bosqichlari, uning komillikka erishish omillari keltirib o'tilgan.

Allomaning "Zubdat-ul haqoyiq" asarida "olami kubro"ni bilishda shariat ahli fikrlari, faylasuf ahli fikrlari, tasavvuf ahli fikrlari alohida-alohida yoritib berilgan. Ular olamning paydo bo'lishi, insonning kamoloti haqida o'z qarashlarini bayon qilib o'tishgan. Tasavvuf ahli fikricha inson uchun ma'lum daraja belgilanmagan. Agar u ikki yuz yil yashasa va shu davr mobaynida u bilim olishni davom ettirsa yanada ko'proq bilimlarga ega bo'ladi va uning martabasi yanada yuqoriroq bo'lishini aytib o'tadi. Ularning fikricha inson uchun ma'lum chegaralangan uruj (ko'tarilish) mavjud emas. Inson bilimni qay darajada ko'proq egallasa uning martabasi, bilimi oshib boraveradi. Shariat ahlining fikricha esa inson uchun ma'lum belgilangan uruj (ko'tarilish) mavjud. Inson o'zi uchun belgilangan chegaraga yetganda uruj tugalanadi deb aytadi. Yana shariat ahlining fikricha insonlar qachonki o'z darajasiga etish uchun harakat qilsalargina bu maqsadga erishadi. Ular harakatdan to'xtasa o'z darajasiga, mavqeiga erisholmaydi.

Tasavvuf ta'limotining bosh mavzusi komil inson uning komillikka erishish bosqichlari va omillarini uning rahnamolariga o'rgatishdan iboratdir. Nasafiy esa komil inson taraqqiyotida oilaning, jamiyatning, ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini yetarlicha yoritib bergan. Uning asarlarining soddaligi, oddiy xalqqa tushinarliligi bilan kitobxonni o'ziga jalb qila oladi.

Komil inson masalasini yoritishda alloma insonga bir tomonlama emas, balki kompleks yondashadi, ya'ni insoni umum fanlar jihatida o'rgandi. Alloma insonni pedagogika, psixologiya, fiziologiya, anatomiya, sotsiologiya, falsafa, adabiyot fanlari o'rganadigan jihatlarini ham o'z asarlarida yoritib bergan.

Komillika erishishning ilk bosqichidan toritib komillikka erishish jarayonini tizimli yoritib berganligi bilan tasavvufda alloma asarlari yetakchi o'rinni egallaydi.

Komillikka erishish uchun yo'l olgan solik (yo'lovchi) qanday mashaqqatlarni bosib o'tishi, uning bu yo'lni bosib o'tishdagi bajarilishi kerak bo'lgan ishlari atroflicha yoritib berilgan. Buni biz quydagi jummalarda ko'rishimiz mumkin: "Bilgilki, tasavvuf ahli fikriga binoan, suluk yomon so'zlardan xayrli so'zlarga, yomon ishlardan xayrli ishlarga, zamima (buzuq) axloqdan hamida (maqtalغان) axloqqa, o'z borlig'idan Parvardigori olam borlig'iga tomon harakat qilmoqdir. Ya'ni solik xayrli so'zlar, ishlar va yaxshi xulqni kasb etgach, ma'rifat nuri uning qalbiga yog'iladi va u narsalarning asl mohiyatini his eta boshlaydi. "Ey Parvardigor, narsalar (aslida) qanday bo'lsa, ushunday bizga ko'rsat" hadisining (ma'nosi) ravshan bo'lganda, Irfon yuz ko'rsatganida va ma'rifatda kamolotga erishganda, narsalar qanday bo'lsa, ushunday holat kasb etganda, bu uning (solikning) o'z borlig'ida o'lib, Tangri azza va jalla borlig'ida qayta tirilishining nishonasidir. Garchi solikda (ba'zan) borliq (vujud) yo'qdir, ammo go'yo vujud – borlig'im bor deb xayol qiladi. Xuddi ana shu hol soliklarning maqsad – murodi, toliblarning ma'tlubi va yo'lovchilarning istagidir. Demak xalqning xos kishilari hisoblanmish soliklarning kamoloti quydagi to'rt narsadadir, ya'ni xayrli so'z, xayrli ish, xayrli xulq va ma'rifat. Mana shularda kamoloti bor har bir kishi niyatiga erishgan bo'ladi."

Tasavvufda Nasafiy asarlarining boshqa tasavvufiy asarlardan farqi shuki, u komil inson bo'lishi uchun tarki dunyo qilish, doimiy ibodatda bo'lish bilan cheklanibgina qolmasdan ilm-ma'rifat o'rganishi, uni o'zgalarga ham o'rgatishni nazarda tutadi.

3.2. Aziziddin Nasafiyning komil inson ta'limotining ta'lim-tarbiya nazariyasida tutgan o'rni

Butun ma'naviyat tarixi shuni ko'rsatadiki, sivilizatsiya degani – bu insonning o'z-o'zini anglashi, o'zini kamol toptirish uchun olib borgan kurashining hosilasidir. Barcha dinlar, ta'limotlar, tafakkur daholari inson qobiliyati, ruhiyati va axloqini o'rganish, insonni tarbiyalab, to'g'ri yo'lga boshlash, noqisliklar va illatlardan xalos etish bilan shug'ullanib kelganlar.

Sharqning ulug' allomalari, faylasuflari, shoirlari inson kamoloti haqida asrlar davomida fikr bildirib muhim qarashlarni ilgari surganlar, kuylab kelganlar. Zardusht, Konfustiy, Krishna, al-Buxoriy, al-G'azzoliy, Abu Nosr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Aziziddin Nasafiy, Rudakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Sa'diy, Jomiy, Navjiy va boshqa mutafakkirlar insoniy komillik haqida asarlar yaratdilar.

Ma'rifiy risolalarda asosan komil inson axloqining nazariy va amaliy masalalari tahlil etilgan. Aziziddin Nasafiy, Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Devoniy, Koshifiy, Kaykovs, Sa'diy, Jomiy, Navoiylarning “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Axloq haqida risola”, “Ishq risolasi”, “Qutadg'u bilig”, “Axloqi Nasoriy”, “Insoni komil” “Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Muhsiniy”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Bo'ston” kabi asarlarda inson shaxsini, ma'naviyatini shakllantirish va takomillashtirish muammosini xalq etishda ma'rifiy asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun buyuk ajdodlarimiz o'z asarlarida inson ongini, aql-zakovatini, yuksak his-tuyg'ularini, xulq-atvorini, dunyoqarashi, hayotga munosabati va yana ko'plab go'zal hislatlarini ulug'lab kelganlar. Shu tariqa tarix bag'rida komil insonni tarbiyalashdek ulug'vor ishga xizmat qiladigan boy meros to'plangan. Ammo xalqimiz sobiq sho'rolar hukmronligi davrida ana shu merosni bir yoqlama, cheklangan doirada o'rganishga mahkum qilingan, undan to'la bahramand bo'lish imkoniyati yo'q edi. Shu sababli Birinchi Prezidentimiz asosiy e'tiborni mana shu kamchilikni bartaraf etishga, eng avvalo, buyuk ajdodlarimiz merosini

tiklash, ulug' allomalar, ijodkorlar nomlarini ulug'lash, xotiralarini abadiylashtirish, asarlarini nashr ettirish, ular hayoti va ijodi namunalarini xalqqa tanishtirish, boy merosni xolislik bilan chuqur tadqiq qilish kabi masalalarga qaratdi. Bu tarixni inson kamoloti yo'lida xizmat qildirishning yuksak namunasi edi. Shuning uchun bu haqda to'xtalib "Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz", deb ta'kidlagan edi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2017-yil 8-9-iyun kunlari Ostona shahrida o'tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitidagi nutqida "Yoshlarimizni turli xil yot g'oyalardan asrash, ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya olishi, komil inson bo'lib yetishishi, navqiron avlodning qalbida buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lishdek yuksak tuyg'ularni shakllantirish" – asosiy vazifalarimizdan biri ekanligini aytib o'tadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda ajdodlar yaratgan bebaho meros hamda islom dinimizning o'rni beqiyos. Tasavvuf ahli yirik namoyondalaridan biri bo'lmish Aziziddin Nasafiy asarlari bosh mavzusida asosan komil inson, komillikka erishish bosqichlari masalasi turadi. Alloma fikrlarining ta'lim-tarbiya nazariyasidagi o'rnini ochib berish, asarlarini pedagogik jihatdan tahlil qilib chiqish yoshlarimizni tarix bilan tarbiylashdek yuksak faoliyatga xizmat qiladi.

Inson shaxs sifatida rivojlanishi har tomonlama kamol topishining samarali bo'lishiga erishish maqsadida pedagogika fani rivojlanishning qonuniyatlari unga ta'sir etuvchi omillarni shuningdek, shaxs kamolotida ta'lim-tarbiya hamda faoliyatning ta'siri, ahamiyatini aniqlaydi va tahlil qiladi.

Shaxsning rivojlanish jarayoni bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bular irsiyat ya'ni biologik omil hamda muhit, ta'lim va tarbiya, shaxs faoliyati (ijtimoiy omil) shaxsni shakllanishining asosiy omillari hisoblanadi. Aziziddin Nasafiy asarlarida insonning hayvondan farqlanishini faoliyat bilan belgilagan. Shaxs shakllanishidagi asosiy omillardan biri ham faoliyatdir. Shaxs shakllanishining muhim omilidan yana biri bu – irsiyatdir. Alloma bu omilni

yuqori o'ringa qo'yib, ota-onadagi jamiki yaxshi va yomon fazilatlari, aql-zakovati farzandga to'la-to'kis o'tishini aytib o'tadi. Bu orqali olim farzandlar buyuk inson bo'lishi uchun ota-onalar sog'lom fikrli oqil bo'lishi kerakligini aytib o'tilgan.

Pedagogikaning muhim mavzularidan biri shaxs shakllanishi, uning rivojlanishi bo'lib, Nasafiy bolaning ta'lim-tarbiyasini embrion davrdan boshlash kerakligini aytib o'tadi. Alloma bu jihatlarnigina yoritibgina qolmay, balki uning qaysi davrda qaysi a'zolar rivojlanishi fiziologik jihatdan ham yoritib beradi.

“Ulug' olamda bor narsalar kichik olamda mavjuddir. Ey, darvesh, ulug' olamning avvalu oxiri, zohiru botini, mohiyat va shakllarini idrok etish uchun o'zingning mohiyating, zohir va botinining anglab yetgin. Bundan boshqa yo'l yo'q. Ey, darvesh, narsa-hodisalarning qanaqaligini bilmoqchi bo'lsang, o'zingning qanaqaligingni bilishing kerak.” – Inson dunyoni, dunyo haqidagi ilmlarni o'rganmoqchi bo'lsa, avvalo u o'zini-o'zligini bilishi kerak.

Nasafiy asarlarida taqvodor tun-u kun ibodat bilan mashg'ul zohid kishidan ma'rifatli-orif kishini ustun qo'yadi. Uning fikricha insonlar faqatgina diniy bilimlarni o'rganibgina qolmay, dunyoviy ilmlarni ham o'rganib ta'lim-tarbiya olsa uning martabasi ulug' bo'ladi. Bu haqida quydagicha bayon qiladi: “Agar surunkali ibodat ustiga, u foniylar dunyodan butkul yuz o'girgan bo'lsa, boylikdan, joxu mansabdan voz kechib, jismoniy lazzat va xirsdan qutulgan bo'lsa, uni zohid deb, uning ruhini ham zohid ruhi deb aytadilar. Agar yana bozustiga, zohidlikdan tashqari, narsa-hodisalarning botiniy mohiyatini anglasa, nazaridan hech narsa yashirin qolmasa va taqlid chegarasidan irfon chegarasiga qadam qo'ygan bo'lsa, uni donishmand (orif) deydi va uning ruhini donishmand (orif) deb aytadilar.”

Nasafiy fikricha, bilim olish hamda taqvo egallash jarayonida inson qancha ko'p harakat qilsa, u yuqori pog'onaga ko'tariladi. Shariat ahli hamda faylasuflarning fikricha deydi, u inson o'z pog'onasigacha ko'tariladi, undan

balandga ko'tarila olmaydi. Lekin hikmat ahli fikriga ko'ra yuqori bilimga ega bo'lsa u bundanda baland martabalarga ega bo'ladi. Bilim olish chegarasi yo'q deb aytadi.

“Ey darvesh, axloqiy hislatlar-da bezanmagan, o'zini tanimagan odamlar ko'p, ammo ular hali komil emas. Go'zal xislatlar-da bezangan bo'lib, lekin o'zini tanimaganlar bor. Bular ham komil emas. Binobarin, insonning kamolotga erishishi tugal axloqqa ega bo'lish va o'z-o'zini tanish bilan amalga oshadi.” Alloma bu fikri orqali inson kamolotini belgilashda faqatgina yaxshi axloq emas balki inson o'zligini anglashi bilan kamolotga erisha olishini aytib o'tadi.

“Inson hayvon turlaridan biridir. Ey darvesh, aynan hayvon ruhi tarbiya topib, ta'lim va tahsil ko'rib, bilish, takrorlash, taqvo va zikr tufayli darajalar bo'ylab rivojlanadi va ruhning birligi, jismning ruh bilan va ruhning jism bilan yagonaligi va bir-biridan ajralmasligini aytish edi.” Alloma fikricha, inson ta'lim-tarbiya ko'rmasa insonlar bilan muloqot qilmasa, axloq egallamasa, u hayvon ruhida qolaveradi deydi.

Nasafiy faqatgina insonni pedagogik jihatdan emas balki psixologik jihatdan ham o'rgangan bo'lib, insondagi to'rt temperamentning shakllanish jarayonini embrion shakllangan davrdan shakllanishini aytib o'tadi.

Alloma inson bu dunyo tashvishlarini unitib yashashi, qanoat hosil qilishni o'rganishi kerakligini aytib o'tadi. Mol-u dunyo yig'ish insonning martabasini bu foniyl dunyodagi martabasini anglatsa, uning ma'naviy boyligi, ilm-u ma'rifati esa azaliy dunyodagi martabasini belgilab berishini aytib o'tadi.

“Ey darvesh, ul pardalarni olib tashlash va ul maqomlarga erishish faqat to'rt narsa orqali amalga oshadi: zuhdga berilmoq, kam yemoq, kam uxlamq va kam gapirmoq. Orif inson bilan suhbatga kelganda, solik nimaki ish qilsa, orif kishi bilan qilsin.” – alloma bu fikri orqali inson komillikka erishish yo'lida nimaki qilmoqchi bo'lsa, ilimli (orif) kishi bilan amalga oshirishini aytadi. Inson qachonki nafsni yenga olsa, u komillik sari yo'l olgan bo'ladi. Inson nafs quli bo'lishdan qutilmas ekan, u inson hech qachon komillikka erisha olmasligini

aytib o'tadi. Inson komillik yo'lida xudoni izlashi kerak emas. Inson komillika erishish uchun unda odamiy fazilatlar jam bo'lishi lozim. Bu xislatlarni inson olamdan, borliqdan izlamasdan balki, o'zidan qidirmog'i lozim.

“Ey darvesh, daraxtning barcha darajalari uning urug'ida mavjud, bu darajalar to'la zuhur etmaguncha tadbirlar bog'bon tomonidan tarbiyalanib, parvarish qilinadi. Xuddi shu kabi safo, ezgu xulq, ma'rifat, sirlarni anglash va nur zuhuroti odamning taqdirida mavjuddir.” – Insonda barcha ezgu xislatlar, ilm-u ma'rifat yashiringan bo'ladi. Uning bu qirralari ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga chiqadi.

“Orif kishi bilan suhbatda inson darajasi parvarish topib, to'la zohir bo'ladi. Ey darvesh, senda avval boshdagi va oxiridagi ilmu ma'rifat yashiringan nimaki izlasang, o'zingdan izla, nega tashqaridan qidirasan?” – inson qachonki, ilm-ma'rifatli kishi bilan suhbat qursa, uning ilm-u ma'rifati yuzaga chiqadi, chunki jamiki bilimlar uning o'zida yashiringan bo'ladi. Nasafiy o'z fikrlarida ilmli kishining jamiyatdagi mavqei yuqori bo'lishligini aytib o'tib, ular suhbatida bo'lgan, uning ta'limini olgan insonlar ham komillik sari yuksalishini aytib o'tadi.

3.3. Aziziddin Nasafiy komil inson ta'limotining pedagogik ta'limda qo'llanilishi.

Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturida Komil insonni voyaga yetkazish bosh vazifa qilib berilgan. Masalaga xuddi shu jihatdan yondoshish muhim ahamiyat kasb etadi. Komil inson masalasi esa Sharq falsafasida muhim o'rin tutib kelgan. Shu bilan birga Sharq falsafasining Ovrupo madaniyati taraqqiyotida tutgan o'rni beqiyosligi ko'pchilika ma'lum. Zero, insoniyat olamini o'rganishda bu falsafaning qo'ygan poydevori hali ham o'z o'rnida mustahkam turib di. Shu sababli g'arbda boshqa fanlar qatori pedagogika, psixologiya ham amaliyoti bilan birgalikda rivojlandi; Inson masalasi muhim o'rin tutgani uchun ham ta'lim tarbiya, o'qitish ishlari, o'quvchiga munosabat, unga taqdim etiladigan barcha pedagogik ta'sirlar (instrumentariylar) o'quvchining o'zi uchun xizmat qilishga qaratilgan. Ya'ni shaxsga subyekt sifatidagi munosabat.

Bizda esa aksincha bo'ldi. Dialektik materializm g'oyasi o'laroq o'quvchiga obyekt sifatida qaraldi va qarab kelinmoqda. Ta'limda bolalarning rivojlanish jarayonini (DTSning kiritilishidan maqsad ham asosan shaxsning rivojlanish darajasini belgilash va uni nazorat qilish bo'lishi kerak edi.) nazorat qilish emas, natijani ko'zlash bo'ldi. Natijada o'quvchilar bilimning o'ziga, mohiyatiga yoki bajara olgan ish natijalariga emas, balki baho olishga qiziqib qoldilar. O'quvchi uchun bilimdan ko'ra baho olish muhim bo'lib qoldi. Ijtimoiy hayotga tayyor bo'lish, qiyinchiliklarni yenga olish, o'z hayotlari davomida olgan bilimlarini amaliy qo'llay olish malakalari aytarli darajada rivojlantirilmadi. Ta'limda o'quvchiga subyekt sifatida qaralmas ekan, hech qachon maqsad amalga oshmaydi. Bu haqda fikrimizni qisqa qilgan holda shuni aytmoqchimizki, maqsad Komil insonni voyaga yetkazish ekan, avvalo biz Sharq falsafasiga murojaat qilishimiz, shu asosda o'z dunyoqarashimizni o'zgartirishimiz kerak.

Sharq falsafasida muhim o'rin tutgan tasavvuf ta'limoti aynan Ovrupo madaniyati, taraqqiyotining beshigi bo'lgan desak yanglishmaymiz. "Sharq faylasuflarining inson haqidagi ta'limotlari ta'siri ostida isaviya diniga e'tiqod

qo‘ygan ovrupoliklarda ham inson erki va uni ulug‘lash uchun kurash boshlandi. Sharq faylasuflari ta‘limotlari, ayniqsa insonga munosabatlari bilan birga Fransiya, Italiyadagi lotin averroistchilar, Siger boshliq olimlar kurashining natijasi o‘laroq, Uyg‘onish davri va uning mafkurasi- gumanizm g‘oyasi yuzaga keldi .

Shu bilan birga tasavvuf ta‘limoti Ovrupo pedagogika fani va amaliyotining, ruhshunoslikning rivojlanishida muhim o‘rin tutganini havas bilan ta‘kidlab o‘tish joizdir. Hozirgi vaqtda ham Ovrupoda mashhur bo‘lgan R.Shteyner maktabi tasavvuf ta‘limoti asosida yuzaga kelgan.

Bilishimizcha, tasavvuf xudoga erishish, yetishish, u bilan birga bo‘lish va yashash yo‘li. Bu yo‘lni bosib o‘tishda inson avvalo o‘z o‘zini anglashi, kamolga yetkazishi va nihoyat Insoni Komillikka musharraf bo‘lishi kerak. Tariqat olimlari ana shu yo‘llarni ilmiy asosda o‘rganganlar.

Tasavvuf ta‘limotida Aziziddin Nasafiy asarlari beqiyos o‘rin egallaydi. Uning ta‘lim-tarbiyaviy qarashlarini pedagogika faniga olib kirish komillikka erish yo‘llari, bosqichlari va omillarini talabalarga yetkazib berishdan iboratdir. Uning bilim, ko‘nikma va malakalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish jayonini quydagicha yoritib beradi: “Quloqlaring orqali yurakka yetib boradigan bilim, bu xuddi boshqalar qudug‘idan olingan suv kabidir, u bilan chanqoq yeringni sug‘ormoqchisan, ammo bu suv turmaydi, boz ustiga, u sening qudug‘ingda to‘xtab turmaslikdan tashqari, tezda aynib qolib, ko‘p badbo‘y va kasalliklar tug‘diradi. Ey darvesh, bu kasallik takabburga aylanadi va mansabu joh muhabbatini kuchaytiradi “O‘z ko‘zi bilan ko‘rgan narsadan ko‘ra (ishonchliroq) xabar yo‘q”. shunday qilki, o‘z qudug‘ingni suvi bo‘lsin va undan qancha olsang ham, boshqalarga qancha bersang ham, u kamaymasin, u qanch ko‘p tursa, shuncha tozalansin va og‘ir dardlarga bag‘isshlasin. Ey darvesh, odam qanday bo‘lishidan qa‘tiy nazar, bu “quduq” zohirda ko‘rinmay turadi. Ana shu “quduq”ni tozlab, suvni ko‘rinadigan qilishi kerak.” Nasafiy bu fikri orqali bilimni faqatgina eshitib emas, uni ko‘rib, mustaqil tarzda o‘rganib ko‘nikmalar hosil qilishi, vaqtlar o‘tib esa hosil bo‘lgan ko‘nikmalardan malaka

shakllanib uni amaliyotga to'la to'kis joriy qila bilishligini, insonda doimo mustaqil fikr bo'lishi lozimligini aytib o'tadi.


Alloma inson farzandini komil inson qilmoqchi bo'lsa, u avval o'zi komillik sari yo'l olgan bo'lishi, insonning umri faqatgina taqvoda o'tishi emas balki, ilm o'rganishi, insonlarga yordam berishi, yomon ishlardan, yomon illatlardan cheklanishi, ezgu ishlarni ko'proq qilishligini aytib o'tadi. Komil inson ta'limoti pedagogikada, ta'lim-tarbiya jarayonida dolzarbligicha qolib kelmoqda. Shunday ekan alloma asarlarini bugungi kun ta'lim tizimiga olib kirish, komil inson tushunchasini ideal inson emas, balki real-bugungi hayotimizda mavjud ekanligi yoshlarimizga sigdirish, ularning komillikka intilishi uchun harakat qilishga yordam berishimiz, bu ishlarni esa albatta ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirishimiz hech kimga sir emas.

Nafaqat Aziziddin Nasafiy balki butun Nasafiyalar merosini o'rganish ta'lim-tarbiya jarayonida, pedagogika fanining taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarimizning allomlarimiz merosini qay darajada bilishlari, ular yaratgan merosga qiziqishlarini, allomlarimiz asarlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida qay darajada foydalanilishini o'rganish maqsadida Qarshi davlat universiteti pedagogika fakulteti talabalarida tajriba-sinov ishlarini olib bordik.

Tajriba-sinov ishlarida talabalarga 5 ta savoldan iborat so'rovnomlar tarqatildi. (1-jadval). Bu savollarni tuzishimizdan asosiy maqsad Nasafiy allomlarning merosini pedagogikadagi ahamiyatini aniqlash, ular tomonidan yaratilgan asarlaridagi pedagogik qaarashlarining yosh avlodga qay darajada ahamiyatli ekanligini o'rganishdan iborat.

Tajriba-sinov ishlariga jami 170 nafar talaba respondent sifatida olingan bo'lib, ulardan 83 nafari tajriba guruhiga 87 nafari esa nazorat guruhiga ajratilgan. Birinchi bosqichda talabalar tomonidan berilgan javoblar quydagicha bo'ldi:

Guruhlar	Talabalar soni	Savollar				
		1	2	3	4	5
Tajriba	83	10	22	9	77	80
Nazorat	87	11	25	8	81	86
Jami	170	21	47	17	158	166



1-diagramma. Birinchi bosqich so'rovnoma natijalari.

Respondentlar tomonidan berilgan javoblarda tajriba guruh 83 nafar talabalaridan 10 nafari ya'ni 12% i, nazorat guruhdan 11 nafar (12.5%) talaba qadimgi Nasafda ta'lim-tarbiya jarayoni haqida bilimlarga ega ekanligini, tajriba guruhdan 22 nafar (26.5%) talaba nazorat guruhdan 25 nafar (28%) talaba Nasafiy allomalar haqida bilishi, tajriba guruhdan 9 nafar (10.5%), nazorat guruhdan 8 nafar (9%) talaba esa Nasafiy allomalarning asarlarini o'qiganligini natijarda ko'rishimiz mumkin. 4-5-savolnomalar asosan talabalarning o'z dunyoqarashini yoritishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalar ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarimizning nimalarda namoyon bo'lishini, tarix bilan tarbiyalash deganda nimani anglashini o'z fikrlarida ko'rsatib berdi.

Ularga "ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni singdirishda nimalardan foydalanasiz?" mavzusidagi savolnomaga ko'pchilik

respondentlarning javoblari xalq og'zaki namunalari, milliy o'yinlar, an'analar, urf-odat va qadriyatlarimizdan foydalanishi aytib o'tgan bo'lsa, aksariyat respondentlarimizda ajdodlar merosidan foydalanish, boy ma'naviy merosimizni ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash, milliy qadriyatlarimiz aks etgan metodlardan foydalanish, tarixiy madaniy obidalar, muzeylarga sayohat orqali ta'lim-tarbiya jarayoniga, o'quvchi yoshlarga ongiga singdirishini o'z fikrlarida bayon qilib bergan.

“Ta'lim-tarbiya jarayonida “tarix bilan tarbiyalash” deganda nimani tushinasiz?” – degan savolimizga esa asosan talabalar ajdodlar merosini yosh avlodga yetkazish berishni, tarixiy xotirasiz kelajak yo'q ekanligini, o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanishini, o'tmish va bugungi kunni taqqoslash orqali tarbiylaashni, tarixdan ma'lum bo'lgan metodlardan foydalanishligini, tariximizning shaxs kamolotidagi o'rnini o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazib berishini o'z javoblarida keltirib o'tgan. 4-savolnomamizga 12 nafar talaba javob berishga qiynalishligini aytib o'tgan bo'lsa, 5-savolimizga 4 nafar talabamiz o'z fikrlarini bayon qilmagan.


Birinchi bosqich tugallangandan so'ng tajriba guruh talabalariga qadimgi Nasafda ta'lim-tarbiya haqidagi ma'lumotlar, Nasafiylar allomalar va ularning merosi haqida yozilgan asarlar qo'llanma va tavsiyalar haqida ma'lumot berildi, ularning Nasafiylar merosiga qiziqishi qay darajada ekanligi so'rab o'tildi.

Ikkinchi bosqich so'rovnomalarni olish bir oy muddatdan so'ng amalga oshirildi. Bu vaqt davomida tajriba guruh talabalariga Nasafiylar merosi haqida o'quv qo'llanmalar, kitoblar va saytlar haqida ma'lumot berildi va yuqoridagi savollar bo'yicha ma'lumotlar berildi. Hamda qaytadan ikki guruh talabalariga savolnomalar tarqatildi. Ikkinchi bosqich natijalarini quydagi jadvalda ko'rishingiz mumkin:

Guruhlar	Talabalar soni	Savollar				
		1	2	3	4	5
Tajriba	83	62	71	33	80	81
Nazorat	87	27	29	12	81	84

2-jadval. Ikkinchi bosqich so'rovnoma natijalari

Birinchi bosqichdan farqli ravishda ikkinchi bosqichda talabalar tomonidan berilgan javoblarda qadimgi Nasafda ta'lim-tarbiya jarayoni haqidagi bilimlari tekshirilganda tajriba guruhda 83 nafardan, 62 nafari ya'ni 75%ni, nazorat guruhda esa 87 nafardan 27 nafari (31%), 2-savolga esa tajriba guruhidan 71 nafar (85%), nazorat guruhidan esa 29 nafar (33%), 3-savolga tajriba guruh 33 nafari (40%), nazorat guruh 12 nafari (14%), 4-savol natijalariga ko'ra tajriba guruhdan 80 nafari (96%) talaba, nazorat guruhdan 81 nafari (93%) talaba, 5-savolnomaga ko'ra tajriba guruhdan 81 nafari (98%) talaba, nazorat guruhdan 84 nafari (96%) talaba savollarga to'liqligicha javob bergan.



2-diagramma. Ikkinchi bosqichda nazorat va tajriba guruh natijalari

Tajriba-sinov natijalarini solishtirar ekanmiz tajriba guruhga jalb qilingan talabalarning qadimgi Nasafda ta'lim-tarbiya jarayoni haqidagi bilimlari ikkinchi bosqichda, birinchi bosqichga nisbatan 63% ga yuqorilaganini, Nasafiy

allomalar haqida bilishligi bo'yicha esa 58.5% ga yuqorilaganini, allomalarning asarlarini o'qiganligi bo'yicha esa 29.5% ga yuqorilaganligini ko'rishimiz mumkin.

Tajriba-sinov natijalarimizdan ko'rishimiz mumkinki, talabalarimizda Nasafiy allomalar, ularning asarlari, qadimgi Nasafda ta'lim-tarbiya haqidagi bilimlari juda oz miqdorda ekanligi, agar ularga Nasafiylar merosi haqida bilimlar berilsa, ularda keng qamrovli tushuncha hosil bo'lishi, talabalarimizning bu mavzularga qiziqishi katta ekanligini namoyon bo'ladi.

Agarda kutubxonada Nasafiylar merosiga oid asarlar sonini ko'paytirsam hamda Nasafiylar merosini pedagogika tarixi faniga kiritilsa talabalarda Nasafiylar ijodi uning ta'lim-tarbiya rivojida hissi talabalarga yetkazib berilgan bo'lar edi. Bu esa talabalarimizda ta'lim-tarbiya jarayoni rivojlanishining tarixiy bosqichlarida Nasafiylar merosining o'rni beqiyos ekanligini, ularning boy merosi o'sha davr ta'lim tizimida darslik sifatida foydalanilganligi haqida bilimlar oshishiga xizmat qiladi.

Aziziddin Nasafiyning komil inson ta'limoti o'z davrida tasavvuf ahli uchun ham, ta'lim-tarbiya jarayoni uchun ham beqiyos asar sifatida qadrlangan. Uning asarlari yevropa davlatlari uchun bebaho asar sifatida foydalanish uchun XV asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinadi. Ammo sobiq sho'ro davrida barcha buyuk allomalarimiz kabi Nasafiylar merosi ham qoralandi. Ularning asarlari o'rganish, islomiy ilmlarni o'rgatish qoralanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng o'tmishimizni, tariximizni tiklash uchun ulkan ishlar amalga oshirildi. Allomalar nomi qaytadan tiklandi. A. Nasafiy merosini o'rganish uchun nasafiyshunos olimimiz N. Komilov ulkan ishni amalga oshirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ustoz Nasafiyning "Zubdat-ul haqoyiq" kitobini o'zbek tiliga tarjima qilib, o'quvchilar uchun taqdim qildi.

Bu asarda insonning kamolotga erishish bosqishlari va omillari keng va tushinarli bayon qilingan bo'lib buni biz pedagogik tahlilini ishlab chiqdik. Shaxs shakllanishida faoliyatning o'rni alloma beqiyos tariflaydi. Insonni hayvondan ajratadigan asosiy omillardan birini u ongli faoliyat qilib ko'rsatadi.

Shaxs shakllanishida irsiyatning o'rnini beqiyos baholab ota va ona komil farzand voyaga yetkazish uchun avvalo ular o'zlari komil bo'lishi kerakligini, ota-onadagi jamiki xislatlar bolaga o'tishini aytib o'tadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarning bugungi kun pedagogikasidagi o'rnini har bir pedagog aniq ayta oladi. Alloma XIII asrdayoq ularning ahamiyatini o'z asarlarida yoritib o'tadi. Komil inson masalasini yuksak baholaydi.

Xulosa

Qashqadaryo vohasi qadimdan iste'dodlarga boy. Ming yillar davomida shakllangan ogʻzaki va yozma adabiyot anʼanalari hamon barhayot. Zero, Najmiddin Nasafiyning birgina "Samarqandiya" asarida 60 dan ziyod Nasafiy, Kosoniy, Kasbaviy va Bazdaviylarning, 10 ga yaqin Keshiylarning faoliyatiga oid maʼlumotlar bor. Hali tarixning chang bosgan qatlamlarida oʻnlab allomalar merosi oʻz tadqiqotchilarini kutib turibdi. Ularni sinchkovlik bilan oʻrganish mamlakatimiz tarixi va madaniyatining yangi sahifalarini kashf etish imkonini beradi. Mana shunday ishlarni davom etirib biz ham bir qancha izlanishlar olib bordik va quydagi xulosalarga keldik:

1. Qadimgi Nasafda ilm-fan, madaniyat rivojlangan, Qashqadaryo vohasida hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik taraqqiy qilgan. Qadimgi Nasafda madrasalar faoliyat koʻrsatgan boʻlib, taʼlim-tarbiya ilmiga didaktik qoidalar asosida taʼlim va tahsil tashkil etilgan. Qadimgi Nasafiyilar bir-biriga bogʻliq taʼlim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti, qonuniyatlari borasida ijod qilganlar. Madrasalarda mudarrislar faoliyati yuksak baholangan va ular bilimiga qoʻyilgan talablar ham yuqori boʻlgan. Taʼlim-tarbiya jarayoni asosan nimani, kimga, qanday oʻqitish kerak? tamoyili asosida tashkil etilgan.
2. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan soʻng qadimgi Nasafiy allomalar merosini oʻrganish uchun yoʻl ochildi. Oʻsha davrda asosiy masala Nasafiyilar haqida yoritilgan manbalarni izlab topish, asarlari haqida maʼlumot yigʻishdan iborat edi, chunki Nasafiy allomalar oʻz asarlarida, hayot yoʻli davomida taʼlim-tarbiya jarayoniga oid koʻplab maʼlumotlar qoldirgan boʻlib, ularning pedagogik qarashlarini yigʻib, bugungi kun pedagogik jarayoniga samarali usullarini olib kirishdan iborat. Nasafiylarning pedagogik qarashlarini oʻrganish va uni bugungi kun taʼlim jarayoniga moslashtirish taʼlim jarayoni samaradoriligi oshishiga xizmat qiladi.

3. Tasavvuf ilmida o'z ijodi va faoliyati bilan yuksak nom qoldirgan buyuk mutafakkir Aziziddin Nasafiy o'z asarlarida komil insonni tarbiyalash, uning kamol topish bosqichlarini yetarlicha asoslab bergan. Alloma insonni bir tomonlama emas, balki kompleks yondashuv asosida o'rgangan. Alloma o'zining "Zubdat-ul haqoyiq" asarida katta olam va uning kichiraytirilgan nusxasi kichik olam haqida ma'lumotlar bergan bo'lib, asarda asosan insonning kamolotga erishish uchun qilishi lozim bo'lgan ishlar bayon etilgan. Inson kamoloti uchun faqatgina diniy bilimlar va ibodat emas, balki dunyoviy bilimlar, borliqni anglash lozimligi yoritilgan. Nasafiy asarlarining bosh mavzusi "o'zlikni anglash" masalasi hisoblanadi. Inson qachonki, o'zini tanisa, o'zligini anglasa, u dunyoni taniydi, borliqni anglaydi.
4. Aziziddin Nasafiyning komil inson ta'limotining ta'lim-tarbiya jaroyinida qo'llanilishidan asosiy maqsad, bugungi kun globallashuv sharoitida yoshlarimizni "tarix bilan tarbiyalash"dir. Nasafiy asarlarining bosh mavzusi komil inson va uning komillikka erishish bosqichlari hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash dasturining bosh maqsadi ham komil insonni tarbiyalash hisoblanadi. Alloma shaxs kamolotida faoliyatning o'rnini beqiyos sanab, insonning hayvondan farqli jihatlaridan biri faoliyat ekanligini asoslab beradi. Nasafiy komil insonda "yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif" kamolotga yetishi lozimligini aytadi. Boshqa tasavvuf allomalaridan farqli ravishta alloma insonni real shaxs sifatida tariflaydi, qachonki u yuqoridagi to'rt sifatga ega bo'lar ekan u komildir. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, biz yosh avlodni tarbiyalashda bugungi axborot texnologiyalari zamonida yoshlarimizni yaxshi xulqli ma'naviyatli qilib tarbiyalash Aziziddin Nasafiy kabi allomalarimiz merosini o'rganib bugungi ta'lim-tarbiya jarayoniga mos tomonlarini pedagogik jarayonga qo'llashdan iboratdir.

5. Aziziddin Nasafiyning komil inson ta'limotining pedagogik ta'limda qo'llanilishidan asosiy maqsad yoshlarga ta'lim-tarbiya jaroyining tarixiy ildizlarini ko'rsatib berish, komil insonning bugungi kundagi ahamiyatini yoshlarga o'rgatish, inson shaxs sifatida shakllanishida irsiyatning o'rnini yosh avlodga yetkazishdan iboratdir. Alloma ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarning o'rni o'sha vaqtdayoq atroflicha bayon qilgan. Bu esa bugungi kun ta'lim-tarbiya jarayonida bosh masala sifatida qolib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi „Qadimgi yozma manbalarni saqlash tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
2. Sh.Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” – T – “O'zbekiston” – 2017-yil. 23-bet
3. Sh.Mirziyoyev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi ” – T – “O'zbekiston” – 2017 – yil 6-bet
4. Sh.Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” – T- “O'zbekiston” – 2017-yil. 17-19-betlar
5. I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” –T – “Ma'naviyat” – 2008-yil. 12-bet
6. I.A.Karimov. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” –T — 2012-yil. 8-bet
7. Aziziddin Nasafiy “Zubdat ul-haqoyiq” N. Komilov tarjimasi. – Toshkent –“Kamalak”. 1995-yil 3-28 betlar
8. Nosir Muhammad “Nasaf va Kesh allomalari” – T – “G'.G'ulom Nashriyoti” – 2001. 5-18 betlar.
9. “O'rta Osiyo olimlari qomusi ” – mualliflar jamoasi- 1995-yil. 50-53 betlar
10. N. Komilov “Tafakkur karvonlari” – T – “Ma'naviyat” – 1999-yil. 28-33 betlar.
11. N.Komilov “Tasavvuf” – T – “Yozuvchi” – 1996-yil. 78-85-betlar
12. U.Uvatov va b. “O'zbekiston – buyuk allomalar yurti” - T “Ma'naviyat”, “Movaraunnahr” – 2010. 23-45-betlar
13. U.Uvatov “Buyuk yurt allomalari” – T – “Ma'naviyat” – 2016-yil. 34-67-betlar.

14. P.Ravshanov. “Qarshi tarixi” - T – “Yangi asr avlodi” – 2006-yil. 12-87-betlar.
15. P.Ravshanov. “Adabiy sahifalar” – T – 1985-yil. 19-bet
16. Sh. Kamaliddinov. “Kitab al-ansab” - T- 1997-yil. 22-bet
17. M. Tursunova. “Madrasalarda ta’lim tizimi” – T – “Movaraunnahr” 2016-yil. 35-57 betlar
18. A.Choriyev, I.Choriyev. “Pedagogikaning metodologik asosi va ilmiy tadqiqot metodlari” – T- “Nishon noshir” – 2016-yil. 67-69-betlar
19. A.Choriyev, I.Choriyev. “Pedagogika tarixi metodologiyasi” – T- “Fan” – 2010-yil. 43-56 betlar.
20. B. Axmedov. “O’zbekiston xalqlari tarixi manbalari”- T -1995-yil. 41-42-betlar.
21. B. Valixo’jayev. “Samarqandda oliy ta’lim – madrasai oliya – universitet tarixidan lavhalar” – Samarqand- Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001-yil.
22. M . Quronov. “Milliy tarbiya” –T.:Ma’naviyat, 2007-yil 9-bet.
23. X. Hamidiy. “Ko’hna sharq darg’alari” –T.: Sharq. 1999-yil. 51-bet.

Internet manbalari

www.edu.uz

www.ziyonet.uz

www.tafakkur.uz

www.lex.uz

Ilovalar

№	Savollar
1	Qadimgi Nasafda ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
2	Qadimgi Nasaf mutafakkirlaridan kimlarni bilasiz?
3	Qadimgi Nasafiylarning asarlarini o'qiganmisiz?
4	Ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirishda nimalardan foydalanasiz?
5	Ta'lim-tarbiya jarayonida "tarix bilan tarbiyalash" deganda nimani tushinasiz?

1-jadval. Anketa-so'rovnoma savollari.